

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**SHARQ MAMLAKATLARIDA
TURIZM RIVOJLANISHINING
O'ZIGA XOS JIHATLARI**

MONOGRAFIYA

Toshkent – “Best-pulish” – 2024

UO'K:

KBK:

Taqrizchilar:

Abdullayev R.V. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Axunova G.N. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Mas'ul muharrir:

Voxidova M.X. – Iqtisodiyot fanlari byicha PhD, dotsent.

Mualliflar jamoasi:

Azizova N.T., Erkaboyev A.B., Komilova M., Arifjonov G.,
Narov U.I., Abdullayeva S.Ye. Voxidova M.X., Xusanov Ch.Q.,
Erkaboyev A., Risqulov R.B., Kadirova Z.A., Gaziyeva S.S., Tashtayeva S.K.

Sharq mamlakatlarida turizm rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari:
monografiya / Mualliflar jamoasi; – T.: “Best-pulish”, 2024. – 240 bet.

Annotatsiya

**Mazkur monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining 2024-yil __ -abgustdagи __ -sonli qaroriga asosan
nashrga tavsiya etildi.**

ISBN: 978-9943-9110-XXX

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024.

© “Best-pulish”, 2024.

MUNDARIJA

	Kirish	4
I BOB	YAPONIYADA TURIZMNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI <i>Azizova Nazira Ttxtayevna, Erkaboyev Abdulaziz Baxromovich</i>	6
II BOB	KOREYA RESPUBLIKASIDA TURIZM INDUSTURASINING RIVOJLANISHI <i>Komilova Mashkura, Arifjonov Gulomjon</i>	30
III BOB	SINGAPURDA TURIZM RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Narov Ulug ‘bek Irisqulovich, Abdullahayeva Shahnoza Yerkinovna</i>	48
IV BOB	MALAYZIYADA TURIZMNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI <i>Voxidova Mehri Xasanovna</i>	81
IV BOB	HINDISTONDA TURIZMNING O‘ZIGA XOSLIGI <i>Xusanov Chori Qodirovich Erkaboyev Abdulaziz</i>	105
VI BOB	OSIYO VA FORS KRFAZI MAMLAKATLARIDA TURIZM MARKAZLARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI <i>Risqulov Ravshanjon Bektrayevich</i>	129
VII BOB	TURKIYADA TURIZM RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Kadirova Zulayxo Abdusalimovna</i>	153
VIII BOB	BAA DA TURIZM RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna</i>	181
IX BOB	O‘ZBEKİSTONDA TURIZM RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Tashtayeva Saida Kaxarovna</i>	199
	Xulosa	223
	Foydalilanilgan adabiyotlar	226

KIRISH

Bugungi kunda turizm dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishida muhim rol ynamoqda. Turizm sektori dunyo bylab milliy daromadlarning oshishiga, bandlikni ta'minlashga, xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlashga va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga sezilarli hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, Sharq mamlakatlari o'zining boy madaniy merosi, rang-barang landshaftlari va qadimiy an'analari bilan ajralib turadi. Bu hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud, lekin shu bilan birga, turizmning barqaror rivojlanishi uchun bir qator muammolarni ham hal qilish zarur.

Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida turizm sektori madaniy me'yorlar, siyosiy iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar kabi omillar bilan ajralib turadi. Bu hududlarda dunyoning eng qadimiy sivilizatsiyalari joylashgan bo'lib, ular o'z landshaftlarining tabiiy go'zalligidan farqli ravishda tarix, san'at va an'analarning boy ro'yxatini taqdim etadi. Shu bilan birga, bu yo'naliishlarni jozibador qiladigan atributlarning o'zi ham barqaror turizmni rivojlantirish, madaniy merosni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy foydalarni adolatli taqsimlash uchun muammolarni keltirib chiqaradi.

Turizmning Sharq mamlakatlarida rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini tushunish bir qancha sabablarga ko'ra hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mahalliy hukumatlar va siyosatchilar uchun bu, madaniy va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish bilan birga iqtisodiy rivojlanish uchun turizmdan foydalanish haqida tushuncha beradi. Sarmoyadorlar va biznes-operatorlar uchun esa bu, ushbu hududlardagi bozor dinamikasi va iste'molchilarning xohish-istiklarining nuanslarini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, bu mahalliy hamjamiyatlar uchun turizmning ularning turmush tarzi va atrof-muhitga ta'sirini yoritib beradi va yanada inklyuziv va barqaror turizm modellariga intilishda yo'l ko'rsatadi.

Ushbu monografiyaning asosiy maqsadi Sharq mamlakatlarida turizmni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarini chuqr o'rganish, bu jarayonning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aspektlarini tahlil qilish hamda turizmning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan omillarni aniqlashdir. Tadqiqotda Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlaridagi

turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, madaniy me'ros, tabiiy resurslar, iqtisodiy va siyosiy omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turizmning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan strategiyalar va siyosatlarni aniqlash orqali Sharq mamlakatlarida turizm sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning yana bir muhim maqsadi – turizm sohasidagi global tendensiyalarni hisobga olgan holda, Sharq mamlakatlarida turizmni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganishdir. Bu esa, o'z navbatida, ushbu mamlakatlar uchun turizmni iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish vositasi sifatida samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu monografiya turizmning Sharq mamlakatlaridagi rivojlanishiga qiziqqan ilmiy tadqiqotchilar, siyosatchilar, sarmoyadorlar va keng jamoatchilik uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

I BOB. YAPONIYADA TURIZMNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

1. Yaponianing turizm salohiyati

Yaponiya ming yillik tarixi, o‘ziga xos madaniyati va an’analariga ega bo‘lgan dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan biridir. Dunyoga “Yaponiya” nomi bilan mashhur ushbu mamlakat aslida “Nihon Koku” deb nomlanadi. Bu nom rasmiy bo‘lib, pul, hujjatlar va pochta markalarida qo‘llaniladi va “Chiqayotgan Quyosh mamlakati” ma’nosiga ega.

Yaponiya Osiyoning Uzoq Sharq mintaqasida joylashgan mamlakat bo‘lib, Tinch okeanida joylashgan arxipelagdan iborat. Mamlakatning umumiyligi maydoni 377,976 kvadrat kilometr bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyoda 61-o‘rinni egallaydi. Shunga qaramay aholisi gavjum mamlakatlardan hisoblanib, 2023-yil holatiga ko‘ra ularning soni 125,4 milliondan ko‘proq hisoblanadi. Aholi soni bo‘yicha Yaponiya dunyoda 11-o‘rinni egallaydi.

Yaponiya har jihatdan, jumladan, ishlab chiqarish, turmush farovonligi, xalqaro savdo, ta’lim va texnologiya kabi ko‘plab sohalarda rivojlangan mamlakatdir. Ular orasida turizm ham bir necha yo‘nalishda rivojlanmoqda:

- kurort-davolash va dam olish maskani;
- sport va sog‘lomlashtirish, shu jumladan SUV va tog‘ turizmi kabi kichik turlari;
- plyaj;
- kognitiv;
- ziyorat turizmi;
- ishbilarmonlik turizmi va MICE.

Ma’lumki, Yaponiya an’anaviy ravishda dunyoning eng ilg‘or destinatsiyalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi o‘n yillikda bu yerga o‘rtacha 30-40 million nafar turist tashrif buyuradi. Ma’lum bir mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish vazifasi turganda, albatta Yaponianing turizm salohiyati va uni rivojlantirish tajribasi boshqa muqobil mamlakatlar orasida birinchi navbatda o‘rganiladi. Yaponianing turistik salohiyatini o‘rganar ekanmiz, uning rivojlanishida quyidagi asosiy omillarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

1. Iqtisodiy omil;
2. Tarixiy omil;
3. Madaniy omil;
4. Geogarafik joylashuvi va iqlimi;
5. Innovatsiya va zamonaviy texnologiyalar.

Yaponiya yalpi ichki mahsuloti bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsuloti bo‘yicha dunyoda 30-o‘rinni egallaydi. Inson rivojlanish indeksi o‘ta yuqori bo‘lib, aholisi uzoq umr ko‘rish bo‘yicha yetakchilik qiladi. An’anaviy ravishda, ayniqsa XX asr davomida, hali yangi industrial mamlakatlar maydonga chiqmagan-da Yaponiya AQSH va Yevropa bilan birgalikda jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish ulushi, sanoatlashuv darajasi bo‘yicha ham eng ilg‘or uchlikni tashkil etgan. Bejizga uning valyutasi AQSH dollari va yevro valyutalari qatorida eng yuqori ulushga ega bo‘lmagan.

Yaponiyada moliya bozorlari ham eng qadimiy rivojlangan moliya markazlaridan hisoblanib kelgan. Ma’lumki, bugungi kunda birjalarda qimmatli qog‘ozlar va boshqa aktivlarning narxlarini ifodalaydigan grafiklar orasida “yapon shamlari” deb nomlanadigan turi aynan Yaponiya guruch bozorlarida ilk bor yo‘lga qo‘yilgan. Bugungi kunda ham yapon bank-moliya tizimi o‘ziga xos jihat bilan ko‘plab soha vakillarining e’tiborini tortadi va ularni ushbu tajribani o‘rganish uchun Tokiyo, Osaka kabi moliyaviy markazlarga xizmat safarlarini qilishga undaydi.

Yaponiya iqtisodiyoti tarixida eng e’tiborga loyiq hodisa 1950-1970-yillardagi “Yaponiya mo‘jizasi” bo‘lgan. Bu davr mobaynida jahon avtomobilsozlik va elektronika sohasida AQSH va Yevropa kompaniyalariga raqobatchiga aylanadi. Jumladan, Toyota, Mitsubishi, Yamaha kabi brendlар dunyoda deyarli hukmron uchlikka aylangan Ford Motors, General Motors va Chrysler kompaniyalariga nafaqat dunyoda, balki kompaniyalar rezidenti hisoblangan AQSHda ham bozordagi ulush bo‘yicha jiddiy raqibga aylanadi. Yaponianing Sony, Toshiba, Honda, Nintendo kabi brendlari global miqyosga ega. Toyota korporatsiyasi dunyo sanoatida alohida e’tiborga loyiq TMKdir. Uning o‘ziga xos Kaizen ishlab chiqarish modeli, ba’zan Toyota Production System (TPS) deb ham nomlanadi, betakror model bo‘lib, faqat yapon mutxassislari tomonidan amalga oshirilsagina muvaffaqiyatli yakunlangan. Bu yapon iqtisodida nafaqat texnologik,

balki inson kapitali ham o‘ziga xos jihatga ega ekanligidan dalolat qiladi.

Aynan iqtisodiy omil Yaponiya turizm salohiyatining muhim determinantlaridan hisoblanadi. Bu Yaponiyaning avvallari kapital, keyinchalik ishchi kuchi migratsiyasi markaziga aylanishi bilan izohlanadi. Shuningdek, biznes vakillari va bank-moliaya mutaxassislari mamlakat poytaxti Tokio va boshqa yirik shaharlarga uzlusiz ravishda xizmat safari uyishtiradilar. Bularning barchasi ishbilarmonlik turizmi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yuqoridagi iqtisodiy xususiyati Yaponiyada MICE turizmining rivojlanishini belgilab beradi. Yaponiyada Tokiyo, Osaka, Nagoya, Kyoto, Hiroshima, Chiba, Sapporo, Sendai, Yokohama, Kobe, Kitakyushu shaharlari dunyo MICE shaharlari maqomiga erishgan. Ulardagi otel va boshqa turistik turar joylar haqida 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Global MICE shaharlar qatoriga kirgan Yaponiya shaharlari va ulardagi tursitlar uchun mo‘ljallangan bino hamda ulardagi xonalar soni¹

Shahar nomi	Binolar soni	Xonalar soni
Osaka	1374	-
Sapporo	188	27,848
Sendai	208	35,561
Yokohama	97	18,479
Nagoya	196	30,118
Kyoto	550	27,753
Kobe	96	14,947
Hiroshima	147	11,490
Kitakyushu	114	8,221

Tokiyo Yaponiyaning anjumanlar bo‘yicha yetakchi shahri bo‘lib, unda eng muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy anjumanlar va xalqaro konferensiyalar o‘tkaziladi. Tokiyo yapon tilida “Sharqiy poytaxt” ma’nosini anglatib, uning hududi 2188,67 km² tashkil etadi. Aholisi esa 14 million kishidan ortiqdir. Tokiyo dunyoda eng katta aglomiratsiyaga ega va eng xavfsiz shahar deb e’tirof etilgan. Tokiyo Yaponiyaning ma’muriy, moliyaviy, sanoat va siyosiy markazidir. Tokiyo Fond bozori dunyo bo‘ylab kapitalizatsiyasi bo‘yicha 2-o‘rin va qimmatli qog‘ozlar aylanmasi bo‘yicha 4-o‘ringa ega.

¹ Global MICE Cities | Why Japan | Japan. Meetings & Events (japanmeetings.org)

Shaharga 1457-yilda asos solingan va Edo qal'asi uning poydevori hisoblanadi. 1869-yilda "Meydzi restavratsiyasi" oqibatida u Kyotodan so'ng navbatdagi poytaxtga aylanadi. Shaharning Michelin yulduzli restoranlari butun shahar bo'y lab 84 mingdan ortiq ovqatlanish joylari sifatida faoliyat yuritib, an'anaviy va zamonaviy madaniyat va oziq-ovqat mahsulotlarini taklif etadi. "Tokiyo konvensiyasi va tashrif buyuruvchilar byurosi" kabi eng so'nggi texnologiyalar va ma'lumotlar bilan ta'minalydig'an tadbir tashkilotchilari xizmat safaridagi biznes vakillariga xizmat ko'rsatadi. Bunday sharoitda har qanday anjuman yoki tadbirlar Tokiyoda muvaffaqiyatli o'tkazilishi kafolatlangan. Tokiyoda nafaqat osmono'par binolar, balki yerosti qurilishi ham keng tarqalgan. Turistlar uchun mo'ljallangan yerosti markazalari ham ko'pdirdi.

Mamlakatning muhim sanoat, madaniy, tarixiy va diniy markazi bo'lgan Kyoto sayyoohlар orasida juda mashhur hisoblanadi. Tokiyodan avval 1869-yilga qadar Yaponianing poytaxti bo'lib kelgan ushbu shaharda qadimiy an'anaviy hunarmandchilik, jumladan, lak va bronza buyumlar, chinni yasash, kashtachilik rivojlangan. Kyoto yapon madaniyatining timsoli hisoblanadi. Shaharning diqqatga sazovor joylari orasida 2000 ga yaqin ibodatxonalar, yuzlab bog'lar, o'nlab saroylar mavjud. Xigashi-Xongan, Reanji ibodatxonasi, Sanjusangendo Ibodatxonasi, "Kumush pavilion", Hideyoshi qal'asi, Katsura Rikyu imperatorlik villasi, Kyoto milliy muzeyi, Botanika muzeyi, yapon klassik me'morchiligining ko'plab yodgorliklari ko'plab turistlarni o'ziga jalb qiladi.

Yana bir diqqatga sazovor qadimiy shaharlardan biri Nara shahridir. U VIII asrlardagi Yaponianing tarixiy poytaxti hisoblanadi. Bu yerda Todaiji ibodatxonasi ansamblida Buddaning eng katta figurasi joylashgan. Ushbu haykal 444 tonna bronzadan quylgan bo'lib, uning balandligi 16 metrni tashkil etadi. U yerda shuningdek peyzaj bog'ları va "1000 kiyik parki" mavjud.

Yaponianing uchinchi yirik shahri Osakadir. U Osaka bo'g'ozining Yodo daryosi bo'y lab Honsyu orolinining janubida joylashgan. Bir vaqtlar mamlakatning asosiy savdo markazi bo'lgan Osaka shahri yer yuzida Tokiyo va Singapurdan keyin uchunchi eng xavfsiz shahar maqomiga ega. Bu yerda guruch va boshqa mahsulotlar bilan bog'liq birinchi yirik savdo uylari paydo bo'lgan. Asosiy diqqatga sazovor joylari sifatida Kabuki va Bunraku qo'g'irchoq teatr-

lari, Milliy san'at muzeyi, Osaka qal'asi, Sharq keramikasi muzeyi, Issin-dzi, Sitenno-dzi, Sumeyosi-taysya, Temman-gu ibodatxonalaridir.

Sayyoohlар томонидан faol tashrif buyuradigan yapon shaharlaridan birи Xirosima sharidir. Ma'lumki, 1945-yil 6-avgust kuni Xirosimaga tashlangan birinchi atom bombasi natijasida diametri 6,5 km bo'lган hudud yer bilan tekislangan. 1949-yildan boshlab Xirosima tiklana boshladi. Bugungi kunda bir milliondan ziyod aholisi bo'lган gullab-yashnayotgan shahar bo'lishiga qaramay tarixiy joylari qoldirilgan. Sobiq shahar markazida tinchlik bog'i va tinchlik yodgorlik muzeyi joylashgan.

Yaponiya sharqiy Osiyoda, 6852 orolda joylashgan. Ularning eng yiriklari Xonsyu, Xokkaydo, Kyushu va Shikoku orollaridir va ular butun hududning 97 foizini tashkil qiladi. Yaponiyaning arxipelagi ko'plab bo'g'ozlardan iborat. Ularning eng yiriklari Tokiya, Sagami, Suruga, Isem Osaka, Utiura, Tosa, Sikoku, Simabara, Kagosima va Sibusi va boshqa bo'g'ozlardir.

Yaponiyaning geografik joylashuvi shu jihatdan e'tiborga loyiqli, u Tinch okeani sohillari va orollaridan iborat. Yaponiyani Tinch okeani Avstraliya, Papua-Yangi Gvineya, Indoneziya, Sharqiy Timor, Malyaziya, Singapur, Bruney, Fillipin, Tayland, Kambodja, Vyetnam, Xitoy, Koreya, Rossiya, AQSH, Kanada, Meksika, Gvatemala, Salvador, Gonduras, Kosta Rika, Chili, Nikaragua, Peru, Ekvador, Panama mamlakatlarini bog'lab turadi. Xalqaro savdoning 57% Osiyo Tinch Okeani Hamkorligi (ATES) doirasidagi kelishuvlarga to'g'ri kelmoqda.

Osiyo Tinch Okeani mintaqasida dunyoning eng nufuzli integratsiyalari faoliyat yuritadi. Ular asosiyлari quyidagilardan iborat:

- Osiyo Tinch Okeani Iqtisodiy Hamkorligi (ATES);
- Jabubi-Sharqiy Osiyo Mamlakatlari Assotsatsiyasi (ASEAN);
- Shanxay Hamkorlik Tashkiloti;
- Yevro Osiyo Iqtisodiy Ittifoqi (EAES);
- Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti;
- BRIKS;
- G-20 va G-8.

Mintaqada dunyoning alohida maqomga ega va turli moliyaviy va iqtisodiy soha, birlashma, tashkilotlarning markazi hisoblangan ko'plab shaharlar joy olgan. Masalan, Shanxay, Gon Kong, Kuala-Lumpur, Taybey, Tokio, Osaka, Singapur, Seul shaharlari dunyoning eng ko'p

aglomiratsiyalariga ega yirik shaharlardan hisoblanadi. Baliqchilik yo‘nalishining qariyb 60% Tinch Okeaniga to‘g‘ri kelishini hisobga olinganda, mintaqaning baliqchilik va dengiz mahsulotlarini yetishtirishdagi ulushi kattadir. Yaponiya, Koreya va boshqa mamlakatlar ichki iste’mol va eksport uchun tirik baliq, konservalangan go‘sht, baliq moyi, farmatevtik va kosmetika shaklda yetishtirish bo‘yicha yetakchilik qiladi.

Osiyo Tinch Okeani mintaqasi dengiz va havo yo‘llari transporti uchun eng strategik aloqa vositasi hisoblanadi. Atlantik va Hind okealari orasidagi ko‘plab transit-logistika markazlari mintaqadagi portlarida o‘rin olgan. Antlantika okeanidan dengiz transportlari Panama kanali orqali o‘tib, Tinch okeani portlariga yo‘l oladi yoki Hind okeani bo‘ylab davom etadi. Tinch okeani bo‘ylab 215 port shaharlari joylashgan bo‘lib, ular orasida Kobe, Osaka, Yokogama, Yokosuka portlari Yaponiya portlarining eng faollaridir.

Xalqaro Turizm Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, Osiyo Tinch okeani mamlakatlari 2010-yildan boshlab dunyoda turistlarni jalg qilishda yetakchilik qilib kelmoqda va Yaponianing mintaqadagi ulushi 4,8% tashkil qilmoqda (2-jadval).

2-jadval

Osiyo Tinch Mamlakatlariga 2010-yildan beri tashrif buyuruvchi xorijiy turistlarning o‘rtacha yillik soni²

Nº	Mamlakat nomi:	Xorijiy turistlar soni:	Mintaqadgi ulushi (%):
1	Xitoy Xalq Respublikasi	55 mln	29,4%
2	Malayziya	24 mln	12,8%
3	Gonkong	20 mln	10,6%
4	Tayland	16 mln	8,5%
5	Makao	12 mln	6,4%
6	Singapur	9 mln	4,8%
7	Koreya Respublikasi	9 mln	4,8%
8	Yaponiya	9 mln	4,8%
9	Indoneziya	7 mln	3,7%
10	Avstraliya	6 mln	3,2%
11	Tayvan	6 mln	3,2%
12	Vyetnam	5 mln	2,6%
13	Fillipin	4 mln	2,1%
14	Yangi Zelandiya	3 mln	1,6%
15	Kambodja	2 mln	1%
Jami:		187 mln	100%

² UNWTO ma’lumotlari asosida tayyorlandi

Yaponiya tekisliklari mamlakat hududining atigi 20% ni tashkil etadi. Mamlakat hududining katta qismi keskin tepalik tog‘lardan iborat. Shuning cuhun ham Yaponiyaning ko‘p maydoni dehqonchilik uchun qulay emas. Yaponiya tog‘lari yapon xalqi uchun an’anaviy, e’tiqodiy va madaniy ahamiyatga ega. Har bir tog‘ cho‘qqilarida ziyyaratgohlar uchraydi. Shuningdek, tog‘lar chang‘i turizmining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Fudziyama tog‘i eng baland cho‘qqiga ega va uning balandligi 3776 metrni tashkil etadi.

Yaponiya tog‘li tepaliklarining aksari vulqonlarni tashkil etib, ularning soni taxminan 150 ta va ularning 15 tasi hozirda faol vulqonlar hisoblanadi. Buning sababi Yaponiya Tinch okeanining “olovli xalqasi” markazi hisoblanadi va buning oqibatida yiliga o‘rtacha 1500 yer silkinishlari qayd etiladi. Shuningdek, ko‘plab sunami va to‘fonlar ham kuzatiladi. Yaponiyaning ushbu geologik tabiatni mamlakatda yer silkinishlarini bashorat qilish bo‘yicha eng kuchli mutaxassislar yetishib chiqishiga sabab bo‘lgan. Yapon muhandislari ishlab chiqqan texnologiya bo‘yicha hatto eng seysmik hududlarda ham osmono‘par binolar qurish mumkin.

Umuman olganda, Yaponiya iqlimi qishloq xo‘jaligi va yashash uchun qulay hisoblanadi. Eng muhim jihatlari – muntazam ro‘y beradigan mussonlar, yozda tayfun va sellar bilan, qishda qor yog‘ishi bilan almshib turishidir. Okean oqimi Yaponiya iqlimiga yumshatuvchi ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakat hududining katta qismi mo‘tadil va subtropik xarakterga ega.

Yaponiya daryolari ichida eng uzunlari Sinan ova Tone daryolari bo‘lib, ularning uzunligi mos ravishda 367 va 322 kilometrdir. Umuman olganda, daryolari uzun emas, tog‘ oqimlaridan hosil bo‘ladi va kemalar harakati uchun qulay emas. Biroq, daryolari gidroenergiya sohasida, shuningdek, sanoat, qishloq xo‘jaligi va maishiy suv ta’midotida muhim o‘rin egallaydi.

Yaponiya ko‘llari asosan tog‘lar orasidagi tektonik va vulqon ta’sirida hosil bo‘lgan chuqur ko‘llar va sohillarga yaqin sayoz ko‘llarni o‘z ichiga oladi. Ko‘llar faqat Yaponiyaga xos betakror manzaralarga bo‘ydir va mamlakatning suv, ayniqsa chuchuk suv ta’midotida muhim rol o‘ynaydi.

Yaponiya florasi Sharqiy Osiyorning Golarktik florasiga mansub bo‘lib, tahminan 168 turdag‘i daraxt, 850 turdag‘i but ava 3000 ming turdag‘i o‘t-o‘lanlarni o‘z ichiga oladi. Hokkaydoda archali va bambukli

o‘rmonlar Honsyuga kelganda bargli o‘rmonlar bilan almashinadi. Ular orasida tollar, buka, kiparis va sosnalar ko‘p. Kyusyu va Ryukyu kabi janubiy orollarda subtropik daraxtlar, jumladan, palmalar ko‘proq.

Yaponiya faunasi Xitoy-Himoloy hududining Golarktik faunasiga xosdir. Hayvonlari asosan tog‘li va o‘rmonli hududlarda yashab, ular orasida yapon ayig‘i, bo‘ri, mahalliy kiyiklar, to‘ng‘iz, yapon tulkisi, barsuk, olamxon va ko‘plab mayda hayvonlar uchraydi. Qushlari orasida dengiz qushlari, jumladan, chaykalar, g‘ozlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Yaponiya faunasi ayniqsa dengiz hayvonlariga nihoyatda boyadir. Okean va dengiz qirg‘oqlariga yaqin joylarda 600 turdagি baliq, 1200 turdagи chig‘anoqlar va qisqichbaqalarning turli hillari mavjud.

Yaponiyada milliy an'analar kuchli rivojlangan, u o‘zining bayramlari bilan mashhur. Sakura festivali, guruch ekish festivali, Sapporo qor festivali, choy marosimlari, Kabuki teatriga tashrif buyurish va sumo kurashlari kiradi.

Yaponiyada turizmida “eng chiroli uchta tur” va “eng chiroli uchta bog” ni ajratib ko‘rsatiladi. Eng chiroli uch turga Miyajima orolidagi ibodatxonaning dengiz uzra turgan darvozasi, “osmonga ko‘prik” deb nomlangan uzun Amanoxasidate qumligi va qarag‘ay bilan qoplangan ko‘plab orollarga ega Matsusima ko‘rfazi kiradi. Eng yaxshi uchta bog‘ deganda esa Kairaku-en, Kenroku-en va Koraku-en bog‘lari nazarda tutiladi. Bulardan tashqari, Yaponiya bo‘ylab Vakasa ko‘rfazi, Kyushudagi Aso va Sakurajima vulqonlari, marjon riflari, Okinava plyajlari va boshqa ko‘plab landshaftlar va bog‘larni topish mumkin.

Yaponiyada 4 mingga yaqin muzey, shu jumladan 2 mingga yaqin tarixiy muzey, 800 ta badiiy galereya, 100 ga yaqin akvarium, 500 dan ortiq hayvonot bog‘lari, 4 mingga yaqin jamoat bog‘lari va 430 dan ortiq istirohat bog‘lari, taxminan 2 ming golf maydonchasi, 730 dan ortiq chang‘i va 230 dan ortiq muz maydonchalari, dengiz sport turlari bilan shug‘ullanish uchun 1300 dan ortiq joylar, 2360 ta kurort, ularda 20 mingdan ortiq issiq buloqlar bor. Mamlakatdagi eng katta muzey Tokiyo davlat muzeyi bo‘lib, u taxminan 100 ming eksponatga ega. U dunyodagi eng katta yapon san’ati to‘plamiga ega. Yaponiyada kurort-davolash turizmi balneologik tipdagi kurortlar tomonidan taqdim etiladi. Ushbu kurortlar juda xilma-xil bo‘lib, shartli ravishda uch turga bo‘linadi: dorivor, ko‘ngilochar va aralash. Bundan tashqari, sayyohlarga baliq ovlash va qishloq xo‘jaligi bilan tanishishlari va

hatto guruch ko'chatlarini ekish kabi har qanday ishlarda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan minglab qishloqlar mavjud³.

Yaponiya bog'lari shartli ravishda milliy, qvazi-milliy va prefekturali bog'larga bo'linadi. 2014-yil holatiga ko'ra, ularning 31 milliy bog'lar va ular 20,996 km² yer maydoniga ega, 56 qvazi-milliy bog'lar va ularning maydoni 13,592 km² hududni tashkil etgan. Shuningdek, 314 prefektural bog'lar mavjud bo'lib, ular 19,726 km² maydonga ega. Keyinchalik 2015-yilda Myōkō-Togakushi Renzan, 2016-yilda Yanbaru va 2017-yilda Amami Gunto milliy bog'lari barpo etilib, ularning soni 34 taga yetdi. Shuningdek, 2016-yilda Amami Gunto, Kyoto Tamba Kogen, 2020-yilda Chuo Alp va 2021-yilda Akkeshi-Kiritappu-Konbumori qvazi-milliy bog'lar barpo etilib, ularning soni 58 taga yetdi⁴.

O'rta asrlarda Yaponiyada ko'plab qal'alar qurilgan. Keyinchalik ularning aksariyati o'zaro urushlar va yong'inlar natijasida vayron qilingan, ammo ularning asosiy qismi, odatda, dastlabki loyihalar bo'yicha tiklangan. Yaponianing qadimiy qal'alari sifatida Himeji qal'asi va uning 83 ta asosan yog'ochdan yasalgan binolardan iborat majmuasi, Xonsyu orolida, Matsumoto shahrida, qora fasadi qal'ani misol keltirisih mumkin.

Osozeran yoki "Adolat tog'i" taxminan 1000 yil oldin kashf qilingan, Kiyomizudera yoki "Sof suv ibodatxonasi" (780), Todaiji yoki "Buyuk Sharqiy ibodatxona" (752-784), Kinkakuji yoki "Oltin pavilion" (1408), Ginkakuji yoki "Kumush pavilion" (1482), Okunoin, Yamadera yoki "Tog' ibodatxonasi", Hasedera (686), Horyuji (607), Kokedera, Kamakura Daibutsu (1252), Byodoi, Nanzenji (13-asr o'rtalari), Ninnaji va Muroji ibodatxonalarini mashxurlaridir. Yaponiyada muqaddas joylarga tashrif buyurish bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni ziyorat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tog'li turizmning bunday kichik turi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Yaponiya hududida turli yillarda UNESCO Jahon Madaniy Merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan. Ulardan 20 tasi madaniy va beshtasi tabiiy manzilgohlar hisoblanadi. Jumladan, Nara shahri yaqinidagi buddizm ibodatxonalarini va yodgorliklari majmuasi, Himeji qal'asi (g'arbiy Xonsyu), Yakushima oroli noyob o'simliklari, xususan,

³ https://studwood.net/1105577/turizm/turizm_yaponii

⁴ "Summary table of area figures for Natural Parks". Ministry of the Environment.

qadimgi sadr daraxtlari. Sirakami tog‘ tizmasi, Kyotoning tarixiy yodgorliklari, Sirakava-go va Gokayama tarixiy qishloqlari (Xonsyu markazi, Xirosima shahridagi tinchlik yodgorligi, Muqaddas Miyajima orolida joylashgan Itsukushima sinto ibodatxonasi suvda turgan “suzuvchi” darvozalar bilan, qadimgi Naraning tarixiy yodgorliklari, Ogasavara orollari va boshqalar dunyo turistlar uchun noyob manzilgohlar hisoblanadi.

Yaponiyalik turistlarning o‘ziga xos xususiyatlari shuki, ular ovqatlanish odatlari, urf-odatlari ajralib taradi, va ayni vaqtda zamonaviy qulayliklar, jumladan, turar joy, transport, axborot xizmatlariga talabchan hisoblanadi. Shuningedek, yapon sayyoohlari xavfsizlik va sanitariya masalalariga ham e’tiborli bo‘lib, ularni qabul qilishda oldindan tayyorgarlikni talab etadi. Yaponiyada maktab o‘quvchilari orasida ham ekskursiya shaklidagi turizm keng tarqalgan bo‘lib, ular yangi bilim, his-tuyg‘ular va unutilmas taassurotlarni olish istagiga jalb qilinadi. Yaponiyaning chang‘i kurortlari va plyajlari ham mashhur. Mehmonxonalar, termal buloqlar va plyajlarning milliy o‘ziga xosligidan tashqari, Yaponiya yana turli sport va modaga berilgan yoshlarning tadbirlarini o‘tkazish, Disney Land, turli texnik ixtiolar (masalan, robot o‘yinchoqlar) kabi eng zamonaviy ko‘ngilochar industriyasi ham rivojlangan.

2. Yaponiyada turizmning rivojlanish dinamikasi

Yaponiya turizm tarixi yapon olimi Hayashi Razanning 1643-yilda yozgan “Yaponiyaning uch manzarasi” nomli asarida ilk bor qayd etilgan deb hisoblash mumkin. 1689-yilda esa yapon shori Matso Basyo Yaponiyaning “uzoq shimoliga” sayohat qilishi ham shular jumlasidandir. Eda davrida 1847-yilga qadar Yaponiya yopiq mamlakat bo‘lib, mamlakat bo‘ylab sayyoohlarning harakati uchun “shukuba” nomli tizimli bekatlar tashkil etilgan. Ushbu tizim sayyoohlarni hujjatiga muvofiq nazorat qilishdan tashqari, ularga oziq-ovqat va turar joy xizmatlari ko‘rsatilgan va quruqlikdagi ulovlarni sohil portlari bilan bog‘lab kelgan.

1847-yildan keyin mamlakat tashqi sayohatchilar uchun ochilganda, Meiji mehmonxonalar tizimi va ko‘plab temir yo‘l tarmoqlari bunyod etiladi. 1887-yilda Yaponiya hukumati xorijlik turistlarni jalb qilishda alohida tizim ishlab chiqish zaruratini payqay boshlaydi va bosh vazir Ito Hirobumi tashabbusi bilan Kihinkai tizimi

yo‘lga qo‘yiladi. 1907-yilda “Mehmonxonalarini Rivojlantirish va obod qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, Yaponiya temir yo‘llari vazirligi hamkorligida mamlakat bo‘ylab jamoatchilikka tegishli ko‘plab mehmonxonalar quriladi. Bu davrda Yaponiyaga Yevropa va Amerika qit’asidan turistlar soni keskin ko‘paya boshlaydi. Biroq I va II Jahon urushlari atrofida mamlakatda tuzim sohasining iqtisodiyotdagi ulushi kamayib boradi, chunki Yaponiya harbiy va og‘ir sanoatga katta ustuvorlik beradi.

Umuman olganda, mamlakat turizm tarixida soha muntazam rivojlanib kelganligini kuzatish mumkin. Xususan, 1964-yildan boshlab so‘nggi davrlarga qadar Yaponiyaning turizmga oid statistikasi ma’lumotlariga nazar tashlansa, ba’zi favqulodda yillardan tashqari deyarli barcha yillarda mamlakatga xorijiy turistlarning tashrifi ko‘payib kelgan, garchi ularning o‘sish sur’ati turli davrda turlicha bo‘lsa ham (3-jadval).

3-jadval


Yaponiyada xorijiy turistlarning yillik tashrifi dinamikasi va yillik o‘zgarishi (foizda)⁵

Yillar	Xorijlik turistlar tashrifi soni	Tashriflar sonining yillik o‘zgarishi (%)
1964	352832	
1970	854419	40,4
1975	811672	6,2
1977	1028140	12,4
1980	1316632	18,3
1985	2327047	10,3
1990	3235860	14,1
1995	3345274	-3,5
2000	4757146	7,2
2005	6727926	9,6
2008	8350835	0,0
2009	6789658	-18,7
2010	8611175	26,8
2015	19737409	47,1
2019	31882049	2,2
2020	4115828	-87,1
2021	245862	-94,0
2022	3.832110	1458,6
2023 yan-sent	17.374722	-

⁵ Data list | Japan Tourism Statistics (jnto.go.jp)

3-jadval ma'lumotlariga nazar tashlansa, 1960-yillarda Yaponiya-ga xorijlik turistlar tashrifi yuz minglab kishidan iborat bo'lgan va 1 million kishiga ham yetmagan, jumladan, 1964-yilda 352832 kish mamlakatga buyurgan. Biroq 1970-yildayoq ularning soni 854419 kishiga yetgan va 1964-yilga nisbatan ikki barobardan ham ortiq ko'paygan. 1970-yillarda ularning miqdori milliondan oshgan va har besh yillikda bir necha millionga ko'payib borgan. 2019-yilga kelib xorijiy turistlar tashrifi maksimal darajaga yetgan va 32 milliondan biroz kamroq bo'lgan.

Yaponiyada turizmning rivojlanish dinamikasini yanada to'liq tasavvur qilish uchun yaponiyaliklarning chet elga turistik sayohatini Yaponiyaga tashrif buyurganlar dinamikasi bilan qiyoslash maqsadga muvofiq. Ma'lum bo'lishicha, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha so'nggi yillarni hisobga olmaganda yaponiyaliklarning tashqi sayohati miqdoriy jihatdan ko'proq bo'lib kelgan (1-rasm).



1-rasm. Berilgan yillarda Yaponiyaga tashrif buyurgan va mamlakatdan chet elga sayohat qilgan turistlar soni dinamikasi⁶

1-rasmida 1973-yildan 2023-yil sentabr oyiga qadar Yaponiyaga tashriflar va yaponiyalik turistlarning xorijga safarlari soni aks ettirilgan. Ushbu dinamikada shartli ravishda uch farqli davrni kuzatish mumkin. Jumladan, 1970, 1980 va 1990-yillarda Yaponiyaga xorijlik turistlar oqimiga nisbatan yaponiyalik turistlarning xorijga oqimi yillik o'zgarishi yuqoriyoq sur'atda amalga oshmoqda. 2000-yillarda esa,

⁶ Data list | Japan Tourism Statistics (jnto.go.jp)

garchi xorijliklarnig tashrifi hamon kamroq bo‘lsada, o‘sish tendensiyasi ortmoqda va xorijga safar qilish dinamikasi turg‘unlikka uchramoqda. Va nihoyat, 2010-yillardagi xorijliklarnig tashrifidagi keskin o‘sish sababli, 2015-yildan boshlab ilk bor xorijga sayohat qilishdan son bo‘yicha o‘zmoqda. Pandemiya yillarini hisobga olmaganda yaponiyaliklarning xorijga safari nisbatan turg‘unlikda davom etishi, xorijliklarning Yaponiyaga tashrifi esa, aksincha, yuqori o‘sish tezligida o‘zgarib borishini ekstrapolyatsiya qilish mumkin edi. Trendning tiklanishi esa vaqt masalasidir.

Yaponiyada turizm sohasining rivojlanishi dinamikasiga oid ma’lum bo‘lgan ko‘rsatkichlarga alohida to‘xtalsak.

1960-yillarning o‘rtalarida, Yaponiya fuqarolarining chet elga sayohatlaridagi ichki cheklovlar olib tashlandi va natijada safarlar soni keskin ortdi. Navbatdagi t’lqin fuqaro aviatsiyasidagi rivojlanishi omili tufayli ro‘y berib, bu hatto uzoq orollari hududlarga ham parvozlarni amalga oshirish va sayohat vaqtining qisqarishiga imkon berdi.

1970-yillar oxiri va 1980-yillarning boshida mamlakatda sayyoqlik faolligi past darajada qoldi. Bunga Yaponiya iqtisodiyoti va aholi daromadi bilan bog‘liq omillari sabab sifatida ko‘rsatiladi. Biroq 1980-yillarning ikkinchi yarmida xorijga sayohatning yangi to‘lqini kuzatiladi. 1987-1991-yillarda mamlakatda chiqish turizmini rivojlantirishga qaratilgan “O‘n million” deb nomlangan dastur faol amalga oshirildi. Jahon sayyoqlik bozorida Yaponiya birinchi navbatda chiqish turizmi kirish turizmidan sezilarli ustunlikka ega mamlakat sifatida tanilgan. Bunga iyena kursi sezilarli darajada oshishi va 1987-yil sentyabr oyida Yaponiya transport vazirligi tomonidan turistik rasmiyatshiliklarni soddalashtirish kabi choralar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Ushbu trend 1990-yillarning birinchi yarimida ham davom etadi. Jumladan, 1993-yilda Osaka yaqinidagi yangi Kansai xalqaro aeroporti ochilishi natijasida Yaponiyaning g‘arbiy qismida yashovchi shaxslar uchun chet elga chiqishni osonlashtirdi.

Yaponiyaliklarning xorijga sayohatining dinamikasida 1996-yildan boshlab turg‘unlik boshlandi. XXI asrning boshida esa Yaponiyadan chiquvchi turistlar oqimining yo‘nalishi ham sezilarli darajada o‘zgardi. Yaponlar Amerika, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo mamlakatlariga nisbatan kamroq va yaqin mamlakatlarga, ayniqsa, Uzoq Sharq minatqasiga ko‘proq sayohat qila boshladilar. Bu ko‘plab omillar qatori ushbu davrdagi moliyaviy inqiroz, milliy valyutaning

nisbatan qadrsizlanishi, shuningdek, mintaqadagi va xalqaro vaziyatning beqarorligi ta'siri, yoki shunchaki tashqi sayohat trendining kulminatsion nuqtaga kelib, barqaror oqimga tushganini anglatishi mumkin.


2000-yillarda Yaponiyada turizm muvaffaqiyatli rivojlanishiga qaramay, bir qator muammolarni aniqlash mumkin: hayotning yuqori narxi, til va madaniy to'siqlar, qattiq viza rejimi. 2003-yilda hukumat turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqdi. Bu birinchi navbatda, xalqaro reyslar sonini ko'paytirish, xorijlik sayyoohlар uchun ham havo, ham quruqlik transportida sayohat haqini to'lashda chegirmalar taqdim etish, shuningdek, Yaponiyada ekskursiya yo'naliшlarini joriy qiluvchi videomateriallarni xorijda ishlab chiqarish va tarqatishdir.

Yaponiya bugungi kunda xalqaro turistlar uchun eng ilg'or manzilgohlardan hisoblanadi. Yildan-yilga mamlakatga tahsqi turistlar soni ko'paymoqda va 2010-yildan beri yiliga o'rtacha 30 millionga yaqin turistlar tashrifi kuzatilmoxda. 2017-yilda Yaponiya "Sayohat va Turizm Raqobatbardoshligi" (Travel & Tourism Competitiveness Report) tanlovi bo'yicha 141 mamlakat ichida 4-o'rin, Osiyo mamlakatlari bo'yicha esa 1-o'rinni egallagan.

Yaponiyaga turistlarning tashrifi 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 2,2% o'sish bo'lgan va tashqi turistlardan tushgan daromad 46.1 milliard AQSH dollarini tashkil etib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha dunyoda 7-o'rinni egallagan. 2019-yilda Yaponiyada jami turizm sohasining mamlakat Yalpi Ichki Mahsulotiga qo'shgan hissasi 359 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan va natijada Yaponianing turizm bozori bo'yicha AQSH va Xitoy mamlakatlaridan so'ng uchunchi eng yirik mamlakatga aylangan⁷.


So'nggi yillardagi sifat ko'rsatkichlarga murojaat qilsak, Yaponiyadagi turar joylarda mahalliy turistlardan ko'ra xorijlik turistlar ulushi ortib borayotganligiga guvoh bo'lish mumkin. Yaponiyada ichki va tashqi turizm ulushi o'zgarib borsada, har ikki turdag'i turistlarning tashrifi ko'payib borayotganligi sababli deyarli barqaror trendga ega. Umuman olganda, xorijlik turistlar ulushi ko'payib bormoqda, jumladan, 2015-yilda 7,5% tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 19,5 foizga yetgan (2-rasm).

⁷ JNTO va OECD 2019 ma'lumotlari



2-rasm. Yaponiyada 2015-2019-yillardagi turar joylarning ichki va tashqi tursitlar bo‘yicha taqsimoti dinamikasi (%)⁸

2-rasmdagi dinamik ko‘rsatkichlar Yaponiya turizmida tashqi turizmning ulushi ortib borayotganligiga dalolat qiladi. Ushbu jarayonga muvofiq yana bir holat turistlardan orqali tushumlar dinamikasida ham ko‘rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Yaponiyada 2017-2021-yillarda turitslarning daromad tushumlar bo‘yicha ulushlari dinamikasi (%)⁹


3-rasmdagi Yaponiyada turistlardan tushgan tushumlar dinamikasida tashqi turizmning ulushlari garchi kam bo‘lsada, biroq 2019-yilga qadar ular ortib bormoqda edi. 2020-yildan keyingi davr esa, ma’lumki, pandemik davr bo‘lganligi uchun bu trendda uzulish ro‘y bergan.

Iqtisodiy jihatdan juda ilg‘or bo‘lgan Yaponiyaga xorijliklarning yo‘nalish sabablari bo‘yicha tahlil qilish e’tiborga loyiqidir. Ya’ni ish va xizmat safariga nisbatan sof turizm sayohatlarining ko‘rsatkichlari

⁸ JNTO va OECD 2019 ma’lumotlari

⁹ <https://www.statista.com/statistics/731610/domestic-and-foreign-tourism-contribution-to-gdp-japan/>


qanday jarayonga ega degan savol paydo bo‘lishi tabiiydir. JNTO ma’lumotlariga ko‘ra, Yaponiyaga deyarli barcha mamlakat va mintaqalardan tashrif buyurganlarning aksarini turistik sayohatini ko‘zlab kelganlar tashkil etadi. Darhaqiqat, 4-rasmdagi ushbu ko‘rsatkichlarning dinamikasiga nazar tashlansa, turistik sayohatlarning soni biznes sayohatlarga nisbatan doimo ko‘proq bo‘lganligi va 2010-yillar davomida misli ko‘rilmagan tezlikda farqlanib borishi ayon bo‘ladi.



**4-rasm. Yaponiyaga tashrif buyurganlarning yo‘nalishlari
bo‘yicha dinamikasi¹⁰**

Navbatdagi masala – chet ellik turistlarning nechinchi bor Yaponiyaga tashrif buyurishi bo‘yicha tahlil qilish. JNTO ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yildagi turistlarning 35,8% Yaponiyaga ilk bor tashrif buyurgan, shuningdek, eng ko‘p, xususan, 20 martadan ko‘p tashrif buyurgan turistlar 6,8% tashkil etgan (5-rasm). 5-rasmdagi ko‘rsatkichlar, shuningdek, xorijliklarning biznes va xordiq sayohati bo‘yicha taqsimotni ko‘rsatadi. Ulardan ma’lum bo‘lmoqdaki, biznes bo‘yicha sayohat qilganlar odatda Yaponiyaga ko‘p marta tashrif buyuruvchilardan iborat. Xordiq chiqarish uchun tashrif buyurganlar esa ilk bor kelganlar orasida ko‘proqdir.

¹⁰ Data list | Japan Tourism Statistics (jnto.go.jp)



5-rasm. Yaponiyaga tashrif buyurgan chet elliklarning biznes va xordiq sayohati, hamda ularning nechinchi marta kelishi bo‘yicha taqsimoti (foizda)¹¹

Xorijiy tashriflarning 60% Yaponiyaga chegaradosh mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, jumladan, Xitoy, Janubiy Koreya, Tailand, Taivan va Gong Kong kabi mamlakatlar rezidentlari (4-jadval).

4-jadval

Yaponiyaga tashrif buyurgan Top-10 mamlakatlar turistlarining soni¹²

Turistlar mamlakati	2019 yil	2023 yil oktyabr oyi
Koreya	5584597	631100
Xitoy	9594394	256300
Tayvan	4890602	424800
Gong Kong	2290792	179300
Tayland	1318977	124600
Singapur	492 252	55100
Malayziya	501 592	45200
Indoneziya	412 779	40300
Filippin	613 114	69200
Vytnam	495 051	50400
Hindiston	175 896	16800
Buyuk Britaniya	424 279	37400
Fransiya	336 333	34400
Germaniya	236 544	30900
Italiya	162 769	16300
Ispaniya	130 243	15500
AQSH	1 723 861	211900
Kanada	375262	51700
Avstralija	621 771	62000

¹¹ Data list | Japan Tourism Statistics (jnto.go.jp)

¹² Japan-bound Statistics - Tourism Statistics - JTB Tourism Research & Consulting Co.

Yaponiyadagi turizm industriyasining so‘nggi yillardagi dinmikasiga nazar tashlasak, mehmondo‘stlik, oziq-ovqat va turar-joy xizmatlari, yo‘lovchi transporti, havo va temir yo‘llari, dengiz transporti hamda yo‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlari, sport va rekreatsion industriyasi kabi yo‘nalishlar yetakchilik qilishini kuzatishimiz mumkin (5-jadval).

5-jadval

Berilgan yillarda Yaponiyaning turizm industriyasida bandlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar dinamikasi (kishilar hisobida)¹³

Soha va yo‘nalishlar	2016	2017	2018	2019
Turizm industriyası	796 440	6 192 000	6 450 840	6 568 380
Hotel va boshqa turdagı muqobillar	48 963	586 380	638 330	658 050
Oziq-ovqat va turar-joy xizmatlari	590 847	3 366 620	3 586 800	3 604 080
Yo‘lovchi transporti	33 571	937 560	910 530	924 260
Havo yo‘llari transporti	922	45 040	56 670	56 170
Temir passenger transporti	4 277	262 030	241 810	261 490
Avto yo‘llari transporti	23 028	562 940	555 380	539 200
Dengiz yo‘llari transporti	5 344	67 550	56 670	67 400
Yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish	66 772	630 490	646 060	651 540
Sport va rekreatsion industriya	56 287	670 940	669 120	730 450
Boshqa industriyalar	4 544 343	60 640 000	61 555 160	62 046 620


5-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-2019-yillar orasida Yaponiyaning turizm industriyasida har bir yo‘nalish bo‘yicha bandlik miqdoriy jihatdan oshib bormoqda. Umuman olganda, 2017-yilda oldingi yilga nisbatan keskin o‘zgarish ro‘y bergen va navbatdagi yillarda barqaror o‘sish davom etgan. 2019-yildan keyingi davr esa mamlakat, mintaqा va dunyo uchun epidemiologik va favqulodda holat bo‘lib, turizm industriyalarida ham noqulay vaziyat keltirib chiqarishi tabiiy.

2020-yildagi Xalqaro Olimpiada va Paraolimpiada o‘yinlari Tokiyoda o‘tkazilishi munosabati bilan turistlarning soni keskin ortishi va bu o‘zgarish navbatdagi yillardagi turistlar oqimiga ham ta’sir etilishi kutilayotgan edi. Jumladan, mamlakatning turizm sohasini rivojlantirish boshqarmasi prognozlariga ko‘ra so‘nggi o‘n yillik trend asosida 2020-yilda turistlar soni 40 million kishiga yetishi, 2030-yilda esa 60 million tashriflar bo‘lishi kutilgan, biroq Covid-19 pandemiyasi

¹³ Japan | OECD Tourism Trends and Policies 2022 | OECD iLibrary (oe.cd-ilibrary.org)

va uning oqibatidagi Tokiyo Olimpics & Paraolimpics 2020 qoldirilganligi sabab ushbu yilda turistlar soni hatto odatdagidan ko‘ra ham ancha kamaydi. Juhon turistik tashkilotlari ma’lumotlriga ko‘ra 2020-yilda mamlakatga xorijlik turistlar soni 4,12 million kishi atrofida bo‘lgan. So‘nggi 2019-yildagi ko‘rsatkichlarga nisbatan bu 87% kamayishdir va 2020-yildagi kutilayotgan kutilayotgan 40 millionlik xorijiy turistlarning atigi 10,3% demakdir.

Yaponiya hukumati pandemiya bilan bog‘liq inqirozli vaziyatni va uning turizm sohasiga ta’sirini bartaraf qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, 2020-yildagi Tokiyo olimpiadasi orqali keladigan imkoniyatlar yo‘qotilgach, uning o‘rnini 2025-yilda Osaka shahrida o‘tkaziladigan Expo 2025 xalqaro anjuman orqali to‘ldirmoqchi.



6-rasm. Post-pandemiya sharoyitida TOP-10 turizm uchun afzal deb topilgan mamlakatlar. Mintaqalar bo‘yicha so‘rovnamalar natijasi.¹⁴

Ma’lumki, Covid-19 pandemiyasi 2020-yilda xalqaro turizmnii 48% kamayishiga olib keldi. Bunday sharoyitda turistlar eng xavfsiz va gigiyenik talablarga javob beradigan manzillargagini sayohat qilishlari tabiiy. Turli minataqadagi turistlardan pandemiyadan so‘ng qaysi mamlakatga sayohat qilishlari haqida so‘rovnama o‘tkazilganda, foiz ko‘rsatkichli natijalar bo‘yicha Yaponiya yetakchiga aylangan.

Rasmdan ko‘rsatkichlar shundan dalolat bermoqdaki, dunyo bo‘ylab jami turistlarning 45,6% pandemiyadan so‘ng Yaponiyaga tashrif buyurishni afzal ko‘rishgan. Osiyoliklar esa bu so‘rovnomada

¹⁴ Developed Bank of Japan data. JETRO 2021

56,3% Yaponiyaga borishni tanlagan. Ushbu so‘rovnoma dunyoda eng rivojlangan va turistik manzilgohlarga nisbatan boy mintaqalarning ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Ushbu taqsimotda ham Yaponiya yetakchilik qilmoqda, ya’ni AQSH, Yevropa va Avstraliyalik turistlarning 23,5% aynan Yaponiyani tanlashgan.

3. Yaponiyada turizm rivojlanishining me’yoriy-huquqiy asoslari

Yaponiyada turizm sohasining rivojlanishida ko‘plab tarixiy, tabiiy va iqtisodiy omillar ta’sir qilishi bilan birga, davlat tomonidan tartibga solinadigan reguliyativ faktorlar ham muhim rol o‘ynaganligi sir emas. Darhaqiqat, XIX asrdayoq “Medji restavratsiyasi” nomi bilan ma’lum bo‘lgan islohotlar Yaponiyaga xorijiy sayohatchilarning, shuningdek, ichki sayohatchilarning harakatini erkinlashtirishi orqali turizmnning rivojlanishiga tamal toshini qo‘ygan. Bu an’ana davom etib, sayyoqlikni tartibga soluvchi huquqiy normalar ishlab childi va hozirgi davrga qadar muntazam takomillashib bordi.

Zamonaviy Yaponiya turizm sohasini tartibga soladigan huquqiy normalar, bиринчи navbatda, qonunlarda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, turli davlat dasturlari, chora-tadbirlari va ularni ijro etuvchi tashkilotlarning nizomlarda ham o‘rin olgan.

Yaponianing “Turizm Asosiy Qonuni” mamlakatning zamonaviy tuzrimga oid huquqiy-meyoriy asoslari shakllanishiga poydevor hisoblanadi. Ushbu qonun 1963-yilda qabul qilingan bo‘lib, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Turizm departamenti, Transport vazirligi va Yaponiya Milliy turizm tashkiloti (JNTO) tomonidan muvofiqlashtirilgan holda ijro etiladi. Ushbu qonun yetti bobdan va 23 moddadan iborat bo‘lib, asosiy tarkibi quyidagicha:

I Bob. Umumiyl qoidalar (1-5-moddalar);

II bob. Xalqaro turizmni rag‘batlantirish (6-8-moddalar);

III bob. Turistlarni muhofaza qilish, turizmga oid vositalarni takomillashtirish va boshqalar (9-15-moddalar);

IV bob. Turizmga aloqador ma’muriy organ va tashkilotlar (16-17-moddalar);

V bob. Turizm siyosati konsulligi (18-23-moddalar).

Ushbu qonundan tashqari uni ham o‘z ichiga olgan 1963-yilda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Turizm departamenti, Transport vazirligi va Yaponiya milliy turizm tashkiloti (JNTO) hamokorligida

“Turizm industriyasiga oid Qonunlar va tartibotlar” nomli nashriyot chiqqan bo‘lib, unda birinchi o‘rinda Turizmning asosiy Qonuni, shuningdek, Turizm siyosati konsulligi, Transport vazirligi vakolatlari hamda ularga oid qoununlar, Xalqaro turizm industriyasiga ko‘maklashish bo‘yicha qonun, JNTO, Sayohat agentligi, Gid-tarjimonlik biznesi, Xalqaro turistik otellarda qulaylikni takomillashtirish, Turistik vositalardan iborat mulkga ipotekalar, Xalqaro turizmga industriyasiga oid statistik tadqiqotlarni tartibga solishga oid qoununlar, immigratsiyani nazorat qilish vakolatlari, Milliy bog‘lar haqida qonun, Qadimiy poytaxtlarda tarixiy muhitni asrash uchun maxsus o‘lchovlar haqidagi qonun joy olgan.

2003-yil 31-yanvarda Vakillar palatasining yalpi majlisidagi nutqida Bosh vazir Junichiro Koidzumi hukumatning turizmni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish to‘g‘risidagi qarorini e’lon qildi va bu vazifa Koidzumi ma’muriyati uchun eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Yaponiyada mehmonxona sektoriga jiddiy e’tibor qaratildi. Hukumat tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Yaponiyaga tashrif” dasturi doirasida mamlakatning mehmondo’stlik sektorida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Yaponiya yuqori texnologiyali mamlakat, va shunga muvofiq uning turistik infratuzilmasi ham yuqori darajada. Yaponiyadagi mehmonxona sektori turli turdagि turar joylar bilan ifodalanadi: hoteru, ryokan, minsyuku, onsen mehmonxonalar, biznes mehmonxonalar, kapsula mehmonxonalar, hashamatli mehmonxonalar, yoshlar pansionatlari. Yapon mehmonxonalarining afzalligi milliy o‘ziga xoslik va yapon mehmondo’stligi muhitidir.


1963-yildagi “Turizm Asosiy Qonuni” 2006-yil dekabr oyida yangicha “Turizm Milliy Rag‘batlantirish Asosiy Qonuni” nomi bilan A’zolar Palatasi loyhasi sifatida tanishtildi va 2007-yil yanvar oyida kuchga kirdi. Ushbu qonun ilk bor turizmni 21-asrda Yaponiya siyosatining ustunlaridan biri sifatida aniq belgilab qo‘ydi. Qonunda milliy turizmni rivojlantirishga keng qamrovli, ammo tashkil etilgan tarzda ko‘maklashish maqsadida hukumat “Turizm millatini rag‘batlantirish asosiy rejasini” joriy etishi belgilab berilgan.

Qonunda, shuningdek, hukumat uchun quyidagilarni ustuvor siyosat sifatida belgilab berilgan: xalqaro miqyosda raqobatbardosh va yuqori darajada jozibador turizm yo‘nalishlarini shakllantirish, turizm sohasining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va turizmni

rivojlantirishga hissa qo'shadigan shaxslarni rag'batlanrish, xalqaro turizmni rag'batlantirish va sayohatga qulay muhitni yaratish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Yaponiya 1992-yil 30-iyunda UNESCO Jahon Madaniy Meros Konvensiyasini qabul qildi. Yaponiyada jahon madaniy merosi (World Heritage) doirasida yigirmadan ziyod turistik obyekt mavjud bo'lib, ushbu turistik manzilgohlar dunyo bo'ylab mashhurdir va har yili millionlab xalqaro sayyohalarni o'ziga jalb qilib keladi. Hukumat xalqaro turistik tashkilotlarga ularning asrab-avaylanishini kafolatlagan va shuningdek, bu yo'lda o'zi ham tashabbus ko'rsatib keladi. Mamlakatdagi UNICEF, Jahon madaniy merosi kabi xalqaro tashkilotlar ro'yxatiga kirgan va boshqa tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylash va sifatli restavratsiya qilish uchun uchun hukumat tomonidan zaruriy mexanizmlar va normalar ishlab chiqilgan, chora-tadbirlar amalga oshirilib keladi. Bu maqsadda davlat tomonidan mablag' va subsidiyalar ajratiladi.

Yaponiyada turizmga oid huquqiy-meyoriy asoslar uchun vakolatli bo'lgan tuzilma va tashkilotlar, dastlab ta'kidlanganidek, vazirlik, tashkilotlar, mahalliy hukumat, byuro va agentliklarni o'z ichiga oladi (7-rasm).



7-rasm. Yaponiyada turizmni rivojlantirishga vakolatli bo'lgan tuzilma va tashkilotlar¹⁵

Bugungi kunda Yaponiyada turizm sohasini rivojlantirishda eng faol tashkilotlardan biri Yaponiya Milliy Turizm Tashkiloti (Japan National Tourism Organization – JNTO) hisoblanadi. Uning bosh shtabi Tokio, Shinjuku va Yotsua shaharlarida joylashgan. Ushbu tashkilot turizmga taalluqli barcha sohalarni, jumladan, transport, turar

¹⁵ <https://www.mlit.go.jp/kankochō/about/soshiki.html>

joy, oziq-ovqat va oshxonalar, manzilgohlarni tashkillishtirishni tartibga solish va muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Shuningdek, turizmga oid ma'lumotlarni va statistikani o'rganib muntazam taqdim etish bilan shug'ullanib keladi.

JNTO dunyo bo'y lab 24 bo'limlarga ega bo'lib, ular Nyu York, Los Angeles, Toronto (Kanada), Meksiko, Parij, Frankfurt, Rim, Moskva, Madrid, London, Dubay, Sidney, Pekin, Seul, Gonk-Kong, Kuala Lumpur, Singapur, Bangkok va Hanol (Vyetnam) shaharlarida joylashib, har biri mintaqadagi boshqa shahar va mamlakatlarga markaz vazifasini bajaradi.

Infratuzilmani saqlashning asosiy maqsadi infratuzilmaning shikastlanishini, eskirishini va ishlamay qolishini kechiktirish yoki minimallashtirish orqali xizmat muddatini uzaytirishdir. Bundan tashqari, infratuzilma har qanday aktivning funksiyasi, qiymati va ko'rinishini himoya qilish uchun ham saqlanadi.

Turizm sektori uchun Middleton va Hawkins turizm infratuzilmasi tabiiy resurslarni tashish, saqlash yoki saqlash usulini o'z ichiga oladi; tabiiy muhitda qurilish; va yuridik xizmatlar, dam olish maskanlari va gaz, SUV va kanalizatsiya kabi asosiy infratuzilmani taqdim etish. Turizm infratuzilmasi ikki xil kontekstda, ya'ni davlat va xususiy turizm infratuzilmasida muhokama qilinishi mumkin. Davlat infratuzilmasi "Iqtisodiy qo'shimcha kapital" yoki "Ijtimoiy qo'shimcha kapital" sifatida qaraladi⁴⁴. Demak, infratuzilma mamlakatning ijtimoiy

⁴³ Chowdhury, I., & Chhikara, D. (2020). Recovery strategy for tourism industry post-pandemic. Mukt Shabd Journal, 9(8).

⁴⁴ E.M. Bergman & D. Sun. Infrastructure and Manufacturing Productivity: Regional Accessibility and Development Level Effects. In Batten, D.F. & C. Kalsson (eds.).

va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sir etuvchi omillar yoki mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Janubi-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan solishtiradigan bo'lsak, Malayziya birinchi darajali turizm infratuzilmasiga ega bo'lgan yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. Turizm sektorining barqaror rivojlanishini tashkil etish uchun Malayziyaning turizm infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlarini davom ettirish kerak. Bundan tashqari, Malayziyaning sayyoqlik yo'nalishi sifatida mashhurligiga tegishli turizm infratuzilmasini ta'minlash qobiliyati ta'sir qiladi. Biroq, Juhon Iqtisodiy Forumi hisobotiga ko'ra, Malayziyaning turizm infratuzilmasidagi yutug'i hali ham Singapur va Tailandga nisbatan orqada. Sayyoqlik infratuzilmasini rivojlantirish va ta'minlash mashhur sayyoqlik yo'nalishiga aylanish uchun zaruriy shart sifatida qaraladi. Jozibador sayyoqlik maskani nafaqat tabiiy resurslarga, balki mavjud infratuzilma va imkoniyatlarga ham tayanadi.

Infratuzilma shahar hududining turizm sanoatida muhim rol o'ynaydi, chunki u turistlarning qoniqish darajasiga ta'sir qiladi; va infratuzilmaning adekvat va yaxshi holati sayyoohlardan keladigan salbiy javoblar sonini kamaytiradi. Infratuzilmani rivojlantirish natijasida yaratilgan biznes imkoniyatlari turizm sanoati aksiyadorlari uchun ham foydalidir. Shuning uchun turizm industriyasining rivojlanishi uchun har bir sayyoqlik maskani yo'llar, aeroportlar, portlar va terminallar kabi turli xil infratuzilma bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Davlat infratuzilmasini rivojlantirish davlat (markaziy, shtat yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari) cheklangan hajm va miqdorda amalga oshiriladi; ba'zan infratuzilmaning rivojlanishi hozirgi talabga javob bermaydi. Bu infratuzilmani rivojlantirish joriy bozorni tushunmasdan sodir bo'lganda yoki maxsus asosda amalga oshirilganda sodir bo'ladi. Bozorni yetarli darajada tadqiq qilmasdan turib, infratuzilmani yetarli darajada rivojlantirmslik ehtimoli mavjud.

Infratuzilmaning bir qismi kelajakda ortib borayotgan talabni hisobga olmasdan qurilgan. Binobarin, rivojlangan infratuzilma hozirgi sayyoohlarni qisqa muddatgagina sig'dira oladi. Turizm infratuzilmasining yetarli darajada emasligi masalasi ham hukumatning moliyaviy cheklvlari bilan bog'liq, chunki infratuzilmani rivojlantirish xarajat-

lari yuqori. Binobarin, hukumat bir vaqtning o‘zida infratuzilmani rivojlantirishning ko‘plab loyihalarini amalga oshira olmaydi. Meyer⁴⁵ fikricha, turizm infratuzilmasini rivojlantirishda xususiy agentliklar bilan hamkorlikning yo‘qligi ham turizm infratuzilmasi yetarli emasligiga sabab bo‘layotgan omillardan biridir.

Xususiy agentliklar ham qisqa vaqt ichida daromad keltira oladigan foydali turizm infratuzilmasini rivojlantirishga e’tibor qaratishga moyil. Shu sababli davlat turizm infratuzilmasini rivojlantirishning moliyaviy yukini o‘z zimmasiga olishga majbur. Hukumatning turli vazifalari turizm infratuzilmasini rivojlantirishning to‘xtatilishiga olib keldi. Xususiy agentliklarning turizm infratuzilmasini rivojlantirishda ishtirok etishi muhimligini ifodalash uchun hukumat 2011-yilda Turizm infratuzilmasi jamg‘armasini tashkil etdi. Ushbu jamg‘armaning maqsadi turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xususiy agentliklarni jalg qilishni rag‘batlantirishdan iborat. Bu orqali xususiy sektorga turizm infratuzilmasini rivojlantirishni moliyalash-tirish uchun sarmoya olish imkonini beruvchi maxsus fond tashkil etildi. Bundan tashqari, xususiy agentliklar tomonidan berilgan kreditlar yukini kamaytirish maqsadida undiriladigan foiz stavkasi 3,75 foizga tushirildi. Bundan tashqari, infratuzilmaning yetarli darajada emasligi hukumat tomonidan tayinlangan pudratchilarning ma’lum vaqt ichida infratuzilmani qura olmasligi bilan ham bog‘liq. Natijada, ko‘plab qurilish loyihalari bekor qilinadi. Turizm infratuzilmasi sifati bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Asosiy muammo turizm infratuzilmasining sifatsizligidir. Bu moliyaviy cheklovlar, davlat organlari tomonidan samarasiz monitoring va tayinlangan pudratchilarning mas’uliyatsizligi kabi bir qancha omillar tufayli yuzaga keladi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning navbatdagi muammosi davlat organlarining infratuzilmani boshqarish qobiliyatidir. Malayziya hukumati uch darajaga bo‘lingan, ya’ni federal, shtat va mahalliy hukumatlar. Har bir daraja ma’lum bir mintaqqa, shtat yoki viloyatda infratuzilmani rivojlantirishni boshqaradigan o‘z bo‘limiga ega. Har bir agentlik har xil hajm, bilim va tajribaga ega. Yirik agentliklar, ayniqsa federal va yuqori zichlikdagi shtat hukumati qoshidagi agentliklar uchun ular infratuzilmani rivojlantirish loyihalarini boshqarishda

⁴⁵ D. Meyer http://www.researchgate.net/profile/Dorothea_Meyer/publication/242371864_Key_issues_for_the_development_of_tourism_routes_and_gateways_and_their_potential_for_ProPoor_Tourism/links/0046352d83f1db7cd1000000?origin=publication_detail (2004)

ko‘proq qobiliyatga ega. Aksincha, davlat yoki mahalliy hukumat qoshidagi idoralar moliyaviy cheklovlar tufayli infratuzilmani rivojlantirish loyihamarini boshqarish imkoniyati cheklangan. Davlat infratuzilmasini saqlash kontekstida tadqiqotchilar, akademiklar va davlat xizmatchilari tomonidan turli masalalar muhokama qilinmoqda. Muhokama qilinayotgan eng muhim masala - saqlanib qolgan davlat infratuzilmasini ta‘mirlash ishlari olib borilmayotganligi. Ommaviy turizmni ta‘minlashni amalga oshirish bo‘yicha tadqiqotlar e’tiborga olinmayapti. Ta‘mirlash tadbirlarini amalga oshirish uzoq vaqt davomida qiyinchilik tug‘dirdi. Bu ko‘pincha turizm infratuzilmasini mustahkamlashning asosiy omili sifatida qaraladi. Infratuzilmaning funksionalligining yomonlashishi yoki shikastlanishi tegishli texnik xizmat ko‘rsatilmaganligi bilan bog‘liq, chunki bu infratuzilmaning muddatidan oldin yomonlashishiga olib keladi. Umuman olganda, texnik xizmat ko‘rsatish dasturining noto‘g‘riligi infratuzilmada texnik xizmat ko‘rsatish yoki dasturning etishmasligi yoki rejalshtirish bosqichida qaror qilingan texnik xizmat ko‘rsatish tadbirlarining bajarilmasligi sifatida ta‘riflanishi mumkin. Infratuzilmani rivojlantirish eskirish va shikastlanishning oldini olish uchun ta‘mirlash ishlari bilan birga bo‘lishi kerak.

Ta‘mirlash ishlari doimiy e’tibor bermaslik infratuzilmaning jiddiy shikastlanishiga olib keladi. Biroq, har xil turdag'i infratuzilmani saqlab qolish uchun turli xil texnik dasturlarga ehtiyoj borligi sababli turli muammolar va qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ta‘mirlash ishlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi mavjud resurslarga bog‘liq. Moliyaviy, xodimlar, uskunalar va materiallar kabi texnik xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash uchun hukumat tomonidan taqdim etilishi kerak bo‘lgan ko‘plab resurslar mavjud. Har bir infratuzilma qarish, atrof-muhit, inson xatti-harakati va boshqa ko‘plab mumkin bo‘lgan omillar kabi bir qator omillar tufayli to‘g‘ri saqlanishi kerak. Shunday qilib, mavjud infratuzilmalar sonining ko‘payishi texnik xizmat ko‘rsatish faoliyatiga talabning oshishiga olib keladi. Binobarin, hukumat texnik xizmat ko‘rsatish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘proq resurslar, ayniqsa moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashi kerak va bu hukumatning moliyaviy yukini oshiradi. Biroq, hukumat iqtisodiy inqiroz tufayli ularning operatsion xarajatlarini kamaytirishga harakat qilmoqda. Buning evaziga turizm infratuzilmasini saqlash xarajatlari juda yuqori bo‘lganligi sababli moliyaviy cheklovlar tufayli

turizm infratuzilmasini saqlashni amalga oshirish cheklangan bo‘ladi. Misol tariqasida, Segamat-Johorda jamoat turizmi infratuzilmasini saqlash uchun jami 8,94 million RM ajratildi, yo‘llar va yo‘laklarni ta’mirlashga 8,83 million RM va Jeram Tinggi sharsharasini dam olish markazi sifatida saqlab qolish uchun 110 000 RM sarflandi. Bu raqamlardan xulosa qilish mumkinki, hukumat Malayziyada turli turizm infratuzilmasini saqlab qolish uchun katta miqdorda mablag‘ ajratishi kerak bo‘ladi. Ommaviy turizm infratuzilmasini saqlashda resurs cheklovleri tashkilotning o‘z resurslarini boshqarish qobiliyati bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Alejandrino-Yap fikriga ko‘ra⁴⁶, hukumatlar yetarli resurslarga ega bo‘lishiga qaramay, ta’mirlash ishlari uchun zarur mablag‘ ajrata olmayapti. Resurslarni boshqara olmaslik ko‘pincha xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning turizm infratuzilmasini saqlab turishga qodir emasligi bilan bog‘liq. Tegishli ko‘nikmalarsiz resurslarni boshqarish jarayonini to‘g‘ri boshqarish mumkin emas, bu esa resurslarning yo‘qolishiga va isrof qilinishiga olib keladi. Bundan tashqari, infratuzilmani saqlashda resurs cheklovleri, shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq texnologiyalarning keraksiz rivojlanishi bilan bog‘liq. Ishlatilgan texnologiyalar bo‘yicha bilimlarning yetishmasligi samarasiz texnik faoliyatga olib keladi.

Mehmondo‘stlik sanoati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va yangi ish o‘rinlari yaratishda global iqtisodiy o‘sishning muhim katalizatori sifatidagi muhim roli bilan mashhur. 2021-yilda Langkavi ichki sayohat pufakining qisman ochilishidan boshlab ichki turizm diqqat markazida bo‘ldi. Bu sayyoqlik industriyasini tiklash yo‘lidagi rag‘-batlantiruvchi birinchi qadam bo‘ldi, 2021-yilda jami 38 748 nafar mahalliy sayyoq kelishi va 15,97 million RM turistik tushumlar qayd etildi.

Turizm sanoatini qayta jonlantirish uchun Hukumat Malayziyaning O‘n ikkinchi rejasida (12MP) bir nechta strategiyalarni belgilab berdi. Ular orasida pandemiyadan keyingi dunyoda xavfsiz sayohat qilish uchun turistlarning ishonchini tiklash va Malayziya tajribasini yaqqol aks ettiruvchi ekoturizm va jamiyatga asoslangan madaniy immersion tadbirlari kabi sifatli mahsulot va xizmatlarni taqdim etish

⁴⁶ Alejandrino-Yap, M. Dornan & K. McGovern. Infrastructure Maintenance in the Pacific: Challenging the Build-Neglect-Rebuild Paradigm. Sydney: Pacific Infrastructure Advisory Centre (PIAC) (2013).

kiradi. Xavfsizlik va gigiyena barcha brending va reklama harakatlarining diqqat markazida bo‘ladi.

Hukumat shuningdek, 2020 – 2030 yillarga mo‘ljallangan Milliy turizm siyosati (MTS) deb nomlanuvchi turizm sanoatini o‘n yillik o‘zgartirish rejasini ishlab chiqdi. MTS Malayziyani kelish va tushumlar bo‘yicha eng yaxshi o‘nta sayyoohlik yo‘nalishi qatoriga kiritish uchun tuzilgan. Kelajakda raqobatbardoshlikni saqlab qolishning asosiy strategiyalaridan biri bu Smart turizmni qabul qilishdir.

Xalqaro va mahalliy sayyoohlar qumli plyajlar, marjon riflari va tropik o‘rmonlarning tabiiy biologik xilma-xilligidan zavqlanib, mamlakatning o‘ziga xos madaniyati, taomlari va etnik elatlarning erish qozonidan bahramand bo‘lishadi. Mamlakatning o‘rnatilgan infratuzilma tarmog‘i oilaviy sayohatchilardan tortib, sarguzashtlarni qidirayotgan sayohatchilargacha bo‘lgan keng doiradagi sayohatchilarга xizmat qiladi.

Malayziya qadimiy urf-odatlar, an'analar va madaniyatning eklektik uyg‘unligini zamonaviylik bilan aks ettirishi bilan mashhur bo‘lgan ajoyib mamlakatdir. Mamlakat o‘zining ajoyib sayyoohlariga Malayziyaning barcha diqqatga sazovor joylari, masalan, go‘zal orollar, plyajlar, g‘aroyib shaharlar, meros obyektlari va sarguzasht joylarini taklif qiladigan ko‘p narsalarni taklif qiladi. Agar Malayziya safari kartalarda bo‘lsa, bu yerda Malayziyaga tashrif buyurish uchun eng yaxshi joylarning qisqacha ro‘yxati keltirilgan va buni yodda tuting, u o‘tkazib yubormaslik haqida ogohlantirish bilan birga keladi. Tabiat, arxitektura, dam olish yoki sarguzashtni qidiryapsizmi, bu joylar sizni Malayziyada ajoyib dam olishni ta’minlaydi. Shunday qilib, mamlakatga keyingi safaringizda ushbu mamlakatning barcha sayyoohlik joylariga tashrif buyurunganingizga ishonch hosil qiling, agar siz ushbu mamlakat taklif qiladigan narsalarning eng yaxshisini his qilishni istasangiz.

Malayziyaning turistik diqqatga sazovor joylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Langkavi oroli - Azure suvlari mamlakati
Perhent oroli - Rangli marjonlarning guvohi
Penang - Eng yaxshisi
Kinabatangan - ekzotik yovvoyi tabiatning uyi
Kinabalu tog‘i - sayyoohlar jannati
Pangkor oroli - Atrofda xotirjamlik

Sipadan oroli - eng yaxshi sho‘ng‘in joyi
Mantanani - ekzotik dengiz hayoti
Redang oroli - dengiz parkining uyi
Manukan oroli - qiziqarli suv sporti
Pulau Tioman - Kamroq olingen yo‘l.

Chiroyli arxipelag, Langkavi oroli sayyoohlarni hayratga soladigan qumli plyajlari va moviy suvlari bilan mashhur bo‘lgan joy. Langkavi Geoparki YuNESKO merosi obyekti bo‘lib, ko‘plab tashrif buyuruvchilarni o‘ziga jalg qiladi va, shubhasiz, Malayziyadagi tashrif buyurish kerak bo‘lgan joylar orasida birinchi o‘rinda turadi. Bu hududdagi geologik merosning mukammal ifodasidir. Bu oila bilan Malayziyaga tashrif buyurish uchun eng yaxshi joylardan biri.

Ajoyib, marjon sochli orollar guruhi - Perhentiya oroli shimoli-sharqiy Malayziyadan deyarli 19 km uzoqlikda joylashgan. Bu dengiz parkining bir qismi bo‘lib, unda baliq ovlash kabi faoliyatlar qat’iyan man etiladi. Bu mamlakatning eng noyob joylaridan biri. Shuningdek, u Malayziyada do‘sstar bilan tashrif buyurish uchun eng yaxshi joylar qatoriga kiradi.

Malayziya yarim orolining shimoli-g‘arbiy qirg‘og‘ida joylashgan Penang Malayziyaning eng yaxshi orollaridan biri bo‘lib, siz sayohatingizda o‘tkazib yubormasligingiz kerak. Ekzotik joy sifatida mashhur bo‘lgan bu joy o‘z tashrif buyuruvchilarga kashf qilish uchun juda ko‘p narsalarni taklif qiladi. Ushbu shaharning Wonderfood muzeyi, Fort Kornuollis, Yotgan Budda, Birma ibodatxonasi va Waterfront qishlog‘i Malayziyaning siz tashrif buyuradigan eng yaxshi joylaridan biri hisoblanadi⁴⁷.

Sabahning sharqida joylashgan Kinabatangan tropik o‘rmon qoldiqlari bilan mashhur. Uning yovvoyi tabiat qo‘riqxonasi ko‘plab yovvoyi tabiatni sevuvchilarni jalg qiladi, bu sayyoohlilik diqqatga sazovor joyi Malayziyadir. Malayziyaga tashrif buyurish uchun eng romantik joylar orasida bu ro‘yxatda birinchi o‘rinda turadi.

Borneoning eng baland tog‘i Kinabalu tog‘i diqqatga sazovordir. Sayyoohlар mintaqaning go‘zal atrofini ko‘rishga imkon beruvchi ta’sirchan yo‘llardan bahramand bo‘lishni yaxshi ko‘radilar. Sarguzashtli suyaklari bo‘lgan odamlar orasida juda mashhur bo‘lib, bu

⁴⁷ Malaysia’s tourism recovery flops as Thailand, Indonesia cash in. <https://www.aljazeera.com/economy/2023/1/16/malaysia-tourism-recovery-lags-thailand-indonesia-vietnam>

Malayziyaning eng yaxshi tashrif buyuradigan joylaridan biri hisoblanadi. Malayziyaga tashrif buyurish uchun yaxshi joylar orasida bu ro'yxatda birinchi o'rinda turadi.

Ammo Malayziyaning turizm sanoati pandemiyadan keyingi tiklanishida bir qancha qiyinchiliklarga duch keldi. Chegaralarning qayta ochilishi sayyoohlar kelishining ko'payishiga olib kelgan bo'lsada, pandemiyagacha bo'lган darajaga to'liq tiklanishi faqat 2024-yilda kutilmoqda. Sanoat 2020-yilda 2019-yilga nisbatan turizmdan tushgan daromadning sezilarli darajada pasayishi kuzatildi va tiklanish sekin kechdi. Buni bir necha omillar bilan izohlash mumkin:

Asosiy muammolardan biri chet ellik sayyoohlarning, xususan, Xitoy kabi uzoq vaqt davomida chegaralarini yopiq yoki cheklangan mamlakatlardan bosqichma-bosqich qaytarish bo'ldi. Malayziyaga kelganlarning katta qismini tashkil etuvchi xitoylik sayyoohlar o'z mamlakatlariagi sayohat chekllovleri tufayli deyarli yo'q edi. Bundan tashqari, global tovarlar narxining oshishi natijasida transport va oziq-ovqat narxining oshishi ham potensial sayohatchilar uchun to'siq bo'ldi. Bunga Malayziyaning konservativ, asosan islomiy jamiyat sifatidagi obro'si ham qo'shiladi, bu esa o'zining liberal qo'shnilariga qaraganda sayyoohlar uchun kamroq jozibador bo'lishi mumkin.

Turizm sektoridagi kurashlar, ayniqsa, mehmondo'stlik sanoatiga ta'sir ko'rsatuvchi xorijiy ishchi kuchining yetishmasligi tufayli yanada kuchaymoqda. Hukumat odamlarni turizm sohasida ishlashga rag'batlantirish va uni yanada jozibador qilish uchun imtiyozlar berishi kerak.

Sharqiy Malayziyada turizm industriyası tropik sarguzashtlarni izlayotgan g'arblik sayyoohlarning yuqori xarajat bozoridan foyda olib, tezroq tiklanish alomatlarini ko'rsatmoqda. Biroq, qo'riqlanadigan hududlardagi yuqori narxlari va Kinabalu tog'iga chiqish kabi tadbirlarning narxi cheklangan byudjetli sayyoohlarni to'xtatishi mumkin.

Malayziya hukumati pandemianing iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish uchun turli chora-tadbirlarni amalga oshirdi, shu jumladan ish haqini subsidiyalash dasturlari va ichki turizmni yo'lga qo'yish kampaniyalari. Biroq, sanoatning pandemiyadan oldingi darajaga tiklanishi ko'proq vaqt talab qilishi kutilmoqda va 2024-yilda to'liq tiklanish kutilmoqda.

Malayziyaning turizm sanoati oldida turgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

Hukumat jozibador paketlarni taklif qilish va malayziyaliklarni mamlakat ichida sayohat qilishga undash uchun kampaniyalarni boshlash orqali ichki turizmni rivojlantirishni davom ettirishi kerak. Mahalliy sayyohlarni jalb qilish uchun innovatsion va ijodiy turizm mahsulotlari va tajribalarini ham ishlab chiqish kerak;

Malayziyaning madaniy va tabiiy merosidan xalqaro sayyohlarni jalb qilish uchun yanada samarali foydalanish mumkin. Biroq, turizm tajribasini oshirish uchun sanoat amaliyotchilarining davlat tomonidan samarali muvofiqlashtirilishi va do'stona siyosat integratsiyasi muhim ahamiyatga ega;

Turistlarning ehtiyojlari va xohishlariga mos keladigan innovatsion turizm mahsulotlarini ishlab chiqish sanoatni jonlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu mahsulotlar xavfsizlik va gigiena muammolarini birinchi o'ringa qo'yishi kerak;

Onlayn bron qilish tizimlari va raqamli marketing strategiyalari kabi infratuzilma va texnologiyalarni takomillashtirish sayyohlik tajribasini oshirishi va ko'proq sayyohlarni jalb qilishi mumkin.

V BOB. HINDISTONDA TURIZMNING O‘ZIGA XOSLIGI

1. Hindistonning turistik salohiyati

Hindiston Janubiy Osiyoda joylayshgan va ushbu minataqaning eng ilg‘or mamlakatidir. Aholi soni bo‘yicha esa so‘nggi ikki yil ichida birinchi o‘rinda turadi. Darhaqiqat, dunyoda aholisi milliarddan oshgan ikki mamlakatdan biri aynan Hindiston hisoblanadi va ayni vaqtida mamlakatda 1,4 milliardga yaqin aholi isitiqomat qiladi. Dunyoda India nomi bilan mashxur bo‘lgan Hindiston Respublikasining rasmiy nomi Bharat Ganarajya deb yuritiladi.

Hindiston har yili millionlab sayyoohlarni jalg qiladigan ulkan sayyoqlik salohiyatiga ega. Hindistonning turizm salohiyati haqida so‘z ketganda, ko‘p ming yillik tarixga ega, an’analar va urf-odatlarga boy va ularni xanuz saqlab qolgan, mamlakat bo‘ylab ko‘plab tarixiy, madaniy obidalar, rang-barang tabiyat va san’at kabi milliy-madaniy boylik namoyon bo‘ladi. Hindsitonning rekreatsion resurslari orasida tarixiy obidalar, ziyorat manzilgohlari, tog‘, dengiz va boshqa tabiyat makonlari, marosim va festivallar alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, Hindsiton tarixi ming yilliklarda o‘lchanadi. Jumladan, Hatnordagi topilmalaridan boshlab Hind daryosi vodiysida neolit atxeologik madaniyatlar, Harappa, Mohendjo-Daro, Veda, Mahadjanapadlar, Magadha, Maurya, Guptalar, Dehli sultanati, Vidjyanagar, Boburiylar, kolonial davr, zamonaviy davrlarga oid ko‘plab madaniy meroslarni misol keltirish mumkin. Har bir davr o‘ziga xos madaniyati, me’morchiligi va san’ati orqali mamlakat va xalqga ulakan madaniy meros qoldirgan va ushbu meros nafaqat mahalliy, balki xalqaro turistlar uchun ziyorat makonlaridir. Shunigdek, Hindiston ko‘plab dinlar va muqaddas joylarning vatani hisoblanadi. Shunga binoan Gang daryosi bo‘yida joylashgan Varanasi, “Yoga dunyosi” nomi bilan tanilgan Rishikesh, Ayodxya, Puri, Amritsar va Maduray kabi boshqa joylar ma’naviy sayohatlar uchun katta ahamiyatga ega.

Hindistonning boy tarixi uning yaqin o‘tmishi va bugungi kundagi madaniyatida ham o‘z aksini topgan sanoqli o‘lkalardan biridir. Bu ayniqsa ko‘plab bayram va festivallarda namoyon bo‘ladi va ular orasida Divali, ranglar festivali deb ham ataladigan Holi bayrami,

Navratri va Durga Puja, Hayit bayramlari, Ganesh Chaturti, Pongal, Yangi yil bayrami va boshqalar Hindistonda nishonlanadigan ko‘plab festivallarning bir nechta namunalari xolos. Har bir shtat va mintaqaning o‘ziga xos festivallari bo‘lib, Hindistonni boy madaniy xilma-xillik mamlakati sifatida dunyoga tanitgan. Tarix davomida zirovarlar bilan dong‘i ketgan Hindiston bugungi kunda o‘z oshxonasi va lazzatli taomlari bilan mashhur. Sayyoohlar turli mahalliy o‘ziga xos va betakror taomlarni tatib ko‘rishlari va oshpazlik sayohatining noyob tajribasidan bahramand bo‘lishlari mumkin.

Bugungi kunda Hindiston Ayurveda va yoga kabi qadimiy davolash va sog‘lomlashtirish usullari bilan tanilgan. Ko‘plab sayyoohlar Hindistonga zamonaviy tibbiyat xizmatlaridan foydalanish bilan birga yoga mashg‘ulotlarini o‘tkazish va yaniqsa Keralaga turli xil Ayurveda muolajalari bilan davolanish uchun kelishadi.

Qadimdamdan Rim imperiyasi va boshqa Yevropa mamlakatlari, Xitoy, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan ham karvon yo‘llari, ham dengiz orqali savdo-sotiqlarni amalga oshirib kelgan Hindiston bugungi kunda ham ko‘plab bozorlar, do‘konlar va savdo markazlarini o‘zida jamlagan xarid makondir. Sotib olish mumkin bo‘lgan taniqli mahsulotlar orasida to‘qimachilik, zargarlik buyumlari, yog‘och o‘ymakorligi va boshqa an‘anaviy xunarmandchilik buyumlaridan tashqari yarim-o‘tkazgichlar, elektornika mahsulotlari, yengil avtomobil va mototsikllar kabi zamonaviy mahsulotlar ham mavjud.

Hindiston 1977-yilda jahon madaniy va tabiiy merosiga oid obyektlarni muhofaza qilish bo‘yicha konvestsiyani ratifikatsiya qilgan. Mamlakatdagi bunday obyektlar 1983-yildan boshlab ro‘yxatga kiritila boshlagan. Hindistonda UNESCO Jahon Madaniy Merosi ro‘yxatiga kiritilgan 42 obyekt mavjud bo‘lib, ulardan 34 tasi madaniy, 7 tasi tabiiy va bittasi har ikkisiga oid kriteriyalar asosida ro‘yxatga kiritilgan. Shuningdek, 2023 yil holatiga ko‘ra yana 50 obyekt jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishi uchun nomzod hisoblanadi.

Ayni vaqtida Hindistondagi Jahon madaniy merosi ro‘yxatida ushbu manzilgoh va obyektlar o‘rin olgan: Ajanta va Ellora g‘orlari, Agra qasri, Toj Mahal, Konarak, Mahabalipuramdagи haykallar majmuasi, Kaziranga Milliy bog‘i, Manas yovvoyi hayvonlar qo‘riqxonasi, Keoladeo Milliy bog‘i, Goa cherkovlari, Khajuraho haykallar majmuasi, Hampi haykallar majmuasi, Fatehpur Sikri, Pattadakal haykallar majmuasi, Elefanta g‘orlari, Buyuk Hayot Chola

ibodatxonalar, Sundarbans Milliy bog‘i, Nanda Devi va Gullar Vodiysi Milliy bog‘i, Sanchidagi Budda haykallari, Dehlidagi Humoyun maqbarasi, Qutb Minor va uning monumentlari, Hindiston Temir yo‘llari tog‘i, Bodh Gayadagi Mahabodhi ibodatxonalar majmuasi, Bhimbetka Tosh o‘ymalari, Chhratrappi Shivaji Terminus, Champaner-Pavagadh Archaeologik Parki, Qizil qal'a majmuasi, Jaypurdagi observatoriya, G‘arbiy Ghatlar, Rajaston Qoya qasrlari, Rani-ki-Vav, Buyuk Himolay milliy bog‘ini muhofaza qilish maydoni, Nalanda Mahavihara arxeologik maydoni, Khangchendzonga Milliy bog‘i, Le Korbusier arxitektuta ishi, Tarixiy Ahmadabad shahri, Mumbayning Viktoriya gotik va Art Deco ansamblari, Jaipur shahri, Kakatiya Rudreshwara (Ramappa) ibodatxonasi, Dholavira: Harappa shahri, Santiniketan, Hoysalas joy olgan muqaddas ansamblari.

Ma’lumki, mamlakat turistik salohiyati shakllanishida uning boy tarixi, madaniyatidan tashqari uning tabiyati, jumladan, geografik joylashuvi, iqlimi, hamda nabotot va hayvonot olami ham muhim omil hisoblanadi. Hindistonning ushbu jihatdan o‘ziga xosligi ham ziyorat turizmi bilan birgalikda tog‘, plyaj va kurortlarga ko‘plab turistlarni jalb qiladi. Hindistonning go‘zal tabiyati Himoloyning baland tog‘laridan Goa va Keralaning plyajlarigacha bo‘lgan turli xil landshaftlarni o‘z ichiga oladi. Himoloy tog‘larida turli ekskursiyadan tortib chang‘ida uchishgacha, shuningdek, Everest va Kanchenjunga kabi mashhur cho‘qqilarni ziyorat qilish imkoniyatlari mavjud.

Hindistonning geografik joylashuvi va iqlimidagi o‘ziga xoslik mamlakat hududida betakror flora va fauna hosil bo‘lishiga omil bo‘lgan. Shimoldan dunyodagi eng baland tog‘larni qamrab olgan Himoloy tog‘lar tizimi, janubdan va ikki yondan dengiz va okeanlar bilan o‘rab olingan mamlakat o‘ziga xos subkontinentni namoyon qiladi. Hindistonning eng baland tog‘i Kanchendjunga deb nomlanadi. Yarimorol relyefi tekisliklardan tortib, o‘rtabaland va pastroq tog‘ va qoyalardan iborat. Markazda daryo vodiyalarini o‘z ichiga olgan Dekan qoya-tekisligi joylashgan bo‘lib, uni dengizlardan Sharqiy va G‘arbiy Gatlar deb nomlangan tog‘lar ajratib turadi.

Hindiston jami 7516.6 kilometrik dengiz qirg‘oqlariga ega bo‘lib, 5423 km yarimorolga va 2094 km alohida orollarga tegishli. Hindiston qirg‘oqlarining 43% qumli plyajlar, 11% tosh-qoyalar va yana botqoqlik qirg‘oqlarni tashkil etadi. Goa va Kerala plyajlari oq qum, iliq suv va suv sporti bilan shug‘ullanish imkoniyati bilan sayyoohlarni

o‘ziga jalb qiladi. Hindistonda barcha qirg‘oqlari bo‘ylab plyajlar joy olgan. Ularning eng asosiyлари esa Puri Beach, Rushikonda Beach, Kovalam beach, Eden Beach, Radhanagar beach, Minicoy Thundi, Kadmat beach, Kappad beach, Kasarkod beach, Padubidri Beach, Ghoghla beach, Shivrajpur beach plyajlaridir.

Hindistonning qirg‘oqlari bo‘ylab va atrofdagi orollarda o‘ziga xos geo-madaniyat shakllangan bo‘lib, ushbu hududlarda turistlar uchun ko‘plab diqqatga sazovor manzilgohlar, festivallar va tamosholar, me’morchilik va hunarmanchilik san’ati namunalari uchraydi.

Hindistonda ko‘plab daryolar mavjud bo‘lib, ular tog‘lardagi muzliklar, qor va yomg‘irlardan yoki mussonlar, dengiz-okean qirg‘oqlardagi tog‘ tizmilaridan hosil bo‘lishiga qarab “Himoloy” yoki “Dekan” daryolari deb nomlanadi. Eng yirik daryolar orasida Ganga va Brahmaputra, shuningdek Ganganing ikki yirik irmoqlari Yamuna va Koshi mashhur bo‘lib, Godavari, Mahanadi, Kaveri va Krishna, Narmada va Tapti daryolari bilan birga sug‘orish manbalari sifatida katta ahamiyatga ega.

Hindiston iqlimida Himoloy tog‘lari, Hind okeani dengizlari va Tar cho‘li asosiy rolni o‘ynaydi. Himoloy tog‘lari Hindistonni shimol tarafdan butun Osiyoda mavjud shamollardan to‘sib turadi va shu tariqa mamlakat ob-havosidagi mavjud issiqlikni saqlaydi. Tar cho‘li esa janubi-g‘arbiy nam shamollarni jalb qilishda ahamiyatga ega. Natijada, iyun va oktyabr oylari orasida yozgi mussonlar hosil bo‘ladi. Mamlakat bo‘ylab turli iqlim kuzatilsada, ularni asosan to‘rt iqlimga ajratish mumkin: nam tropik, quruq tropik, mussonli subtropik va yuqori tog‘ iqlimlari.

I-jadval

Hindistonda milliy bog‘larning shtatlardagi va ittifoq hududlardagi soni va hududi⁴⁸

Shtat nomi	Shtat maydoni (km ²)	Milliy bog‘lar soni	Milliy bog‘lar maydoni (km ²)
Andhra Pradesh	160229	3	1368.87
Arunachal Pradesh	83743	2	2,290.82
Assam	78438	7	2,664.58
Bihar	94163	1	335.65
Chhattisgarh	135191	3	2,899.08
Goa	3702	1	107.00

⁴⁸ https://wii.gov.in/nwdc_national_parks ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Faqat milliy bog‘lar mavjud hududlar ro'yxatigina jadvalda keltrilgan

Gujarat	196022	4	480.12
Haryana	44212	2	48.25
Himachal Pradesh	55673	5	2,256.28
Jharkhand	79714	1	226.33
Karnataka	191791	5	2,794.05
Kerala	38863	6	558.16
Madhya Pradesh	308245	11	4349.14
Maharashtra	307713	6	1,273.60
Manipur	22327	2	140.00
Meghalaya	22429	2	267.48
Mizoram	21081	2	150.00
Nagaland	16579	1	202.02
Odisha	155707	2	990.70
Rajasthan	342239	5	3,947.07
Sikkim	7096	1	1,784.00
Tamil Nadu	130058	5	827.51
Telangana	114840	3	19.62
Tripura	10486	2	36.71
Uttar Pradesh	240928	1	490.00
Uttarakhand	53483	6	4,915.02
West Bengal	88752	6	1,981.48
Andaman & Nicobar	8249	6	1,216.95
Jammu & Kashmir	163090	4	2432.45
Ladakh	59146	1	3350.00

Indo-Malay zoogeografik hududda joylashgan Hindiston bio xilma-xilllik eng yuqori bo‘lgan o‘lkalardandir. Faunasining asosiy qismi endemik turga oid bo‘lib, jami 50 ming turdag'i o‘simgilikni, jumladan, 18 mingdan ortiq gullarni o‘z ichiga oladi. Hindsiton o‘rmonlari yetti ming kvadrat kilometrdan ziyod bo‘lib, Himolay bag‘rida ular asosan archasimon daraxtlar va Andaman orollariga qadar tropik o‘rmonlardan iborat. Faunasiga kelsak, bu yerda dunyoda hamma joyda ham uchrayvermaydigan hayvonot olami, xususan, fil, sher, karkidon, Bengal yo‘lbarsi, leopard, ayiq, gepard, tovus, to‘ng‘izlar, bo‘rilar, Bengal tulkisi, chiziqli giyena, qizil bo‘ri, chiyabo‘rilar, makaka va boshqa turdag'i maymunlar, mangsutlar, kobra va boshqa turdag'i ilonlar jamlangan. Shuningdek, Hindistonda taxminan 1250 turdag'i qushlar, 2500 dan ortiq turdag'i baliqlar, 410 dan


ortiq turdag'i sut emizuvchilar va 408 dan ortiq turdag'i sudaralib yuruvchi hayvonlar borligi ma'lum.

Yuqorida ta'rif berilgan Hindsitonning o'ziga xos geografik va iqlimiyligi jihatlari mamlakat hududa tabiyat turizmiga oid destinatsiyalarga muhit yaratgan. Xususan, deyrli barcha shatlarda keng maydonga ega 106 milliy bog'lar mavjud. Ularning umumiyligi maydoni $44,402.95 \text{ km}^2$ bo'lib, Hemis Milliy bog'i ular orasida eng keng hudud – $4,400 \text{ km}^2$ maydonga ega bog' hisoblanadi. Hindistonning 75 milliy bog'lar qo'riqlanayotgan hudud hisoblanib, ularning maydoni 16,608 kvadrat kilometrni tashkil etadi. Milliy bog'larning shtatlardagi hududi bo'yicha taqsimoti 1-jadvalda keltirilgan.

Hindistondagi milliy bog'lar orasida YUNESCO Jahon merosi markazi ro'yxatiga kiritilgan bog'lar ham mavjud. Jumladan, Buyuk Himoloy (Great Himalayan National Park), Keoladeo National Park, Manas National Park, Khangchendzonga National Park, Kaziranga National Park Sundarbans National Park, Mukurthi National Park, Nanda Devi National Park, Gullar vodiysi (Valley of Flowers National Park) milliy bog'lari. Gular vodiysi ayniqsa e'tiborga loyiqlik mikro iqlimga ega bog'dir. Ushbu bog' 1987-yilda "Hindistonning Botanika tadqiqotlari", 1992-yilda O'rmon tadqiqot instituti va 1997 -yilda Hindistonning Yovvoyi tabiat instituti tomonidan o'rganilgan va inventarizatsiya qilingan bo'lib, ular fan uchun yangi beshta turni topadilar. 1993-yildan boshlab C.P.Kala tomonidan olib borilgan o'n yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gullar vodiysi 520 turdag'i o'simliklar mavjud bo'lib, ulardan 498 tasi gulli o'simliklardir. Noyob o'simliklardan tashqari Gullar vodiysida yirik uchadigan olamxon, kulrang langur, Himoloy ayig'i, tulkilar, kiyiklar, ko'k qo'y, qor qoploni, leopard, qor ayig'i, ko'plab sudralib yuruvchilar va kapalaklar, 114 turdag'i qushlar uchraydi.

Hindiston turistik salohiyatini belglovchi yana bir muhim omillardan biri mamlakatdagi infratuzilmalar va transport tizmidir. Hindistonda transport quruqlik, SUV va havo orqali transportdan iborat. Hindiston Turizm vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatga an'anaviy ravishda xorijlik turistlar asosan havo yo'llari orqali tashrif buyuradi. Jumladan, 2021-yilda havo yo'llari orqali jami turistlarning 87,5%, yer orqali 11% va dengiz orqali 0,7% mamlakatga kirib

kelgan⁴⁹. Xalqaro aeroportlar taqsimotiga kelsak, turistlarning 39,7% Dehli aeroporti, 13,9% Mumbai aeroporti, 8,73% Haridaspur aeroportlari orqali kirib kelgan. Shuningdek, Chennai, Haydarabod, Kalkuta, Bangalor, Kochin aeroportlari ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha sezilarli ulushga ega (1-rasm).



1-rasm. 2021-yilda Hindistonga tashrif buyurgan turistlarning aeroportlar bo‘yicha taqsimoti (foizda)⁵⁰

Avtomobil transporti aksariyat Hindiston fuqarolari uchun asosiy transport turi bo‘lib, Hindistonning avtomobil transporti tizimlari dunyoda eng ko‘p ishlataladigan tizimlardan biridir. “Oltin to‘rtbur-chak” Hindistonning to‘rtta yirik metro shaharlarini bog‘laydi, ya’ni, Dehli (Shimoliy), Kalkutta (Sharqiy), Chennay (Janubiy) va Mumbay (g‘arbiy).

2017-yil holatiga ko‘ra, Hindistonda jami avtomobil yo‘llar uzunligi 5,603,293 km tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o‘ringa ega bo‘lgan. Shuningdek, har bir kvadrat kilometrlik maydonga to‘g‘ri keladigan avtomagistral

⁴⁹ INDIA TOURISM STATISTICS 2022, P.25.

⁵⁰ INDIA TOURISM STATISTICS 2022, P.31.

bo‘yicha 0,66 ko‘rsatkich bilan AQSHdagi 0,65 km, Xitoydagi 0,16 km va Brazildagi 0,20 kilometrlik ko‘rsatkichlardan ustunlik qilmoqda.

Hindistonda yo‘llardagi tirbandlikni kamaytirish maqsadida yo‘llar, daryolar va bo‘g‘ozlar uzra ko‘plab ko‘priklar qad ko‘targan. Bulardan eng diqqatga sazovorlari Mumbaydagi dengiz uzra Bandra - Worli va Chennaidagi Kathipara ko‘priklaridir. Milliy magistrallar “Under National Highways Development Project” (NHDP) loyhasi asosida kamida to‘rt va olti qatorgacha yo‘llarni ishga tushirish rejalashtirilgan. Shuningdek, magistrallar orqali “Oltin to‘rtlik” nomli Dehli, Kalkutta, Chennay va Mumbay kabi yirik shaharlarni bog‘lash, hamda Shimol-janub va Sharq-G‘arb korridorlarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Ana’naviy ravishda, Hindistonda aholi uchun muhim jamoat transportlaridan biri bu avtobuslar bo‘lib kelgan, ayniqsa shahar va qishloqlarni o‘zaro bog‘lashda. Avtobuslar qatnovi “Bus rapid transit systems” (BRTS) nomli har bir shaharda tizimlashtirilgan. 1990-yillarda avtobuslarda shahar aholisining 90% jamoat transporti sifatida foydalanishini e’tiborga olgan holda hukumat transport korporatsiyalari konditsionerli va quyi chiqish zinapoyalariga ega maxsus avtobuslar bilan ta’minalashni yo‘lga qo‘ygan. 2010-yilda Ahmedabad BRTS tizimi “Transportation Research Board in Washington” tomonidan o‘tkazilgan tanlovda barqaror transport yutug‘i nominatsiyasi g‘olibiga aylangan.

Hindiston temir yo‘llari ko‘p yillik tarixga egadir va bugungi kunda juda rivojlangan keng tarmoqli tizimga aylangan. Mamlakat tarixida ilk bor temir yo‘llar 1853-yilda Mumbaydan qurila boshlangan bo‘lib, kuniga taxminan 6.3 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish orqali dunyoda eng sig‘imli poyezdlarga aylangan. Keyinchalik 1854-yilda Kalkutta, 1931-yilda Chennai temir yo‘llari ishga tushgan.

Hindistonda temir yo‘llari orqali ko‘plab yo‘lovchilar harakati va yuk transporti amalga oshadi. Jumaladan, 2019-yilda kuniga o‘rtacha 23,1 million yo‘lovchi ushbu transport turidan foydalangan. Mamlakatda taxminan 7,321 stansiyalar mavjud bo‘lib, temir yo‘llari tizimida 1,227 million kishi ishlaydi va bandlik bo‘yicha dunyoda 8-o‘rinda turadi. Eng tez yuradigan poezd “Vande Bharat Express” nomlanib, uning tezligi 180 km/soatdan ortiqdir. Xizmat ko‘rsatish tezligi bo‘yicha “Gatimaan Express” yetakchi sifatida e’tirof etilgan.

Turistlar uchun eng qulay temir yo'llari orqali Shatabdi Express, Rajdhani Expresses, Palace va The Golden Chariot poezdlari hisoblanadi. Hindiston temir yo'llari tizimida UNESCO Jahon madaniy merosiga kiritilgan obyektlar ham bor – bular Chhatrapati Shivaji Maharaj Terminus va “Hindsiton tog‘ temir yo'llari” (Mountain railways of India).

Hindistonda 13 asosiy va yana 187 o‘rtacha va kichikroq portlar mavjud. 13 yirik portlarga Deendayal (Kandla), Mumbai, Mormugao, New Mangalore, Cochin, Chennai, Ennore (Kamarajar), Tuticorin, Visakhapatnam, Paradip va Kolkata and Jawaharlal Nehru Portlaridir. 200 portlar esa shtatlar kesimida quyidagicha taqsimlanga: Maharashtra (53); Gujarat (40); Kerala (21); Tamil Nadu (15); Andhra Pradesh (13); Karnataka (10) va boshqalar (50).

Hindistonda piyoda yurish ham o‘ziga xos ommalashgan bo‘lib, ko‘p hollarda aholi transport mavjud bo‘lishiga qaramay uzoq masofalarni yayov bosib o‘tadi. Masalan, tarixda Adi Sankaracharya mamlakat bo‘ylab Kaladydan boshlab to Kochigacha piyoda sayohat qilgan. Bugungi kunda yayov yurish nafaqat qishloqlarda, balki Mumbay kabi yirik shaharlarda ham keng tarqalganidan maxsus piyodalar uchun yo'llar va ko‘priklar qurilgan. Jumladan, “Mumbai Metropolitan Region Development Authority” 50 dan ortiq piyodalar uchun baland ko‘priklarni loyihalashtirgan.

Velosiped orqali harakatlanish ham Hindsitonliklar orasida ommalashgan. Shaharlar atrofida istiqomat qiluvchilarning 50-80% ushbu shaharlarga velosiped orqali borishlari tahmin qilinadi. So‘nggi yillarda hukumat avtomobil yoqilg‘isining havoga chiqindilari va tirbandliklarni kamaytirish maqsadida shahar bo‘ylab velosiped orqali harakatlanishni turli chora-tadbirlar orqali rag‘batlantirmoqda.

Hindistonda yana bir o‘ziga xos transportlardan biri bu Rikshalardir. Rikshaning orqa o‘rindiqlariga ikki kishi joylashishi mumkin va oldingi o‘rindiqda uni boshqaruvchi haydovchisi joylashadi. Ular mamlakatda 1940-yillardan boshlab yo‘lga qo‘yilgan va bugungi kunda tabiyatshunoslar tomonidan havoni ifloslantirmaydigan transport turi sifatida e’tirof etilgan.

Hindiston iqtisodiyotida turizm muhim rol o‘ynaydi. Bandlikni yaratish: turizm sohasi Hindistondagi eng yirik ish beruvchilardan biri bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini taqdim etadi. U mehmondo‘stlik, transport, sayyoohlilik agentlik-

lari, turoperatorlar, restoranlar, qo‘l san’atlari va o‘yin-kulgi kabi turli sohalarda ish o‘rinlarini yaratadi. Bu ishsizlikni kamaytirishga va ko‘plab odamlar uchun turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi.

Valyuta tushumlari: turizm Hindiston uchun valyuta tushumining asosiy manbai hisoblanadi. Xalqaro sayyoohlar turar joy, oziq-ovqat, transport, xarid qilish va boshqa sayyoohlilik faoliyatiga pul sarflaydilar va shu bilan mamlakatning valyuta zaxiralariga hissa qo‘sadilar. Bu savdo defitsitini muvozanatlash va iqtisodiyotni mustahkamlashga yordam beradi.

Iqtisodiy o‘sish va rivojlanish: turizm sanoatining o‘sishi umumiyligi iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu mehmonxonalar, kurortlar, aeroportlar, yo‘llar va sayyoohlilik joylari kabi infratuzilmani rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Bu o‘z navbatida, ko‘proq sayyoohlarni jalb qiladi va turizm sohasiga investitsiyalarni rag‘batlantiradi. Iqtisodiy faollikning oshishi turdosh tarmoqlarning o‘sishiga olib keladi va iqtisodiyotga multiplikator ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniyatni saqlash va targ‘ib qilish: turizm Hindistonning boy madaniy merosini asrab-avaylash va targ‘ib qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Sayyoohlar tarixiy joylarga, yodgorliklarga, muzeylarga tashrif buyurishadi va madaniy festivallarda qatnashib, ushbu ma’naviy boyliklarni asrashga hissa qo‘sadilar. Bu mamlakatning madaniy o‘ziga xosligini saqlashga va madaniy almashinuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Mintaqaviy rivojlanish: turizm mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantirish va mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirish imkoniyatiga ega.

Bu yirik shaharlardan tashqarida sayyoohlilik yo‘nalishlarini rivojlantirishni rag‘batlantiradi, bu esa qishloq va chekka hududlarning o‘sishiga olib keladi. Bu ish bilan ta’minalash imkoniyatlarini yaratish, infratuzilmani yaxshilash va mahalliy aholi uchun yashash sharoitlarini yaxshilashga olib keladi.

Tadbirkorlik va kichik sanoat: turizm tadbirkorlikni va kichik sanoatning o‘sishini rag‘batlantiradi. Mahalliy hunarmandlar, hunarmandlar va rassomlar o‘z mahoratlarini namoyish etish va o‘z mahsulotlarini sayyoohlarga sotish imkoniyatiga ega. Bu an‘anaviy san’at va hunarmandchilikni rivojlantiradi, qishloq sanoatini va jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘sadi.

Xulosa qilib aytganda, Hindistonning turizm salohiyati uning uzoq o‘tmishlik tarixi, boy madaniy merosi, jumladan, me’moriy obidalar, arxeologik topilmalar, urf-odatlari, san’ati, geografik joylashuvi va iqlimiyl tabiyati orqali shakllagan. Shuningdek, aholi va hukumat hattiharakati orqali bunyod etilgan zamonaviy arxitektura, infratuzilmalar, jumladan, transport tizimi, kinoindustriya va boshqa turdag turizmning rivojlanish dinamikasini sohaga oid turli miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlar orqali ko‘rib chiqishdan iborat.

2. Hindistonda turizmning rivojlanish dinamikasi

Hindiston mustaqilligining ilk davridan boshlab iqtisodiyotning tarmoqlaridan biri sifatida turizmni faol rivojlanira boshladi. Sayyoqlik tashkilotlari tashkil etildi, reklama kompaniyalari o‘tkazildi va sayyoohlarni jalb qilish va ularga xizmat ko‘rsatish uchun yangi mehmonxonalar va infratuzilma qurildi.


Keying bosqichda, aniqrog‘i 1970-1990 yillar orasidagi davrda Hindistonda turizm yanada mashhur va xilma-xil bo‘lib bordi. Madaniy va tarixiy diqqatga sazovor joylar, tabiiy bog‘lar va plyajlarni o‘z ichiga olgan yangi sayyoqlik yo‘nalishlari ishlab chiqildi. Chet ellik sayyoohlarni jalb qilish uchun “Hindiston madaniy dasturi” va “Hindistonning sayyoohlarni jalb qilish kompaniyasi” kabi maxsus dasturlar joriy etildi.

1990-2000 yillar mobaynida Hindiston sayohat sharoitlarini yaxshilash, yangi xalqaro aeroportlarni ochish va sayyoqlik infratuzilmasini rivojlanirish tufayli ko‘proq xorijiy sayyoohlarni jalb qila boshladi. Bundan tashqari, chet ellik sayyoohlarning kirishini osonlashtirish uchun viza siyosati islohotlari o‘tkazildi.

2000 va undan keyingi yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan Hindistonda turizm yanada qulayroq bo‘ldi va ommalashdi. Mehmonxonalarini bron qilish, aviachiptalarni sotib olish va sayohatlarni rejalashtirish uchun onlayn platformalar yaratildi. Hindiston, shuningdek, xalqaro ko‘rgazma va tadbirlarda sayyoqlik yo‘nalishi sifatida o‘zini faol ravishda targ‘ib qila boshladi.

Umuman olganda, Hindistonda turizmning rivojlanishi turli bosqichlarni bosib o‘tdi va bugungi kunda mamlakat butun dunyo bo‘ylab sayohatchilar uchun keng ko‘lamli sayyoqlik imkoniyatlarini

taklif etadi. Ushbu bosqichlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari birinchi navbatda mamlakatga turistlarning tashrifi dinamikasida namoyon bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Hindsitonda 1997-2022 yillar orasidagi xorijlik turistlar tashrifi dinamikasi (million kishida)⁵¹


2-rasmdagi ko‘rsatkichlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, Hindistonga xorijiy tashriflar soni to 2020-yilgacha sezilarli darjada ‘sib kelgan. Jumladan, 2004-yilda 3,46 million xorijiy turistlar tashrif buyurgan va ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha yillik o‘sish 26,8 foizga yetgan. 2019-yilda 10,93 million kishi tashrif buyurib 1997-yildagi ko‘rsatkichning 461,18 % tashkil etgan. 2020 va 2021-yillarda Covid-19 pandemiyasi sababli tashriflar soni keskin kamaysada, 2022-yildan boshlab o‘sish boshlangan va 6,19 million turistlar tashrif buyurib, 2021-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 307,2 % o‘sish bo‘lgan.

Quyidagi 3-rasmida Hindistonga tashrif buyurgan xorijlik turistlarning hamda ular bo‘yicha Hindistonning dunyodagi ulushi dinamikasi aks etgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar Hindistonning dunyo xalqaro turizmidagi ulushi sezilarli ekanligi va tobora oshib borayotganligi ayon bo‘lmoqda. 2001-yildayoq uning xalqaro turizmdagi ulushi 0,37% bo‘lgan va 2014-yildan boshlab 1,15-1,64 foizgacha yetmoqda. Albatta dunyoda xalqaro turizm imkoniyatlari va miqyosi oshib borayotgan bir


⁵¹ <https://tourism.gov.in/sites/default/files/2022-06/Brief%20write%20up.pdf>, "India Tourism Statistics at a Glance" (PDF). Archived (PDF) from the original on 31 October 2021. Retrieved 9 December 2021. Ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi

sharoitda bu ko'rsatkichlar yuqori turistik salohiyatdan yoki erishilgan yuqori natijalardan dalolat beradi.



3-rasm. Hindistonga berilgan yillarda xorijlik turistlar tashrifi va Hindistonning xalqaro turizmdagi ulushi dinamikasi⁵²

Hindistonda an'anaviy ravishda turizmdan tushum yuzlab milliard dollarlik qiymatga ega. Jumaldan, 1997-yilda 2,89 milliard AQSH dollariga teng bo'lsa, 2019-yilga kelib 30,06 milliard AQSH dollariga teng bo'ldi (4-rasm).




4-rasm. Hindistonda xalqaro turistlardan tushgan tushumlarning dinamikasi (milliard AQSH dollarida)⁵³

⁵² India Tourism Statistics, 2022. P.78

⁵³ <https://tourism.gov.in/sites/default/files/2022-06/Brief%20write%20up.pdf>, "India Tourism Statistics at a Glance" (PDF). Archived (PDF) from the original on 31 October 2021. Retrieved 9 December 2021. Ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi

4-rasmdagi dinamik ko‘rsatkichlarga nazar tashlansa, 2000-yillarda turizmdan tushum keskin ortib bormoqda. Ma’lumki, ushbu davrda Hindistonda 1990-yillarda iqtisodiyot liberalizatsiyasi siyosati amalga oshirilgan va turizmga ham ustuvor yo‘nalishlar qatori e’tibor qaratilgan. Bunday chora tadbirlar 2000 va 2010-yillarda ham davom etdi va “Make in India” kabi dasturlar yo‘lga qo‘yildi. “Make in India” va uning shtatlardagi mahalliy yo‘nalishlari doirasida turizm 25 eng ustuvor istiqbolli tarmoqlar sifatida e’tirof etildi.


Shunga qaramay, Hindistonliklar ham xorijga nisbatan ko‘proq sayohat qilishi ham o‘ziga xos bir jarayondir. Ayniqsa 2010-yilda xorijga turistik sayohatlar keskin ortdi. Jumladan, 2019-yilda ularning soni 29915034 kishiga yetgan (5-rasm). Taqqoslash uchun – ayni yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijlik turistlar soni 17,9 million kishi bo‘lgan.



5-rasm. Berilgan yillarda Hindistonlik turistlarning xorijga sayohatlari dinamikasi⁵⁴

Yuqoridagi ichki va tashqi turistlar oqimidagi farqlar dinamikasini tom ma’noda tashqi turizm defitsiti deb atab bo‘lmaydi, chunki Hindistonda ichki turizm tashqi turizmdan kabi o‘nlab million emas, balki yuzlab millionda o‘lchanadi. Hindsitonda asosiy turistik oqimlarni shtatlararo va hududlar aro ichki turistlar hosil qiladi. Har yili yuz millionlab mahalliy turistlar mamlakatning turli shatlardagi manzilgohlarga sayohat qiladilar va yillik o‘sish ham mos ravishda ko‘payib borishi kuzatiladi. Jumladan, 2000-yilda ichki turistlar soni 220,11 million kishi bo‘lsa, 2010-yilda ularning soni 747,7 millionga, 2019 yilga kelib esa 2,320 milliardga yetmoqda. O‘sish trendi eksponensial ko‘rinishga ega (6-rasm).

⁵⁴ India Tourism Statistics, 2022. – P.91.



6-rasm. Hindistonda berilgan yillarda ichki turizm dinamikasi (million kishida)⁵⁵

Xorijiy va ichki turistlarni shtatlar bo'yicha taqsimotiga kelsak, 2022-yilda xorijiy turistlar kelgan Top-10 shatlar bo'yicha Gujarat, Maharashtra, G'arbiy Bengal, Dehli, Uttar Pradesh, Tamil Nadu, Rajasthan, Kerala, Panjob va Madhya Pradesh shtatlari yetakchilik qilgan. Ushbu shtatlarga jami xorijiy turistlarning 87,3 % tashrif buyurgan. Ichki (2-jadval). Ichki turistlar bo'yicha esa Uttar Pradesh, Tamil Nadu va Andhra Pradesh yetakchilik qilmoqda.

2-jadval

2022 yilda Hindistondagi xorijlik va ichki turistlar tashrifi bo'yicha Top-10 hududlar, ulardagi tashrifflar soni (mln. kishi) va ulushlari (foizda)⁵⁶

Shtatlar nomi	Xorijiy tashriflar soni (mln)	Ulushi (%)	Shtatlar nomi	Ichki tashrifflar soni (mln)	Ulushi (%)
Gujarat	1,78	20,70	Uttar Pradesh	317,91	18,37
Maharashtra	1,51	17,60	Tamil Nadu	218,58	12,63
G'arbiy Bengal	1,04	12,08	Andhra Pradesh	192,72	11,13
Dehli	0,82	9,50	Karnataka	182,41	10,54
Uttar Pradesh	0,65	7,65	Gujarat	135,81	7,85
Tamil Nadu	0,41	4,74	Maharashtra	111,30	6,43
Rajasthan	0,40	4,62	Rajasthan	108,33	6,26
Kerala	0,35	4,02	G'arbiy Bengal	84,54	4,88
Punjab	0,33	3,84	Telangana	60,70	3,51
Madhya Pradesh	0,20	2,38	Uttarakhand	54,64	3,16
Top-10 jami	7,47	87,3	Top-10 jami	1467,00	84,75
Boshqa shtatlar	1,11	12,97	Boshqa shtatlar	264,01	15,25

⁵⁵ www.statista.com

⁵⁶ "India tourism statistic at a glance 2023" (PDF). 28 July 2023.

Xorijlik turistlarning mamlakatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlariga nazar tashlansa, ko ‘plab mamlakatlarda kuzatilganidek, Hindistonda nafaqat geografik jihatdan yaqinroq, balki uzoq mamlakatlardan ham tashriflar soni ustunlik qiladi. Jumladan, Osiyo mamlakatlaridan ko‘ra ushbu ro‘yxatda Yevropa Ittifoqi, AQSH kabi mamlakatlar ham o‘rin olgan (3-jadval).

3-jadval

2019-yilda Hindistonga tashrif buyurgan Top-10 xorijiy turistlar mamlakatlari, tashriflar soni va ulushlari⁵⁷

O‘rin	Mamlakatlar nomi	Tashriflar soni	Ulushi (%)
1	Bangladesh	2,577,727	23.58
2	Yevropa Ittifoqi	2,430,002	21.12
3	AQSH	1,512,032	13.83
4	Buyuk Britaniya	1,000,292	9.15
5	Shri Lanka	380,121	3.38
6	Avstraliya	367,241	3.36
7	Kanada	351,859	3.22
8	Xitoy	339,442	3.11
9	Malayziya	334,579	3.06
10	Germaniya	264,973	2.42
11	Rossiya	251,319	2.3
Top-10 jami		7,330,325	67.06

Hindistonda turistlar uchun infratuzilmalarga aloqador ko‘rsatkich-larga kelsak, buni mamlakatdagi e’tirof etilgan otellar va ulardagi xonalar soniga to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. 2022-yilga kelib, Hindistonda 1929 otel va ularda jami 100892 xona mavjud bo‘lgan. Jumladan, ulardan 149 tasi luks, 185 tasi besh yulduzli va 459 tasi biznes sinf uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularda mos ravishda 35483, 22498 va 2304 xonalar mavjud bo‘lgan (4-jadval).

4-jadval

2022-yil 30-aprel holatiga ko‘ra Hindistonda tan olingan otellar va ulardagi mavjud xonalar soni⁵⁸

Darjasি	Otellar soni	Ulardagi xonalar soni
5yulduz deluks	149	35483
5 yulduzli	185	22498
4 yulduzli	423	20041
3 yulduzli	564	17209

⁵⁷ <https://tourism.gov.in/sites/default/files/2022-06/Brief%20write%20up.pdf>, "India Tourism Statistics at a Glance" (PDF). Archived (PDF) from the original on 31 October 2021. Retrieved 9 December 2021.

⁵⁸ India Tourism Statistics, 2022. – P.158.

2 yulduzli	25	922
1 yulduzli	10	294
B&B sinif	459	2304
Boshqalar	67	2041
Jami	1929	100892

Hindistonda turzimning iqtisodiyotdagi ahamiyati va ulushi tobora ortib bormoqda. Bu tendensiya mamlakatda xizmatlar sohasining ulushini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosat fonida yuz bermoqda. Darhaqiqat, Hindistonda turistik salohiyatlari kuchli bo‘lishi ulardan imkon qadar unumli foydalanishga undaydi. Ushbu yo‘nalishdagi rivojlanish turizm sohasining mamlakat yalpi ichki mahsuloti, qo‘shilgan qiymatidagi ulushi bo‘yicha ko‘rsatkichlarda aks ettirilishi mumkin.

5-jadval

Berilgan yillarda Hindistonda turizmning Yalpi ichki mahsulot va qo‘shilgan qiymatdagi ulushlari dinamikasi⁵⁹

Yillar	2009-2010	2015-2016	2018-2019	2019-2020
Bevosita turizmdan yalpi qo‘shilgan qiymat (kror rupiy)	234912	346493	467837	514343
Bevosita turizm orqali YaIM	237768	364668	492371	541321
Bevosita turizmning qo‘shilgan qiymatdagi ulushi (kror rupiy)	3,80 %	2,78 %	2,72 %	2,80 %
Bevosita turizmning YaIMdagi ulushi	3,68 %	2,70 %	2,61 %	2,70 %
Bevosita va bilvosita turizmning qo‘shilgan qiymatdagi ulushi	7,03 %	5,35 %	5,24 %	5,39 %
Bevosita va bilvosita turizmning YaIMdagi ulushi	6,82 %	5,20 %	5,01 %	5,19 %

5-jadvaldagi ko‘rsatkichlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, bevosita turizm so‘nggi o‘n yillikda YaIM dagi va qo‘shilgan qiymatdagi ulushi o‘rtacha 3 % tashkil etar ekan. Bilvosita turizmga aloqador ko‘rsatkichlar bo‘yicha esa berilgan yillarda ikki barobar ortiq ulushlarga ega bo‘lmoqda. Ulushlarning kamayib borayotganligi Hindiston iqtisodiyotining jadal o‘sishi va boshqa sohalarning ham rivojlanib borayotganligidan dalolat qiladi, chunki mutlaq qiymat bo‘yicha yalpi ichki mahsulotda ham, qo‘shilgan qiymatda ham turizm bo‘yicha ko‘rsatkichlar sezlarli darajada ko‘payib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

⁵⁹ India Tourism Statistics, 2022. – P.197.

Turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati borasida yanada ko‘proq tasavvurga ega bo‘lish uchun soha bo‘yicha bandlikning rivojlanish dinamikasiga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko‘rsatkichlarni yuqoridagi kabi bevosita va bilvosita turimga aloqador bandlik kesimida ko‘rib chiqish mumkin (6-jadval).

6-jadval

Berilgan yillarda Hindistonda turizm sohasida bandlik dinamikasi⁶⁰

Yillar	2009-2010	2015-2016	2018-2019	2019-2020
Turizm industriyasida (mln)	23,4	31,5	33,08	34,83
Bevosita turizmning bandlikdagi ulushi	4,37 %	5,40 %	6,48 %	6,69 %
Bevosita turizmnинг YaIMdagи ulushi	10,17 %	12,38 %	14,87 %	15,34 %
Bevosita va bilvosita turizmdagi bandlik (mln)	54,47	72,26	75,85	79,86

11-jadvalda aks ettirilgan ko‘rsatkichlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, Hindistonda 2010-yillardan boshlab turizm industriyasida, bevosita turzim va bilvosita turizmga aloqador sohalarda band bo‘lganlar son jihatdan ham, ulush jihatdan ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Jumladan, agar 2009-2010-yilgi hisobda turizm industriyasida 23,4 million kishi band bo‘lgan bo‘lsa, 2019-2020 yillik hisobda bu ko‘rsatkich 34,83 million kishiga yetmoqda. Shuningdek, bevosita va bilvosita turizmga aloqador bandlikni ushbu yillardagi ko‘rsatkichlarni taqqoslasak, yanada katta natijalarga guvoh bo‘lamiz, ya’ni so‘nggi o’n yillikning davr boshidan davr oxiriga qadar bandlik 54,47 million kishidan 79,86 millionga yetmoqda.

Hindistondagi turizmga COVID-19 pandemiyasi sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Biroq, vaziyat yaxshilanishi va sayohat cheklovleri astasekin olib tashlanishi bilan turizm sohasi tiklanishi va yangi sharoitga moslashishi kutilmoqda. Pandemiyadan keyingi davrda Hindistonda xalqaro sayohat cheklovleri va xavfsizlik muammolari bilan ichki turizmning kuchayishi kutilmoqda. Hindistonlik sayohatchilar ichki yo‘nalishlarni, shu jumladan, noodatiy joylarni va qishloq turizmini o‘rganishni afzal ko‘rishlari mumkin, chunki ular ijtimoiy masofani saqlashga va mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashga intilishadi. Sog‘liqni saqlash va xavfsizlik choralar: sayohatchilarning salomatligi

⁶⁰ India Tourism Statistics, 2022. – P.198.

va xavfsizligi ustuvor vazifa bo‘ladi. Mehmonxonalar, turoperatorlar va boshqa sayyohlik muassasalari turistlar uchun xavfsiz va gigiyenik muhitni ta’minlash uchun kengaytirilgan tozalash protokollari, kontaksiz xizmatlar va sog‘liqni tekshirish tadbirlarini amalga oshiradilar.

Pandemiya mas’uliyatli va barqaror turizmning muhimligini ko‘rsatib berdi. Sayohatchilar mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlashni, ekologik toza turar joylarni tanlashni va ularning atrof-muhitga ta’sirini minimallashtiradigan faoliyat bilan shug‘ullanishni tanlashlari mumkin. Raqamli transformatsiya: pandemiya turizm sohasida texnologiyalarni qabul qilishni tezlashtirdi. Uzluksiz va xavfsiz sayohat tajribasini ta’minlash uchun onlayn buyurtmalar, kontaksiz to‘lovlar, virtual sayohatlar va raqamli sog‘liqni saqlash pasportlari keng tarqalgan bo‘lishi mumkin.

Salomatlik va immunitetga e’tibor qaratish, Ayurveda, yoga markazlari va sog‘lomlashtirish kurortlarida talab ortishi kutilmoqda. Bundan tashqari, sayohatchilar toza va ifloslanmagan muhitlari bilan mashhur yo‘nalishlarni afzal ko‘rishlari mumkin. Hamkorlik va qo‘llab-quvvatlash: Davlat organlari, sayyohlik tashkilotlari va soha manfaatdor tomonlari turizmni tiklash uchun hamkorlik qiladi. Maqsadli marketing kampaniyalari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va malakani oshirish dasturlari kabi tashabbuslar turizm sohasini tiklashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Hindistonda turizm sohasining rivojlanishi turli davrlarda o‘ziga xos tendensiyaga ega bo‘lib kelgan va umumiy dinamika tobora intensiv o‘sish bilan xarakterlanadi. 2000-yildan so‘ng 1990-yillardagi iqtisodiy liberalizatsiya siyosati natija bera boshladi, 2010-yillarda esa yanada ko‘proq qisqa va uzoq muddatli choratadbirlar va dastur-loyhalar joriy etilishi ham e’tiborga loyiqidir. Umuman olganda, dastlab mamlakatning turistik salohiyati asosiy rol o‘ynagan bo‘lsa, keyinchalik turizmni rivojlantirish bo‘yicha choratadbirlarning ham ahamiyati kuchaymoqda. Shuning uchun ularga zamin yaratgan huquqiy-me’yoriy asoslarni o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

3. Hindistonda turizmning huquqiy-me’yoriy asoslari

Turizm xalqlarning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi va Hindiston ham bundan mustasno emas. O‘zining boy madaniy merosi, xilma-xil landshaftlari va tarixiy diqqatga sazovor joylari bilan

Hindiston mashhur sayyohlik maskaniga aylandi. Biroq, turizmning barqaror o'sishini ta'minlash va sayyohlarni ham, atrof-muhitni ham himoya qilish uchun Hindiston hukumati turizm sohasiga oid turli qonun va qoidalarni amalga oshirdi.

Hindistonda turizm to'g'risidagi qonunlarning amalga oshirilishi sanoat, sayyohlar va atrof-muhit uchun bir nechta ta'sirga ega. Birinchidan, u sayyohlik agentliklari, turoperatorlar va turizm sohasiga jalb qilingan boshqa manfaatdor tomonlarni tartibga solish orqali sayyohlarning xavfsizligi va xavfsizligini ta'minlaydi. Bu firibgarlik amaliyotining oldini olishga va Hindistonning xavfsiz manzil sifatida obro'sini saqlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, turizm to'g'risidagi qonunlar mas'uliyatli va barqaror turizm amaliyotini targ'ib qiladi. Yovvoyi tabiat qo'riqxonalari va meros obyektlari kabi ekologik jihatdan sezgir hududlardagi faoliyatni tartibga solish orqali qonunlar Hindistonning tabiiy va madaniy merosini kelajak avlodlar uchun saqlashga yordam beradi. Shuningdek, ular turizmni rivojlantirish ekologik barqaror tarzda amalga oshirilishini, mahalliy jamoalar va ekotizimlarga salbiy ta'sirlarni minimallashtirishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, turizm to'g'risidagi qonunlar investitsiyalarni jalb qilish va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratish orqali Hindistonning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shami. Qoidalar (regulations) mehmonxonalar, sayyohlik agentliklari va transport xizmatlari kabi turizm bilan bog'liq korxonalarning o'sishi uchun qulay muhit yaratadi. Bu, o'z navbatida, mahalliy iqtisodiyotni kuchaytiradi va qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi.

Hindistonda turizmga oid huquqiy-me'yoriy asoslari birinchi navbatda Hindiston Kostitutsiaysiga muvofiq shakllanadi. Ushbu asosiy qomusga muvofiq markaziy va shtat hukumatlarilariga turizmni tartibga solish vakolati beriladi. Markaziy hukumat Turizm vazirligi orqali sohani rivojlantirish siyosatini shakllantiradi va milliy darajadagi qoidalarni amalga oshiradi, shtat hukumatlari esa o'z mintaqalariga xos qonunlarni qabul qilish vakolatiga ega. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ko'rsatmalari kabi xalqaro shartnomalar va konvensiyalar Hindistonning turizm qonunlariga ham ta'sir qiladi.

Hindistonda turizmning huquqiy asoslari bir nechta qonun hujjalari va qoidalarni qabul qilish vakolatiga ega. Mana ulardan ba'zilari:

Turizm to‘g‘risidagi Qonun (The Tourism Act, 1971), 1971-yil: ushbu qonun Hindistonda turizmni rivojlantirish va tartibga solish uchun asos yaratadi. Bu Markaziy hukumatga turizm faoliyatini targ‘ib qilish, rejalashtirish va muvofiqlashtirishni nazorat qilish huquqini beradi. Qonunda Hindiston turizmni rivojlantirish korporatsiyasi (Indian Tourism Development Corporation – ITDC) va Hindiston turizm va sayohatlarni boshqarish instituti (Indian Institute of Tourism and Travel Management – IITM) tashkil etilishi ko‘zda tutilgan.

Chet el fuqarolarini ro‘yxatdan o‘tkazish va nazorat qilish to‘g‘risidagi Qonun, 1952-yil (The Registration and Control of Foreigners Act, 1952) - ushbu qonun chet ellik sayyoohlarning Hindistonga kirishi, qolishi va ketishini tartibga solidi, Hindistonga sayyoh sifatida tashrif buyurgan chet el fuqarolarini ro‘yxatdan o‘tkazish va nazorat qilish qoidalarini belgilaydi. Shuningdek, u ularning yashash va mamlakat bo‘ylab harakatlanish qoidalarini belgilaydi. Bu chet ellik sayyoohlardan pasport va vizalar kabi amaldagi sayohat hujjatlariga ega bo‘lishni talab qiladi va ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va qolish muddatini uzaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Qonun, shuningdek, tegishli ruxsatnomalarsiz muayyan faoliyatlarni cheklaydi.

(The Wildlife Protection Act, 1972): Yovvoyi Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Qonun, 1972: Hindistonda boy biologik xilmassislik, shu jumladan bir nechta milliy bog‘lar va yovvoyi tabiat qo‘riqxonalari joylashgan. Ushbu harakat yovvoyi tabiatni muhofaza qilish va saqlashga qaratilgan bo‘lib, turizm faoliyati atrof-muhitga zarar yetkazmasligini yoki yovvoyi tabiatning yashash joylarini buzmasligini ta’minlaydi. U qo‘riqlanadigan hududlarni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalarni belgilaydi, yovvoyi tabiat turizmini tartibga soladi va yo‘qolib borayotgan turlarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan faoliyatni taqiqlaydi.

Atrof - muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Qonun (The Environment Protection Act, 1986) – ushbu qonun Hindistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, shu jumladan tabiiy resurslarni saqlash, tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish va turizmnинг barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish uchun qoidalar va qoidalarni belgilaydi.

Qadimgi yodgorliklar va arxeologik joylar va qoldiqlar to‘g‘risidagi Qonun, qadimiy yodgorliklar va arxeologik joylar va qoldiqlar (meros to‘g‘risidagi qonunlar va vakolatli organning boshqa

funksiyalari) qoidalari, Milliy yodgorliklar boshqarmasi (vakolat va ish yuritish raisi va a'zolarining xizmat ko'rsatish shartlari) qoidalari.

Iste'molchilar huquqlari to'g'risidagi qonun, 2019 (The Consumer Protection Act, 2019) - ushbu qonun iste'molchilarning, shu jumladan sayyoohlarning huquqlarini himoya qiladi va ularga sifatli xizmatlardan foydalanish huquqini, shuningdek ushbu xizmatlarga rioya qilinmasa shikoyat qilish imkoniyatini beradi.

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Qonun, 2016-yil (The Rights of Persons with Disabilities Act, 2016) - ushbu qonun nogironligi bo'lgan chet ellik sayyoohlarning huquqlarini himoya qiladi va turizm sohasidagi tashkilotlarni nogironligi bo'lgan shaxslar uchun o'z xizmatlarining mavjudligini ta'minlashga majbur qiladi.

Valyutani saqlash (sayohat) solig'ini bekor qilish to'g'risidagi Qonun, Valyutani ayiraboshlash boshqaruvi to'g'risidagi Qonun, Valyutaning tasarrufi va Rupiyda qarz olish va qarz berish qoidalari, Valyuta depoziti qoidalari, Valyuta eksporti va importi qoidalari, Tovar va xizmat eksportida valyuta ayiraboshlash qoidalari, Hindistonda yashovchi shaxs tomonidan valyuta hisobvaraqlari qoidalari, valyuta ayiraboshlash sug'urtasi qoidalari, valyuta ayiraboshlashda xalqaro moliyaviy xizmatlar markazi qoidalari, chet el valyutasini saqlash qoidalari, Valyuta ayiraboshlash bilan bog'liq qiyinchiliklarni olib tashlash tartibi, Hindiston hayotni sug'urtalash korporatsiyasi va Tur bo'yicha xodimlarga kunlik nafaqa va mehmonxona to'lovleri va qoidalari.

Shuningdek, har bir shtatlarda mahalliy qonunchilikka muvofiq turizmga oid normalar mavjud. Jumladan, Andhra Pradesh turizm, madaniyat va meros kengashi to'g'risidagi Qonun, Andhra Pradesh turizm ma'muriyati (Konstitutsiya, funksiyalar va vakolatlar) qoidalari, Andhra Pradesh Turizm, Madaniyat va Meros Kengashi va Qo'mitalari (funksiyalar va vakolatlar) qoidalari, Bihar shtatlarlararo turistik transport vositalarini targ'ib qilish uchun rag'batlantirish qoidalari, Dehli shahar merosi fondi Nizomi, Goa turistik joylari (asrab avaylash va texnik xizmat ko'rsatish) to'g'risidagi Qonun, Goa, Daman va Diu turistik savdosi to'g'risidagi Qonunni ro'yxatdan o'tkazish, Himachal Pradesh Turistik savdosi to'g'risidagi Qonun, Himachal Pradesh turizmni rivojlantirish va ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Qonun, Himachal Pradesh Aero Sport qoidalari, Himachal Pradesh barqaror turizmni rivojlantirish siyosati, Himachal Pradesh O'rmon boshqarma-

sining qayta ko'rib chiqilgan Eko-turizm siyosati, Jarxand turizmni rivojlantirish va ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Qonun, Jarxand shtatidagi turistik joy yoki zonani aniqlash qoidalari, Karnataka turizm savdosi (osonlashtirish va tartibga solish) to'g'risidagi Qonun, Chalukyaning Meros hududini boshqarish bo'yicha vakolat to'g'risidagi Qonun, Hampi Jahon merosini boshqarish bo'yicha vakolat to'g'risidagi Qonun, Sahyadri merosini rivojlantirish bo'yicha vakolat to'g'risidagi Qonun, Kerala turizm (hududlarini asrab-avaylash) to'g'risidagi Qonun, Champaner-Pavagadh arxeologik parki Jahon merosi hududini boshqarish boshqarmasi to'g'risidagi Qonun, Nagaland sayyohlik savdosini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Qonun, Orissa turizm xizmati qoidalari, Orissa turistik transport vositalari qoidalari, Rajasthan turizm savdosi (osonlashtirish va tartibga solish) to'g'risidagi Qonun, Tamil Nadu merosi komissiyasi akti, Telangana Heritage (himoya qilish, asrab-avaylash va texnik xizmat ko'rsatish) akti, Uttaranchal turizmni rivojlantirish Kengashi akti, G'arbiy Bengal merosi komissiyasi akti va boshqalar.

Bular Hindistondagi turizmni tartibga soluvchi qonun hujjatlarning bir nechta. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu qonunlar o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin, shuning uchun eng dolzarb ma'lumotlar uchun rasmiy manbalarga murojaat qilish tavsiya etiladi.

“The Incredible India” aksiyasi: Hindiston Turizm vazirligi tomonidan boshlangan ushbu aksiya Hindistonni butun dunyo bo'ylab sayyohlik yo'nalishi sifatida targ'ib qilishga qaratilgan. “Incredible India” 2002-yilda brendga aylangan bo'lsa ham, 1972-yildayoq ayni ibora shior sifatida Sunil Dutt tomonidan taklif etilgan. Uning asosiy e'tibori turli mamlakatlardan sayyohlarni jalb qilish uchun Brendlash, marketing va reklama strategiyalariga qaratilgan. Aksiya Hindistonning eng afzal sayyohlik manzilgohlaridan biri sifatida ko'rila boshlashida muhim rol o'ynadi. Incredible Hindiston Hindistonning rasmiy sayyohlik kampaniyasi shiori bo'lib, u mamlakatning xilma-xil va boy madaniy merosini targ'ib qilishga qaratilgan. Hindiston o'zining ulkan landshaftlari, qadimiy an'analari, tarixiy yodgorliklari va jonli festivallari bilan mashhur.

Hindsitonda turizmni rivojlantirish uchun vakolatli bo'lgan bir nechta tashkilotlar faoliyat yuritadi. Ularning asosiyalar quyidagilar.

1. Turizm vazirligi (turizm vazirligi) Hindistonda turizm siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat muas-

sasasidir. U sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish va targ‘ib qilish, sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish va xorijiy va ichki sayyohlarni jalg‘ish uchun marketing kampaniyalarini o‘tkazish bilan shug‘ullanadi.

2. Hindiston davlat turizmni rivojlantirish agentligi (Indian Tourism Development Corporation, ITDC) faoliyati Hindistonda turizmni rivojlantirish va targ‘ib qilishdan iborat bo‘lgan davlat tashkilotidir. ITDC mehmonxonalar, restoranlar, sayyohlik majmularini boshqaradi va turli xil sayyohlik xizmatlarini taklif etadi.

3. Hindiston turoperatorlari assotsiatsiyasi (Indian Association of Tour Operators, IATO) mamlakatdagi turoperatorlarini birlashtiradigan hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtiradigan notijorat tashkilotdir. IATO Hindistonda turizmni rivojlantirish, turoperatorlarning manfaatlarini himoya qilish va sayyohlik xizmatlari sifatini oshirish uchun qulay muhit yaratish ustida ishlamoqda.

Ushbu tashkilotlar yangi sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish va turizm infratuzilmasini yaxshilash mamlakatga ko‘proq sayyohlarni jalg‘ish qilish orqali Hindistonda turizmni rivojlantirish va targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Hindistonda turizm to‘g‘risidagi qonunlar, qarorlar va davlat dasturlari turizmni mas’uliyatli va barqaror ravishda tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli huquqiy-me’yoriy asosdir. Aktlar, kampaniyalar va qoidalardan iborat ushbu qonunchilik bazasi sayyohlarning xavfsizligi va xavfsizligini ta’minlaydi, atrof-muhitni himoya qiladi va iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Hindiston tobora ko‘payib borayotgan sayyohlarni jalg‘ishda davom etar ekan, turizm sanoatining rivojlanayotgan talabari va muammolarini hal qilish uchun ushbu qonunlarni joriy qilish va takomillashtirib borishi juda muhimdir. Bu turizm salohiyatidan barqaror foydalanishi va uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy foydalarini olishga imkon beradi.

VI BOB. OSIYO VA FORS KO'RFAZI MAMLAKATLARIDA TURIZM MARKAZLARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1. Osiyo turizm markazlarining shakllanishi va rivojlanishi

Osiyo yer yuzining eng katta qismi hisoblanib, uni uchta dunyo okeanlari yuvib turadi hamda 53 davlatni o‘zida birlashtirgan mintqa sanaladi. Osiyo – yer yuzida turli tuman madaniyatlar, tillar va xalqlarni jamlaydi. Va bunday mintaqani boshqa hech qaerda topib bo‘lmaydi. Uning hududlari Isroildan Filippingacha, Mo‘g‘ilistondan to Hindistonga cho‘zilib ketgan bepoyon kengliklarga quyosh, o‘z nurini ayyosiz sochadigan mintaqadir. Osiyo jahonga don sepib undan non yopishni, hosil olishni, g‘ildirakni, yozish va falsafani o‘rgatgan mintaqadir.

Osiyo mintaqasida turizm markazlari shakllanishi va rivojlanishiga juda ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatgan. Shulardan biri Osiyo ekzotikasi. O‘zining ekzotikasi jahonda takrorlanmas ahamiyatga ega. Mintaqada turli ekzotikalarni uchratish, shulardan Hindiston ibodatxona komplekslari yoki Pattayya tamaddixonalaridagi “tom - yam” olovli suplari, Damashq minoralaridagi yoqimli azon ovozlari yoinki, issiq havoda yahudiylarning junli shapkalarda Ierusalm ko‘chalari bo‘ylab yurishlari bularning barchasi Osiyo koloriti sifatida tizilib turadi. Har bir turistning takrorlanmas hissiyotlariga sabab bo‘ladi va bu hayratlarni Osiyodan boshqa joyda topishning imkoniy yo‘q.

Osiyo turizm markazlari shakllanishi va rivojlanishida albatta mintaqaning iqlimi alohida o‘rinda turadi. Mintaqada hohlagan vaqtida istagan iqlimda bo‘lish imkonи mavjud. Yozda – ayoz qishni va aksincha. Qorbo‘ronlar zarurmi Shimoliy Osiyo mintaqasiga tashrif byurish orqali topish mumkin, qishda yoz fasli hohlansa, Janubiy Osiyo, Arab amirliklariga tashrif orqali topiladi, agarda nam tropik iqlim zarur bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Filippin tomonga yo‘l olish mumkin. Tikka qoyalar va tog‘lar uchun Everest cho‘qqilari, keng ummon uzra sokinlik uchun O‘lik dengizlarga tashrif shular jumlasidandir.

Bundan tashqari jahon turistlar oqimlari Osiyoga din va ziyorat maqsadlarida tashrif buyurishadi. Aynan bu yerda jahon dirlari

markazlari joylashgan. Islom, buddizm, xristian dinlari shular jumlasidadir.

Osiyo mintaqasi beshta submintaqalardan iboratdir. Bular, G‘arbiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubi – Sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va O‘rta Osiyo shular jumlasidadir, biroq BMT, Jahon banki, Jahon turizm tashkilotlarida Osiyo, Osiyo va Okeaniya tarzida, ba’zan Osiyo deb uni to‘rtta submintaqalarga bo‘lgan holda ifodalaydi. Umuman olganda Osiyo va Okeaniya mintaqasi quyidagi submintaqalardan iborat. Bular: Shimoliy – Sharqiy Osiyo, Janubiy – Sharqiy Osiyo, Okeaniya hamda Janubiy Osiyo mintaqalaridir⁶¹.

Osiyo va Okeaniya mintaqasi jahon turizm industriyasida ikkinchi o‘rinda turadi. Mintaqaga xalqaro turistlar oqimlari ham jahon turizmidagi ulushi 2019-yilda 24.5% ni tashkil etgan. Turistlar oqimlari eng ko‘p shimoliy – sharqiy Osiyo submintaqasiga 170.3 mln. turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2019-yilda mintaqadagi turistlar oqimlaridagi ulushi 47.3% ga teng bo‘lgan.

I-jadval

Jahon, mintaqqa va submintaqalar bo‘yicha xalqaro turistlar tashrifi

	Xalqaro turistlar tashrifi, million					Ulushi %	O‘zgarish, % da		
	2018	2019	2020	2021	2021		20/19	21/20	21/19
Jahon	1413	1466	409	446	100	-72.1	9	-69.9	
Osiyo va Okeaniya	346.5	359.5	59.2	20.6	4.6	-83.5	-65.5	-94.3	
- <i>Shimoliy – Sharqiy Osiyo</i>	169.2	170.3	20.3	11.2	2.5	-88.1	-44.8	-93.4	
- <i>Janubiy – Sharqiy Osiyo</i>	128.6	138	25.5	2.9	0.7	-81.5	88.5	-97.9	
- <i>Okeaniya</i>	17	17.4	3.6	0.8	0.2	-79.1	-79.3	-95.7	
- <i>Janubiy Osiyo</i>	31.7	33.7	9.8	5.7	1.3	-71.1	-41.2	-83	

Manba: UNWTO/World Tourism Barometer/ Vol 20. Issue 5. September 2022-2021.

Oxirgi yillarda turizm o‘zining ulkan daromadlari hisobiga jahon hamjamiyatining markaziy o‘rinlaridan joy olmoqda. Xalqaro turizm daromadlari mamlakat YAIM da katta ulushga ega bo‘lib, bu yildan – yilga o‘sib bormoqda. Shu bois har bir davlat turizmni rivojlantirishi va undan daromadlar olish mexanizmlari yaratishi evaziga mamlakatda turizm mustahkam o‘ringa ega bo‘ladi. Shu tariqa Osiyo mintaqasi

⁶¹ UNWTO/World Tourism Barometer/ Vol 20. Issue 5. September 2022.

turizm bo'yicha Amerika mintaqasini ortda qoldirib, Yevropa mintaqasiga nisbatan raqobatchiga aylanmoqda.



Shimoliy – Sharqiy Osiyo mintaqasi Xitoyning shimoliy – sharqidagi uchta provinsiyasi (Xeylongjiang, Jilin va Liaoning), Yaponiya, Mo'g'ilistonning ichi, Shimoliy Koreya, Rossiya Federasiyasining uzoq sharqi, Janubiy Koreya, Tayvan davtlaridan iborat. Yuqoridagi jadvaldan (1-jadval) ko'rishimiz mumkinki, mazkur submintaqqa Osiyo mintaqasida xalqaro turistlar oqimlari jihatidan katta ulushga ega. Bundan bilishimiz mumkinki, Osiyo mintaqasidagi yetakchi turistik markazlar aynan ushbu davlatlarga taalluqlidir.

South East Asia

Countries



Janubiy – Sharqiy Osiyo mintaqasida Bruney, Birma (Myanmar), Kamboja, Timor orollari, Indoneziya, Laos, Malayziya, Filippin, Singapur, Tailand, Vietnam davtlari joylashgan. Jahon iqtisodiyotida mashhur ASEAN tashkiloti ham aynan ushbu davtlarlar birlashuvidan tashkil topgandir. Ushbu mintaqqa ASEAN deb ham yuritiladi.




Janubiy Osiyo mintaqasi davlatlariga Afg'oniston, Bangladesh, Butan, Hindiston, Eron, Maldiv, Nepal, Pokiston, Shri Lanka va Kashmir davlatlari kiradi. Mazkur mintaqqa o'zining turistik jozibasi bilan oxirgi vaqtarda sayyoohlarni o'ziga tortib kelmoqda. Bundan tashqari, Hindistonda aholi tez sura'tlarda o'sishi hamda ta'limdagi yuqori natijalari evaziga nafaqat turizm sohasi balki, jahon iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda.



Okeaniya mintaqasi juda katta va ko'plab orolchalardan iboradir. Mintaqada davlatlar va tegishli hududlar mavjud. Okeaniya

mintaqasi Amerika mintaqasigacha cho‘zilib ketgandir. Okeaniya mintaqasida Avstraliya, Papua Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya, Fiji, Solomon orollari, Mikroneziya, Vanuatu, Samoa, Kribati, Tongo, Marshal orollari, Palau, Tuvalu, Nauru kabi davtlari joylashgan. Biroq, unda boshqa davlatlarga tegishli, qadimda mustamlaka hozirda hudud mavqeidagi davtlar mavjud. Bular: Yangi Kaledoniya, Polineziya (Fransiya davlatiga tegishli), Guam, Shimoliy Mariana orollari, Amerika Samoa (AQSh ga tegishli), Kuk orollari (qisman Yangi Zelandiyaga tegishli), Vallis va Futuna (Fransiyaga tegishli), Niu (qisman Yangi Zelandiyaga tegishli), Tolekau (Yangi Zelandiyaga tegishli) kabi davlat, hududlar shular jumlasidandir.

Pacific Asia Travel Association ma’lumotlariga muvofiq, Osiyo va Okeaniya mintaqasiga 2019-yildan to 2024-yilgacha tashrif buyuruvchilar soni 715 mln. dan 972 mln. gacha oshgan. Ularning daromadlari 811 mlrd. doll.dan 1.117 mlrd. doll.ga ko‘paygani qayd etilgan, mos ravishda.




I-rasm. Osiyo va Okeaniya mintaqasiga tashrif buyuruvchilar soni daromadlari

Manba: Asia Pacific Visitor Forecasts 2020-2024. May 2020.

Tashrif buyuruvchilarning asosiy ulushi shimoliy – sharqiy Osiyo mintaqasi davtlariga tegishli bo‘lsa, keyingi katta qismi janubiy – sharqiy Osiyo mintaqasi davtlariga turistlar tashrifi qayd etilgan. 2019

yilda tashrif buyurgan turistlarning 46.8% shimoliy – sharqiy Osiyo mintaqasiga to‘g‘ri kelsa, 19.7% janubiy – sharqiy Osiyoga tegishli bo‘lgan. Va tendensiya saqlanib qolmoqda. Jahon destinasiyalari reytingini tuzuvchi mashhur Master kard indeksiga muvofiq eng mashhur destinasiyalar aynan Janubiy – Sharqiy Osiyo mintaqasida joylashgan Singapur, Tailand kabi davlatlarida joylashgan. Qayd etish kerakki, Amerika mintaqasi kiruvchi turizm bo‘yicha Osiyo mintaqasi- dan keyingi uchinchi o‘rinda turadi.



2-rasm. Tashrif buyuruvchilarining submintaqalar bo‘yicha taqsimoti, %

Manba: Asia Pacific Visitor Forecasts 2020-2024. May 2020.

Osiyo va Okeaniya mintaqasida turizm markazlariga tashrif buyuruvchi turistlar soni jihatidan shimoliy – sharqiy Osiyo submintaqasi davlatlari yetakchilik qilishlariga qaramay, turistlardan keladigan daromadlar jihatidan Janubiy Osiyo, Okeaniya va Amerika submintaqalari turistlardan tushumlari yuqori hisoblanmoqda. Masalan 2019-yildan 2024-yilgacha mintaqaga kelgan turistlar ulushida shimoliy – sharqiy Osiyo submintaqasi qariyb 46% ga teng bo‘lgan bo‘lsa, Janubiy Osiyo va Okeaniya submintaqalari ancha pastni tashkil etmoqda, 2.3% va 3.7% lar mos ravishda (12.2-diagramma).

Biroq, jami keluvchi turistlar daromadlari, turistlarni qabul qilish bo‘yicha eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan submintaqalardan Okeaniya va Janubiy Osiyo submintaqalarida bir turistdan tushuvchi daromad jihatidan qolgan submintaqalardan yuqorini hisoblanadi. Bundagi asosiy e’tibor tur mahsulot va xizmatlar turlarining ko‘pligi, sifatliligi, qulayligi, mobilliga hamda narxlari yuqoriligi bilan izohlash mumkin.




3-rasm. Mintqala bo‘yicha touristlar ulushi (%) va mintaqalar bo‘yicha bir turistdan tushadigan daromad (doll.), 2020-2024-y.

Manba: Asia Pacific Visitor Forecasts 2020-2024. May 2020, hamda 12.2 – diagrammadan o‘rtachasi alohida hisoblangan holda tuzib chiqildi.

Jahon destinasiyalari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar tayyorlaydigan markazlardan Mastersard hisoblariga ko‘ra jahonda top 20 likka kiruvchi destinasiyalarga touristlar tashrifi bo‘yicha Thailandning Bangkok destinatsiyasi 2017-yildan to 2019-yilgacha birinchi o‘rinda turibdi. Unga ko‘ra 2017-yilda 21.09 mln, 2018-yilda 22.78 mln. va 2019-yilda 23.54 mln. touristlar tashrif buyurishgan. Reytingning beshinchi o‘rinida Singapur destinatsiyasi turibdi, unga 13.90 mln, 14.67 mln. va 15.25 mln touristlar kelishgan, mos ravishda. Oltinchi o‘rinda Kuala Lumpur, 9 – o‘rinda Tokio, 11 – o‘rinda Seul, 12 – o‘rinda Osako, 14 – o‘rinda Pxuket destinasiyalari mavjud. Biroq, destinasiyalarda touristlar soni past bo‘lishiga qarmay daromadi yuqori destinasiyalar mavjud. Bularga Dubay destinatsiyasini kiritish mumkin. 2019-yilda Dubayga 16.19 mln touristlar kelgan bo‘lsa, bu Bangkok destinatsiyasiga nisbatan touristlar oqimi – 31.2% ga past bo‘lishiga qaramay bir turisdan tushadigan daromadi bo‘yicha Dubay destinatsiyasi Bangkok destinatsiyasiga nisbatan 67.6% ga yuqori turadi. Demak touristlar soni emas balki, turizm markazlarida zamonaviy va innovatsion yondoshuvlar hamda mahsulot, xizmatlar sifati narxi muhim degan xulosaga kelish mumkin.

Turistik markazlarga tashrif buyuruvchilardan tushadigan daromadlarni har bir turist jon boshiga hisoblansa, u holda turistik markazlarga tashrif buyuruvchi touristlar soni ko‘p yoki ozligi deyarli ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi. Masalan 2019-yilda Bangkok

destinatsiyasiga 23.54 mln. turist tashrif buyurgan bo‘lsa, uning har bir turistdan tushadigan daromadi jon boshiga 21.76 ming dollarni tashkil etgan.




4-rasm. Osiyo va Okeaniyadagi turistik markazlarga sayyoohlar tashrifi, mln kishi

Manba: Mastercard Global Destination Cities Index 2019
ma'lumotlari asosida tuzib chiqildi.

Biroq, Singapur destinatsiyasiga xuddi shu davrda 15.25 mln. turistlar kelgan bo‘lsa, ulardan tushadigan daromadni har bir turist jon boshiga hisoblasak 17 ming dollarga teng bo‘lmoqda. Bundan Singapur destinatsiyasida eng avvalo turistlar haqiqatda Bangkokga nisbatan 64.7% ga past biroq, daromadi ancha yuqori degan xulosaga kelish mumkin. Demak Singapur destinatsiyasida turistik mahsulot va xizmatlar assortimenti ancha ko‘p hamda sifati yuqori bo‘lishi bilan birgalikda narxi past deyish mumkin. Narxlari baland xizmatlardan turistlar kamroq foydalanishadi. Singapurda Bangkokga nisbatan narxi yetarlicha pastligi ko‘proq tunab qolish kunlari yuqori bo‘lishiga olib kelgan, hamda turistlar segmentida yosh darajasi 20 – 45 yoshlar ko‘pni tashkil etadi. Va ushbu segmentga mo‘ljallangan tur paketlar shakllantirilgan. Mazkur tendensiyalarni Seul va Pxukut destinatsiyalarida ham ko‘rish mumkin. Seulga 2019-yilda 12.25 mln. turistlar kelgan bo‘lsa, Pxuketga esa 10.21 mln. turistlar tashrif buyurishgan. Seul destinatsiyasida turistlardan kelgan daromadlarni bitta turist jon boshiga hisoblansa 10.83 ming doll. ga teng bo‘lmoqda. Pxuketda esa ushbu ko‘rsatkich 13.11 ming doll. ni tashkil etmoqda. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, destinatsiyalarda tur

paketlar turlarini ko‘paytirish, narxlarni nisbatan pasaytirish zarur. Shu orqali kam sonli turistlar tashrifidan ham katta daromadlarni olish imkoni tug‘iladi.



5-rasm. Osiyo va Okeaniya mintaqasida turizm daromadlarining bitta turist jon boshiga hisobi dinamikasi, ming doll.

*Manba: Mastercard Global Destination Cities Index 2019
ma’lumotlari asosida tuzib chiqildi.*

2. Osiyo mamlakatlarida turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi

Turizm jahon iqtisodiyotining serdaromad sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Bunga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi navbatda turizm shakllangan mintaqaga yoki hududning joylashuvi o‘ta qulay bo‘lishi, havo, SUV va quruqlik jihatdan mobilligi bo‘lsa, ikkinchidan davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining mustahkamligi.

Turizmni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari turlicha, shulardan ba’zilarini sanab o’tamiz. Bular, ushbu sohada yaratilgan huquqiy – normativ asoslar, byudjet – soliq siyosati, undagi investitsiya va subvensiyalar, kreditlash tizimi, moliyaviy – iqtisodiy imtiyozlar, zamonaviy innovatsiyalar, turistik infratuzilmalarning qo’llab – quvvatlanishi, turiz sohasidagi kuchli marketing kabilar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi bo‘limda ko‘rib o‘tganimizdek, Osiyo mintaqasida turizm oqimlari yuqori submintaqa shimoliy – sharqiy Osiyo mintaqasi hisoblanadi. Mazkur hududda yuqori salohiyatga Xitoy davlati ega. Mamlakat madaniyat va turizm vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra 2023-yilda Xitoy ichki turistlar oqimi 52.7 mln. turistlar, daromadlari 26.5 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakat ichki turistik sayohatlari 3.9 mlrd. martaga teng.

Xitoyning turizm sohasida tartibga solish mexanizmlarini quyidagicha tasniflanadi. Bularga tartibga solish vositalari, instrumentlari, qo’llab – quvvatlash darajasi kabilar.

Tartibga solish **vositlariga** bevosita va bilvosita usullar, tartibga solish **instrumentlariga** administrativ va iqtisodiy, **darajalariga** marko daraja – milliy, mintaqaviy – provinsiya, mahalliy – shahar doirasidagi mezanzimlar xosdir.

Turizm sohasidagi tadbirkorlikni qo’llab – quvvatlashning bevosita usullariga turizm biznesini rivojlantirishni tartibga solishning normativ – huquqiy bazalarini, byudjet investitsiyalvri va subvensiyalarini takomillashtirish taalluqli. Qayd etish kerakki, Xitoy faqatgina turizm sohasini tizimlashtirish masalalariga 2009-yildagina harakat qildi. Aynan mazkur mexanizmga “Turistik industriyani jadallikda rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar” ishlab chiqilishi turki berdi. Aynan ushbu hujjatda turizmga iqtisodiyotning tirdak sektori sifatida e’tibor qaratish zaruriyati belgilangan. Hozirgi vaqtda Xitoyda turizm sohasining asosiy qonunlari sifatida “Turizm haqida” va “2013 – 2020 yillarga milliy turizm va dam olishni rivojlantirish bo‘yicha asosiy qoidalar” kabilar hisoblanadi. Ushbu hujjatlarda Xitoyda turizmning barcha turlari xususan ichki, chiquvchi va tashqi turizmlar, tur mahsulot va xizmatlar, turistik industriya kabi qator tushunchalar yoritilgan va batafil tushuntirilgan.

Hozirgi kunda mamlakatning asosiy destinatsiyalariga Pekin, Shanxay, Guanchjou, Sian, Guylin, Xanchjou, Sanya, Lxasu, Chendu, Liszyan, Gonkong va Makaolarni keltirish mumkin.

Xitoyning “Turizm haqida” qonunida turistik destinatsiyalar, ob’ektlargi kirish chipta narxlari, ularni nazorat qilish, oshirilishi jamoat hamda turistlar fikrlaridan kelib chiqqan holda o‘zgartirish qat’iy qilib belgilangan.

Shu bilan qonunda mamlakat imijini ommalashtirish va xorijda harakatlantirish, milliy turistik mahsulotlarni yaratish va xalqaro harakatini ta’minlash hamda sohaga investitsiyalarni jalb etish masalalari ham o‘rin olgan. Shunga muvofiq, Xitoy sohaga 2020-yilda 5.5 trln. yuan investitsiyalar yoki YaIM ning 5% ni ajratgan. Ushbu ko‘rsatkich dinamik o‘sib kelmoqda. Masalan 2013 yilda 2.6 trln. yuanga teng bo‘lgan. Qayd etish kerakki hozirgi vaqtida iqtisodiy rivojlanish jihatidan dunyoda ikkinchi davlat hisobladи. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra 2021-yilda jahon YaIM 96.100 trln. doll. ga teng bo‘lgan bo‘lsa, AQSh ning YaIM 22.996 trln. doll, Xitoy YaIM esa 17.734 trln. doll. ni tashkil etgan⁶².

Tartibga solishning bilvosita usullariga soliq yuklarini maqbullashtirish, shu orqali mutaxassislar tajribasini kuchaytirish, tur operator va agentlar faoliyatini rivojlantirish kabi kompleks masalalar kiradi. Xususan, mamlakatda 2 yilda ko‘p faoliyatga va aylanma vositasi 3 mln yuandan yuqori bo‘lgan kompaniyalarga 500 ming yuan miqdorida subsidiyalar, hamda 5, 4 va 3 yulduzli mehmonxonalarini rivojlantirishga mos ravishda 1 mln, 500 va 100 ming yuan qiymatida sudsidiyalar ajratish belgilangan.

Umuman aytganda Xitoy ulkan hududga ega katta davlat hisoblanadi. Turizmni davlat tomonidan tartibga solish “davlat – provinsiya - shahar” tizimida olib boriladi. Shu bois Xitoyda davlat vazirligi va uning provinsiya va shaharlardagi boshqarma va bo‘limlari tomonidan davlat siyosati olib boriladi.

Osiyo mintaqasida turizm sohasida yetakchi davlatlardan biri Singapur hisoblanadi. Mamlakatga yildan – yilga turistlar oqimlari oshib bormoqda. Singapurda turizmni davlat tomomnidan qo‘llab – quvvatash maqsadida 1964-yil 1-yanvarda “Singapur turizm kengashi” tashkil etiladi. Shunga muvofiq uning tashkiliy – huquqiy shakllari

⁶² World Development Indicators database, World Bank, 1 July 2022.

ham yaratiladi. Va bu haqda qonun qabul qilinadi. Keyinchalik uning asosida 1975-yilda “Sayyohat agentligi” to‘g‘risida qonun qabul qilinadi. Mazkur huquqiy asoslar mamlakatda turizmni tashkil etish, tur kompaniyalarni barpo etish, narxlari va investitsiyalar masalalari ko‘rilgan.

Xususan 1975-yilgi Sayyohlik agentligi qonuni 3 qismdan iborat. Birinchi qismi umumiy bo‘lim bo‘lib, unda turizm va turagentlik haqidagi tushunchalarga sharhlar, turizmda tadirkorlik mazmun mohiyati keltirilgan.

Qonunning ikkinchi bo‘limi tur agentlarning litsenziyalashga bag‘ishlanadi. Qayd etish kerakki, Singapur davlati asoschisi Li Kuan Yu mamlakatni rivojlantirish eng avvalo korrupsiyaga qarshi kurash bilan boshlangan. Uning mashhur gapi “Korruptsiyaga qarshi kurashda uchta yaqin do‘stingni qama” dastur sifatida ommalashgan. Shu borada mamlakatning turli sohalari qonunchilik tizimi korrupsiyadan holi va qonun ustuvorligiga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, mazkur qonun bo‘limida ham tur agentlar litsenziya qoidalariiga qat’iy amal qilishlari belgilangan. Amal qilmagan tur agentlar 25.000 Singapur dollarida jarimaga yoki 2 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga sabab bo‘ladilar.

Bundan tashqari tur agentlarning turistlarga to‘liq ma’lumotlarni berishi ham majburiyati yuklangan. Qonunning uchinchi bo‘limi Asosiy qoidalardan iborat. Unda litsenziyalar bilan bog‘liq qandaydir noto‘g‘ri ishlar amalga oshirilishi 10.000 Singapur dollarida jamiramaga tortilishiga olib kelishi belgilangan. Qonunning muhim jihatni shundaki, turagentlar faoliyati emas balki, noqonuniy hatti harakatlari belgilab berilgan. Shulardan ehtiyyot bo‘lgan holda faoliyatini mustaqil belgilaydi va amalga oshiradi.

2017-yilda Turagentlarni tartibga solish to‘g‘risida qonun qabul qilinadi. Unga muvofiq, litsenziyalarni berish, faoliyatini tugatish, tur agentlarning majburiyatlari, moliyaviy majburiyatlari, hisoblarini yuritish kabi masalalar ko‘rilgan.

Singapurda turizmning barcha turlari rivojlangan. Ayniqsa, turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish huquqiy asoslari yaratilgan. 2018-yilda mamlakat turizmga 6.66 mlrd. doll. investitsiya kiritilgan.

3. Fors ko‘rfazi mintaqasi turizm markazlarining shakllanishi va rivojlanishi

Yaqin Sharq mintaqasiga kiruvchi davlatlar orasida Fors ko'rfazi davtlari iqtisodiy salohiyati evaziga turizmi taraqqiy etgan mintaqasi hisoblanadi. Tabiiy boyliklari va geografik nuqtai nazaridan turizm industriyasi shiddatli rivojlanmoqda. Bunga qator omillar misol qilib olinadi.

1. Tugallanadigan biroq, qayta tiklanuvchi boy energiya resurslari hisobiga byudjet daromadlari to'lib toshadigan mexanizm;
2. Boy va yirik tabiiy – rekreatsion va tarixiy ob'ektlariga egaligi;
3. Ulkan moliyaviy va boshqaruv evaziga turizmninig barcha turlarini rivojlantira olish qobiliyati.


Shu borada mintaqadagi har bir davlat o'zining muhim xususiyatlari va nyuanslariga ega: turistik resurslar, iqlim, yirik hajmli investitsiya imkonii, moddiy – texnik baza va boshqalar mintaqada turizm markazlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi bu esa bevosita turistlar oqimi xususiyatlariga bog'liq. Bundan tashqari mintaqadagi siyosiy vaziyat, an'analar va odatlar turizmda muhim sanaladigan o'ziga xos tur mahsulot yaratish uni ommalashtirish, harakatlantirish va mavqesini ko'tarishga xizmat qiladi.



Qayd etish kerakki, Fors ko'rfazi mintaqasi davtlari jahon iqtisodiyoti manbalarida Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (Middle East and North Africa - MENA) manbalarida shuningdek, Yaqin Sharq (Middle East) manbasida va alohida ravishda Fors ko'rfazi mintaqasi davtlari shaklidagi ma'lumotlarda ifodalanadi. Demak Fors ko'rfazi mintaqasiga oltita davlatlar kiradi. Bular: Saudiya Arabiston, Oman, Kuvayt, Bahrayn, BAA Qatar shular jumlasidandir. Aytish mumkinki, mintaqadagi davlatlarning muhim xususiyati iqtisodiyoti kabi turizmni ham bir rivojlanmaganligi hisoblanadi. Ba'zi davlatlar neft va gaz

daromadlarining katta qismini mamlakatda turizmni rivojlantirishga, turistik infratuzilmalarni barpo etishga, turizm zamonaviy qiyofasini mamlakatda to‘lig‘icha aks ettirishga, detinatsiyalarni ommalashtirish, uni reklama qilishga mamlakatni barcha uchun ochiq bo‘lishiga harakat qilsa, boshqa davlatlar biznes markazlar sifatida namoyon qiladi, uchinchi davlatlar esa tabiiy va rekreatsion obyektlar nuqtai nazaridan turizm narxlarini nisbatan pasaytirishga intilishadi.

Mazkur tendensiyalar mintaqada turizm rivojlanishi va sayyoohlar oqimlari oshishiga xizmat qilmoqda.



6-rasm. Fors ko‘rfazi davlatlarida turistlar tashrifi dinamikasi, mln turist

Manba: World Tourism Organization (UNWTO) Data as collected by UNWTO, February 2019, Arabian Travel Market 2023 ma’lumotlari asosida tuzib chiqildi.

6-rasmida ko‘rinib turibdiki, Fors ko‘rfazi davtlarida turitslar oqimlari dinamikasi turlicha kasb etmoqda. Bu mamlakatlardagi turli


siyosiy vaziyat, mamlakat turizm sohasidagi islohotlar shakllanishi, diniy nomutanosibliklar, chegaralarning yopiqligi kabi qator omillar saba qilib ko'rsatiladi. Biroq mintaqada turistlar oqimlari barqaror davlatlarga Saudiya Arabiston va Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) taalluqqlidir. BAA da turistlar oqimlari dinamik o'sib kelmoqda. Biroq, pandemiya davridan keyingi qayta tiklanish hisobiga amirliklarda ham turistlar soni pasayganini ko'rishimiz mumkin. Qatarda sayyoohlar soni pasayganligini ham ko'rish mumkin. Aynan ushbu tendensiya Fors ko'rfazi davlatlari tomonidan Qatarga nisbatan 2017-yildagi sanksiyalari oqibatlari deyish mumkin.

Fors ko'rfazida turizm strategiyalari mamlakatning neft va gaz sektori daromadlariga tobeligini oldini olish maqsadida iqtisodiyotda diversifikatsiyalash islohotlari natijasi hisoblanadi. Sababi neft va gaz konlari topilishi hamda doimiy ravishda jahon iqisodiyotining yoqilg'iga bo'lgan talabi hisobiga eksport hajmi oshirilishi mamlakatga yuqori darajadagi daromadlar olib kelishga xizmat qildi. Ko'p yillar davom etgan tendensiya iqtisodiyotning boshqa sektorolarini sekinlashtirib, ularni qoloqlashtirib yubordi. Bu esa boshqa sektor rivojlanmasligiga va aholi bandligi ta'minlanmasligiga olib keldi. Natijada zahiralar kamayi sharoitida mamlakat daromadlari pasayib juda katta miqdorda inqirozga olib kelish xavfi sezilib qoldi. Shuning natijasida iqtisodiyotning boshqa sektorlarini ham rivojlantirishni talab etdi. Shu tariqa mintaqada davlatlari turizmni rivojlantirishga katta miqdorda investitsiyalar jalb eta boshladи. Qayd etish kerakki, mintaqada diniy va ziyyarat turizmi juda yashxi rivojlangan. Aynan ushbu yo'naliishlar hisobiga turizmni zamonaviy bosqichlarga ko'tarish imkonini beradi.

Master card tomonidan dunyonning eng kuchli destinatsiyalari top 20 taligi reytingiga ko'ra For ko'rfazidan Dubay va Makka destinatsiyalari o'rni olgan. Unga ko'ra Dubay dstinatsiyasiga 2017-yilda 15.79 mln, 2018-yilda 15.93 mln. turist hamda 2019 yilda turistlar 1.68% ga 16 mln.ga oshganligi, Makka destinatsiyasida 10.53, 10 va 10.6 mlnga o'sganligi qayd etilgan, mos ravishda.

Tunab qoluvchi xalqaro turist daromadlari miqdori bo'yicha Dubay destinatsiyasi jahoning top 20 orasida yetakchi hisoblanadi. Xuddi shuningdek, Makka xalqaro turist daromadi bo'yicha jahonda ikkinchi, 2019-yilda 21.6 ming AQSh dollariga tengni tashkil etgan. Qayd etish kerakki, destinatsiyalarga turistlar tashrifi nafaqat

daromalari bilan balki, har 1000 turistga yaratiladigan ish o‘rinlari bilan ahamiyatlidir. 2019-yilda Dubay amirligiga kelgan har 1000 ta turistga 105.4 ta yangi ish joylari barpo etilgan, bu ko‘rsatkich Makkada har 1000 ta sayyoohga 77.3 ta yangi ish o‘rinini tashkil etgan. Ish joylari yaratilishi bo‘yicha Bali destinatsiyasida yetakchi, har 1000 ta turistga 409 yangi ish o‘rini barpo etilgan.



7-rasm. Fors ko‘rfazidagi yetakchi destinatsiyalar, 2019-y.

Manba: Mastercard Global Destination Cities Index

2019 ma’lumotlari asosida tuzib chiqildi.

Diagrammaga ko‘ra Dubay destinatsiyasi ko‘rsatkichlari Makka destinatsiyasiga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko‘rsatib turibdi. Vaholanki, turizm imkoniyatlari bo‘yicha Saudiya Arabiston BAA ga taqqoslanganda yetarlicha yuqori hisoblanadi. Sababi har yillik va yil davomida diniy ziyyarat va mavsumiy ibodatlar asenosida xalqaro turistlar oqimlarini ancha kuchaytirib olish imkoni mavjud. Ikkinchidan Saudiya Arabiston Qizil dengiz rekreatsiya va kruiz kabi turizm turlarini tashkillashtirish yo‘nalishlariga ega. Biroq, ham hudud va boshqa imkoniyatlarni nuqtai nazaridan BAA turizmda yetakchi hisoblanmoqda.

Demak, jahonda turizm sohasini rivojlantirish uchun barcha segmentlarni qamrab olishga va ularning talablarini qondirishga harakat qilish zarurligi kelib chiqadi. Birgina diniy yoki ziyyarat turizmi

xizmat ko'rsatish sektorini ko'tara olmas ekan. Aksincha zamonaviy turizmning barcha shakllariga e'tibor qaratish turizmdan yuksak darajada foydalanishga olib keladi.

Dubay destinatsiyasida turizm daromadlari yuqoriligiga keladigan bo'lak, 2019-yilda amirlikda xalqaro turist tunan kunlari 3.5 kunni tashkil etadi va 553 AQSh doll.ga teng, Makkada turist tunash o'rtacha kuni 14.9 kun va o'rtacha harajati 135 AQsh doll.ni tashkil etadi. Yuqoridagi fikrga qo'shimcha ravishda turistlar segmentida 25 – 45 yoshlar doirasida sayyoohlarni ko'zda tutish ancha samarali hisoblanadi. Undan tashqari, turizm sohasida chegara bo'lishi turizmni to'la qonli rivojlanmasligiga olib keladi. Saudiyyada zamonaviy turizm deyarli cheklangan, spirtli ichimliklar, hohlagan kiyimlarda sayr qilish taqiqlari mavjud, ovqatanishdagi tartib qoidalar kabi qator kamchiliklar destinatsiya rivojiga to'siq bo'lib turadi. Aksincha Dubay destinatsiyasida barcha yo'nalishlar keng tarqalgan va tez sur'atlarda rivojlanmoqda.

Fors ko'rfazi mintaqasida neft va gaz konlari topilishi va qayta ishlanib eksport qilinishi natijasida katta miqdorda daromadlar keltira boshlangan. Juhon iqtisodiyotida mazkur tendensiya neft dollarlari deb yuritilgan. Shu tariqa mamlakat byudjet tushumlari aynan turizmga bog'lanib asosiy manbasi neft va gaz sanoatini tashkil etardi. Istiqbolda ushbu daromadlarga bog'liqlikni kamaytirish hamda mutsaqil rivojlanishga ega sektorlarni barpo etish mintaqqa davlatlarining asosiy vazifaliga aylanib qoldi. Aytish mumkinki, jahon iqtisodiyotida YaIM aholi jon boshiga yuqori sanaladigan davtlardan biri Qatar hisoblanadi. Aholi jon boshiga 61 ming AQSh dollarini tashkil etadi.

2-jadval


Fors ko'rfazi davtlari iqtisodiy ko'rsatkichlari. 2022-y.

	Mintaqa bo'yicha jami	Saudiya Arabistoni	BAA	Kuvayt	Oman	Qatar	Bahrayn
Aholisi, mln.	53	32	10	4	4	2	1
YaIM, mlrd.doll.	1 373	640	371	110	63	157	32
YaIM aholi jon boshiga, doll.	25.905	20.150	37.678	26.005	15.964	60.787	24.183

Manba: Gulf Cooperation Council 2022. ma'lumotlari asosida tuzib chiqildi.

Minataqada yetakchi turistik markaz Saudiya Arabistoniga hisoblanadi. Mamlakatda Ar – Riyod, Jidda, Makka, Madina, Abha, Dammam, Xobar, Toif, Jubayl, Tabuk, al – Baha, Hayl va Yanbu kadi destinatsiyalar mavjud. 2021-yilda Saudiya turistlar oqimi 16% ga qisqargan va 3.5 mln. turistni tashkil etgan bo‘lsa, harajatlari 14.7 mlrd rialga teng bo‘lgan. Unga nisbatan ichki turizm ijobiy holat yuzaga kelgan. Xususan 2021-yilda ichki sayyoohlар soni 63.8 mln. turistga teng bo‘lgan, uning daromadlari 80.9 mlrd. rialni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda chiquvchi turizm 8.4 mln. turistni, 53.2 mlrd. rialdan iborat bo‘lgan⁶³.

Mamlakat kiruvchi turizmi 2020-yilga nisbatan 2021-yilda turistlar oqimi -16% va daromadlari -27% ga pasaygan. Albatta bunda pandemiya oqibatlari muhim rolni o‘ynagan. 2021-yilda kiruvchi turistlar soni 691 mingtaga o‘sigan. Kiruvchi turistlarning asosiy qismi qarindoshlar va do‘stlarni yo‘qlov maqsadida tashrif buyurishgan – 41%, biznes maqsadida 29%, 9% esa dam olish maqsadida, kiruvchi turistlarning 8% diniy maqsadlarda amalga oshirilgan.



8-rasm. Saudiya Arabistoniga tashrif buyuruvchi turistlarning maqsadlari bo‘yicha taqsimoti, 2021-y.

Manba: Tourism Statistics in Kingdom of Saudi Arabia - 2021 Annual report.


Ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, barcha davtlardagi kabi tendensiya turizmning asosiy qismi qarindoshlarni yo‘qlov turizmiga taalluqlidir. Bu esa dunyoning globallashib, integratsiyalashib ketganli-

⁶³ Tourism Statistics in Kingdom of Saudi Arabia - 2021 Annual report.

gidan dalolat beradi. Shu bilan birga biznes maqsadlari ham ommaviy tendensiya hisoblanadi. Keyingi yetakchi maqsad albatta, dam olish hisoblanadi. Ziyorat turizmi hatto oxirgi o'rindagi maqsadlarni aks ettirib turibdi. Mamlakatimizda ham yo'qlov turizmi yetakchi ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqadigan bo'lsa, turizm bozorini shu yo'naliishlarga to'g'irlash maqsadga muvofiq. Osiyoda turizm xususiyatlari ham shundan iboratdir.

Pandemiya jahon turizm sohasida ichki turizmn ni rivojlantirish asosiy majburiyatlardan ekanligini isbotlab berdi. Sababi, qulay va yengilligi bilan ajralib turadi. Fors ko'zfazida ham shu kabi tendensiya kuzatiladi. Saudiya ga 2021-yilda kelgan turistlarning katta qismi Fors ko'rfazidan hisoblanadi (37%). Keyingi mintaqqa Yaqin Sharq 26%, Osiyo 21%, Afrika 6%, Yevropa 5%, Amerika 2% larni tashkil etadi.

Mamlakatga 2020-yilda tashrif buyuruvchilarning ko'p qismi Makkaga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 84% qis-qargan. 2021-yilda kiruvchi turistlar oqimlari Ar – Riyodga kelishgan 1.18 mln. turist.



9-rasm. Destinatsiyalarga tashrif buyuruvchi turistlar dinamikasi, mln turist
Manba: Tourism Statistics in Kingdom of Saudi Arabia - 2021 Annual report.


Kiruvchi turistlar daromadlari 2021-yilda 14.7 mlrd rial deb baholanmoqda. Qayd etish kerakki, tashrif buyuruvchi turistlarning joylashtiruv vositalari bo'yicha taqsimotiga keladigan bo'lsak, keluv-chilarning 44% mehmonxonalarga, 38% mehmon uylarga, 17% apartamentlarga va 1% boshqa tunash vositalariga to'g'ri keladi. Mazkur tendensiya ham jahonda kuzatiladigan vaziyat hisoblanadi. Masalan Fransiyada mehmonxonalarga nisbatan mehmon uylar ya'ni aholi tomonidan tashkil etilgan joylashtirish vositalari ko'pdir. Maml-

katimizda ham istiqbolda mehmon uylarni tashkil etishni Yevropa standartlariga muvofiqlashtirishga e'tibor qaratish lozim.

Xalqaro turizmni harakatlantiruvchi asosiy kuch ichki turizm hisoblanadi. Sababi, kiruvchi turizm tashqi bozor kon'yunkturalariga o'ta sezuvchan hisoblanadi. Bunga turli omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Biroq ichki turizm hatto pandemiya sharoitida ham byudjetga yetarlicha daromadlar keltiradi. Shu sababli mamlakatimizda ham ichki turizm uchun eng avvalo transport infratuzilmalarni rivojlantirish talab etiladi.

Xuddi shuningdek, Saudiya Arabistonida 2019-yilda ichki turistlar oqimi 34% dan 2020-yilda 52% ga o'sgan bo'lsa, daromadlari 2019-yilda 32% dan 2020-yilga 87% ga oshgan. 2021-yilda mamlakat ichki turistlar oqimlari 63.8 mln. turistni tashkil etgan. Ular touristik maqsadlarining asosiy qismi dam olish, shopping va sport maqsadlari 49%, qarindoshlarni yo'qlov 33%, haj, umra va ziyorat 12%, biznes 3% va boshqalar 2% ni tashkil etgan.

Saudiya Arabistonni ichki turizmidagi asosiy destinatsiyalar Makka hisoblanib, 2021-yilda ichki turistlar oqimlarining 13.5 mln. ni 21% to'g'ri kelgan. Keyingi mashhur destinatsiya Ar – Riyod 14%, Madina 13% qolganlari sharqiy destinatsiyalarga taalluqlidir.




10-rasm. Saudiya Arabistonni turizm markazlarida ichki turistlar oqimlari, mln turist, 2021-y.

Manba: Tourism Statistics in Kingdom of Saudi Arabia - 2021 Annual report.

Ichki turistlarning 36% mehmon uylarda, 35% apartamentlarda, 26% mehmonxonalarda va 3% boshqa joylashtiruv vositalarida tunashadi.

Saudiyada 2020-yilda 8.4 mln. turistlar chiquvchi turistlar sifatida qayd etilgan. Shuni 3.3 mln. turistlar Saudiya rezidentlari, 5.1 mln. ni norezidentlarni tashkil etadi. Chiquvchi norezident turistlarning katta qismi 82% qarindoshlarni yo‘qlash, 71% biznes maqsadlarida bo‘lsa, rezidentlarning 76% dam olish bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish turizmini tashkil etadi. Chiquvchi turistlarning 55% mehmon uylarda, 33% mehmonxonalarda, 10% apartamentlarda va qolgan 2% boshqa joylashtirish vositalarida to‘xtashadi.




**11-rasm. Saudiya Arabistonida chiquvxhi turizm geografiyasi,
mln turist, 2021-y.**

Manba: Tourism Statistics in Kingdom of Saudi Arabia - 2021 Annual report.

Birlashgan Arab Amirliklari Fors ko‘rfazi mintaqasida turizm sanoatini rivojlantirishni birinchi bo‘lib boshlagan davlat hisoblanadi. Neft daromadlarini turistik infratuzilmalarga ulkan miqdorda yo‘naltilishi hamda zamonaviy turizm qiyofasini yaratishga bo‘lgan harakatlari natijasida nafaqat mintaqada balki, jahon turizm bozorida muhim o‘ringa ega sanaladi. Ayniqsa Dubay zamonaviy turizm olamini o‘zida aks ettira oldi. Jahonning barcha turistlar segmentini o‘zida qamrab olishga imkon yaratdi. Turli shoular, ko‘rgazmalar, osmono‘par binolar, jahon turistlar oqimini hayratga sola oladigan darajadagi

o‘zgarishlar, oddiy qishloq manzaralarini tanib bo‘lmas darajada o‘zgartirib yuborishi jami amirlik turizm imiji jahonda o‘ziga xos o‘ringa chiqib oldi.




Amirlik turizm markazlari, destinasiyalar.

Turizm tashkiloti UNWTO ma’lumotlariga ko‘ra BAA da turistlar oqimlari yildan yilga 1 mln. turistga oshib borishi qayd etilgan. 2010 yilda mamlakatda jami turistlar soni 12.4 mln. turistni tashkil etgan bo‘lsa 2019-yilda qariyb ikki barobarga o‘sib 24.3 mln. turistga teng bo‘lgan.


Amirlikda turizmning o‘ziga xos xususiyati ichki turizm emas balki, xalqaro turizm salmog‘i yuqoriligi bilan ifodalanadi. Tanishib o‘tgan barcha mamlakatlarda ichki turizm ulushi xalqaro turizm hissasiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichda bo‘lgan. Buni qator Yevropa davtlarida, Saudiyyada va O‘zbekistonda ham kuzatish mumkin (Mavzularni qaytadan o‘rganib batafsil tanishib chiqing.). Biroq Amirlikda buning aksini kuzatish mumkin. 2019-yilda mamlakatda jami turistlar soni 24.3 mln.ni tashkil etgan bo‘lsa, shuning 21.6 mln. xalqaro turistlar, 2.8 mln. ichki turizmga to‘g‘ri keladi. xalqaro turistlar jami turistlarning 88.8% ga teng. 2020-yilda mamlakatda turistlar soni 9.5 mln. ni tashkil etgan bo‘lsa, shundan xalqaro turistlar ulushi 83.1% ga teng bo‘lgan. Buni har bir aholiga bitta turist to‘g‘ri kelganligi bilan izohlasak, 2019-yilda bu ko‘rsatkich har bir amirlik aholisiga 2.1 turist to‘g‘ri kelishi bilan izohlanadi. Shuning hisobiga ham xalqaro turistlar

oqimlari mazkur mamlakatda yuqori ulushga ega. Ikkinchidan xalqaro turistlarning katta qismi Dubay destinatsiyasiga tashrif buyurishadi. Dubay turizm markazi jahon turizm markazlarini o‘zida jamlashga harakat qilishi natijasida juda qulay iqlim yarata olganligi bilan ta’riflash mumkin. Yana bir sababi havo transporti jahon ahamiyatiga ega hisoblanadi. Ba’si bir reytinglar indekslari bo‘yicha Amirlik havo yo‘llari bir necha yillar davomida jahonda yetakchi avia kompaniya sifatida e’tirof etiladi.



12-rasm. BAAda turistlar soni dinamikasi, mln turist

Manba: Driving the Tourism Recovery in the United Arab Emirates. Tourism Economics. An Oxford Economic Company.



13-rasm. Turizmning BAA iqtisodiyoti va badlikka ta’siri

Manba: Tourism Economic. WTTC.

Turizmning amirlik iqtisodiyotida ahamiyati juda katta . 2019-yilda mamlakat YaIM ga ta'siri hajmi 49.8 mlrd. doll. deb baholangan. Undan tashqari, ish joylari bilan ta'minlash masalasida ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasida yaratilgan ish joylari bevosita bandlikka ta'siri sifatida ifodalansa, bandlikka bilvosita ta'siri turistik infratuzilmalardagi yaratilgan ish o'rinnari hisoblanadi. BAA turizm sektorining mamlakat bandlikka to'g'ridan – to'g'ri va bilvosita ta'siri o'rtasidagi farqi derli bir xil tendensiyaga ega.

BAA top destinatsiyalar sifatida barcha amirliklarni keltirish mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2016-yilda Abu Dabi destinatsiyasiga 4.440 mln. turistlar, Dubay destinatsiyasiga 14.9 mln., 2019-yilda 17.5 mln., pandemiya ta'sirida bir oz pasayish kuzatilishiga qaramay 2021-yilda 12.4 mln. turistlar, Sharja destinatsiyasiga 1.8 mln. turist oldingi yilga nisbatan 17% oshgan, 2018-yilda Ras al Haymaga milliondan ortiq turistlar tashrif buyurishgan. Mamlakat destinatsiyalari orasida Dubay turizm markazi nafaqat BAA da balki, jahonda ham yetakchi hisoblanadi.

3-jadval

Dubay destinatsiyasiga tashrif buyurgan turistlar soni dinamikasi

	2013	2016	2018	2019	2020	2021
Tashrif buyuruvchilar, mln.	11	14.4	16.2	17.5	8.8	12.4
Xalqaro, % da	81	79	77	76	48	47
Ichki turistlar, % da	19	21	23	24	52	53

Manba: Dubai's Department Of Economy And Tourism. Annual Visitor Report 2021.

VII BOB. TURKIYADA TURIZM RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1. Turkiyada turizm salohiyati

Turizm sohasi dunyoda yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda 1,5 millird nafar xalqaro turistlar ro'yxatdan o'tgan. 2022-yilga kelib esa, pandemiya asoratlari ta'sirida dunyo bo'ylab xalqaro turistlar soni taxminan 1 milliard kishini tashkil qildi⁶⁴.

Turizm sohasi ba'zi mamlakatlarning iqtisodiyoti va inson resurslarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday mamlakatlar qatoriga Turkiya Respublikasini misol qilish mumkin. Turkiya Respublikasi zamonaviy xalqaro turizm industriyasida o'z o'rniga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi. Turizm sohasi mamlakatda barqaror ravishda rivojlanib kelayotgan tarmoqlardan biri deb tan olinadi. Mamlakatdagi o'ziga xos bo'lgan tarixiy yodgorliklar, go'zal sohillar, qulay iqlim sharoitlari va geografik joylashuv mamlakatning yirik hajmdagi rekreatsion resurslarga ega ekanligidan va o'z navbatida Turkiyani turizmni rivojlantirish salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlardan biri ekanligidan dalolat beradi. 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, Turkiya Respublikasi xalqaro turistlarni qabul qilish bo'yicha dunyoda 4-o'rinda turadi⁶⁵. Har yili taxminan 110 mamlakatdan 40 million nafar turistlar Turkiya Respublikasiga tashrif buyuradi⁶⁶.

Turkiyada turizm rivojlanishining tabiiy-obyektiv omillariga:

- Geografik qulayligi;
- Iqlim qulayligi;
- Mamlakat hududidagi mintaqalarning o'ziga xos hususiyatlari;
- Turkiyada tarixiy joylarning ko'pligi;
- Turkiyada dunyoning yetti mo'jizasidan ikkitasi joylashganligi;

⁶⁴ Number of international tourist arrivals worldwide from 1950 to 2022(in millions)//
<https://www.statista.com/statistics/209334/total-number-of-international-tourist-arrivals/#:~:text=The%20number%20of%20international%20tourist,approximately%20969%20million%20in%202022>.

⁶⁵ World Tourism rankings//https://en.wikipedia.org/wiki/World_Tourism_rankings

⁶⁶ А.К.Аккалаева. Особенности индустрии туризма в Турецкой Республике//Journal of economy and business, vol.11-1(69), 2020. C.13.

- Dengiz turizmining rivojlanganligi;

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga:

- Sayyohlikni rivojlantirish uchun turizmning yangi turlarini rivojlanayotganligi;
- Iqtisodiy islohotlarning jadallashtirilganligi;
- Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan yaqindan savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlantirilayotganligi;
- Turimzda samarali marketing faoliyati;
- “All inclusive” tizimidan keng foydalanishi;
- Turistik xizmatlar bozorining davlat tomonidan faol qo’llab-quvvatlanishi;

Turkiyada turizm rivojlanishining tabiiy-obyektiv omillari. Turkiya Respublikasi Yaqin va O’rta Sharq hamda Kavkazorti mintaqalari kesishmasida joylashganligi bilan muhim strategik ahamiyatga ega. Mamlakat hududi 783 577 kvadrat kilometrga teng bo‘lib, uning 97%i Osiyo va 3%i Yevropa mintaqasida joylashgan. Mamlakat hududi to‘rt tarafdan Egey, Marmar, O’rta yer va Qora dengizlar bilan yuvilib turadi. Mamlakat xududidagi qirg‘oq sohillarining uzunligi 7200 kilometrni tashkil etadi.

Turkiya qadimdanoq Yevropa bilan Osiyon, Qora dengiz mamlakatlari va xalqlarini, O’rta yer dengizi mamlakatlari va xalqlari bilan bog‘lab turuvchi muhim bir chorrahada, nuqtada joylashganligidir. Go‘yoki butun dunyo bilan qo‘schnichilik qila olish imkoniyatlariga ega bo‘lgan bu o‘lka tarixda migratsiya va savdo yo‘llari markazi bo‘lganini, bu omil esa, bevosita mamlakatning qulay iqtisodiy geografik hududda joylashganligining yaqqol namunasi ekanini, hozirda esa Turkiya hududida yotqizilgan avto magistral va temir yo‘llar Yevropani Osiyoning bir qancha mamlakatlari bilan bog‘lash uchun xizmat qilayotganini alohida takidlash joizdir. Mamlakat shimoli g‘arbda Bolgariya va Gresiya bilan, sharqda Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon va Eron bilan, janubda esa, Suriya va Iroq bilan chegeradosh. Mamlakat hududida 60 ta neft va 7 ta gaz manbalari mavjud bo‘lib, mamlakat hududida 53 ga yaqin qazilma boyliklari mavjud. Turkiyada dunyodagi simob zahirasining 25 %i joylashgan.

Turkiya Respublikasining Yevropa va Osiyo qismini Qora dengizdan Egey dengiziga o‘tuvchi, shuningdek o‘zida Marmar dengizi, hamda Bosfor va Dardanell bo‘g‘ozlarini mujassamlashtirgan suv yo‘li ajratib turadi. Aynan Bosfor va Marmar dengizining janubiy

qismida dunyoning eng go‘zal va Turkiyaning eng katta shaharlaridan biri-qadimda Konstantinopol hozirda esa, Istanbul nomi bilan mashxur bo‘lgan shahar joylashgan.

Turizm sohasi rivojlanishining muhim omillaridan biri bu - mamlakatdagi tog‘larni mavjudligi hisoblanadi. Geofizik tuzilishini hisobga olganda, Turkiya turli xil ko‘rinish va yoshdagi relefarga ega bo‘lib, yuqori tog‘li, uning o‘rtacha balandligi 1132 m. ni tashkil qiladi. Mamlakatning katta hududini Kichik Osiyo va Arman tog‘liklari egallagan. Mamlakatning eng yuqori cho‘qqisi bu – 5137 metrlik Katta Ararat tog‘idir. Turkiya Respublikasining markaziy qismida Anatoliya yassitog‘liklari, janubda Tavr tizmalari, shimolda esa Pontiy tog‘lari joylashgan. Turkiyada sohil xududidagi unumdon tekisliklardan tortib, uning markazidagi tog‘ platolarigacha turli xil landshaftlarning mavjudligi, mamlakatda tog‘-chang‘i, ekstremal va eko turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatning tabiiy iqlimiga keladigan bo‘lsak, u ham turistlar uchun juda jozibadordir. Uning geografik joylashuviga ko‘ra hududiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Mamlakatda bir vaqtning o‘zida to‘rt fasl va turli xil iqlimni kuzatish mumkin. Yozda o‘ta quruq iqlimga ega bo‘lgan O‘rtayer dengizi iqlimi bevosita mamlakatning umumiyligi iqlimiga ta’sir etadi. Mamlakat mintaqalari o‘rtasidagi iqlimi farq yani tafovutni ularning qanchalik dengiz hududiga yaqin joylashganligi va tog‘ tizmalari qoyalarining mavjudligi bilan izohlanadi. Bu esa mamlakat yil davomida turistlar uchun jozibadorligini oshiradi.

Turkiyaning O‘rtal yer dengizi sohillarida iqlim subtropik xususiyatga ega bo‘lib, bu yerda yoz faslida quruq issiq, qishda esa yomg‘irli iliq ob-havo hukm suradi. Ob-havo asosan dekabrdan fevral oralig‘igacha salqin bo‘ladi. Bu paytda tungi harorat +6, +8 darajani, kunduzgi harorat esa +14, +16 darajani tashkil qiladi. Issiq iyun oyidan to sentabr oyiga qadar davom yetadi. Bu davrda havo harorati kechasi +19, +22, darajaga, kunduzi esa +30, +34 darajaga yetadi. Nafaqat kunduzi, balki kechqurun ham qulay ob-havo sharoiti mamlakatda tungi turizmni rivojlanishi uchun muhim imkoniyat beradi. Dekabr va yanvar oylarida juda ko‘p yomg‘ir yog‘ishi va butun oy davomida 12-14 kun yomg‘irli kunlardan iborat bo‘lib, boshqa mamlakatlardan farqli ravishda Turkiyaga keluvchi turistlar uchun juda qulay hisoblanadi.

Mamlakatning markaziy qismlarida iqlim kontinental xususiyatga ega bo‘lib, bu yerkarda quruq va issiq yoz fasli, hamda sovuq qish fasli

xosdir. Qishda havo harorati 0-4 darajani, kunduzi esa +1 +6 darajani tashkil qiladi. Shuning uchun ham bu hudud sohil turizmi uchun qulay hisoblanadi. Mana shunday qulay iqlim sharoitlari, ayniqsa, mamlakatning turli burchaklarida bir paytning o‘zida to‘rtta faslning hukm surishi ham Turkiyada yil davomida turizmning rivojlanishi uchun muhim qulay shart-sharoitlar yaratdi.

Iqlim qulayliklaridan tashqari turizm rivojlanishining yana bir asosiy sabablaridan biri bu turk oshxonasidir. Mehmonxona mutaxassislarining malumotlarga ko‘ra, dunyoning eng boy oshxonalari turk, fransuz va xitoy oshxonalaridir. Ovqat va ichimliklar manbalarining ko‘pligi va turli-tumanliligi, mamlakat turizmining ajralmas qismi bo‘lgan turk oshxonasining boyligining asosiy sabablaridan biridir. Shu bilan birga uzoq yillardan beri turli millatlar bilan birlashtirishda yashab kelganliklari, ovqat va ichimlik turlarining bir birlari bilan almashib, boyitib borganliklari ham turk oshxonasi boyishining bir sabablaridan biridir. Ayniqsa, Saljuqiyolar va Usmoniyolar saroylari turk oshxonasining boyishida muhim rol o‘ynagan. Turkiyaning turli hududlarida yuzdan ortiq taom turlari tayyorlanadi va bular hudud va illarga (viloyat) ko‘ra pishirish usullari va turlariga ko‘ra bir-biridan tubdan farq qiladi.

Shu o‘rinda mamlakat hududidagi mintaqalarning o‘ziga xos hususiyatlari turistlarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu borada ham mamlakatdagi mintaqalar o‘ziga xos hususiyatlariga ko‘ra quyidagi muhim turistik markazlariga bo‘linadi:

Qoradengiz mintaqasi: Mintaqada tog‘larning ko‘pligi va ularning dengiz qirg‘og‘iga parallel ravishda joylashgani biroz noqulayligi tufayli sohillar ancha kam. Bu mintaqada yoz boshqa mintaqalarga nisbatan qisqaroq davom etadi. Qoradengiz mintaqasida daryolardagi oqimning tez bo‘lgani uchun so‘nggi yillarda rafting sporti rivojlanmoqda. Bunga misol sifatida Choruh daryosini aytishimiz mumkin. Mintaqadagi turistik markazlar: Trabzondagi Sumala manastiri, Ayvasil cherkovi, Hazrati Yahyo Manayetiri, Sulton Boyazid Kulliyosi, Amasya qal‘asi.

Marmara mintaqasi: Turkiya- muhim transport yo‘llarida joylashganligi, iqlim imkoniyatlarining yaxshiligi, Istanbulning shu mintaqada joylashganligi va qadimdan odamlar yashab kelayotganligi sababdan Marmara mintaqasida turizm markazlari juda ko‘p. Mintaqada turizmdan eng ko‘p daromad oladigan mintaqadir. Tarixiy yodgorliklar

bo‘lishi Bursadagi Ulujomi, Yashil Maqbara, Iznikdagi Yashiljomni, Qaplijalar, Edirnedagi Selimiya jomisi, Rustampasha Karvonsaroyi, Saraya Hammomi va Chanaqqaledagi Troya xarobalari shular jumlasidandir. U uzoq yillar davomida Troya Yunon mifologiyasining mahsuli deb hisoblanib kelindi. Biroq, 1870-yillardan keyingina uning qoldiqlari topildi. Hozirda Troya xarobalari Turkiyaning G‘arbida joylashgan va eng ko‘p turist ziyorat qiladigan madaniy turizm markazlardan biri hisoblanadi. Istanbul shahri Turkiyaning shimoliy-g‘arbida joylashgan shahar bo‘lib, u yerda tarixiy yodgorliklar, xususan Topqapi saroyi, Ayasofiya muzeyi, Dolmabahche saroyi, Qiz qal’asi, Anitqabir, Qapali Charsi kabilari mavjud.

Egey mintaqasi: Ko‘plab ko‘rfazlarga ega bo‘lgan Egey mintaqasi qadimdan odamlar yashab kelgan hududlardan biri hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklarning ko‘pligi tufayli bu mintaqada turizm yuqori darajada rivojlangan. Qulay iqlim sharoitlari tufayli dengiz turizmi ham ancha rivojlangan bo‘lib, turizm davri yetti-sakkiz oy davom yetadi. Bu mintaqadagi turistik markazlarga Izmirdagi Maryam Ona Cherkovi, Efes va Bergama antik teatrlari, Agora, Akropolis kabi bir qancha markazlarni misol qilishimiz mumkin.

O‘rtayer dengizi mintaqasi. Yoz oylarining issiqligi, sohillarning ko‘p ekanligi, issiq haroratning uzoq davom etishi tufayli Turkiyada dengiz turizmining eng uzoq davom etadigan mintaqasi O‘rtayer dengizi mintaqasidir. Mintaqada qish oylarida ham dengizda cho‘milish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari Antaliyada Toros tog‘larining baland ekanligidan bir paytning o‘zida ham dengizda cho‘milish, ham chang‘i sporti bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini beradi. Mintaqadaning deyarli barcha viloyatlarida juda ko‘p muhim tarixiy yodgorliklar mavjud. Mintaqadagi Antaliya shahri eng katta turistik va savdo markazi hisoblanadi. Shuningdek, Ispartadagi Egirdir ko‘li, Burdurдagi Hajilar harobalari, antik Sagalasos shahri, Mersindagi o‘rta asrlardan qolgan Anamur qalasining qoldiqlari, Jannat va Jahannam g‘orlari, Qiz qal’asi kabilarni eng ko‘p turistlarni jalb qiladigan markazlar deyish mumkin.

Markaziy Anatoliya mintaqasi. Mintaqaga bugungi kunda Turkiyaning siyosiy markazi bo‘lgani uchun, boshqa mintaqalarga nisbatan bu yerda turizm unchalik kuchli rivojlanmagan. Shunga qaramay bu mintaqada Anqaradagi Anitqabrn, Anqara qalasini, Anatoliya Madaniyati Muzeyini, Polatli yaqinidagi qadimgi Frigiya

davlatining poytaxti hisoblangan Gardion shahrini, Konyadagi Mavlono Jaloliddin Rumiy Maqbarasini, Nasriddin Hoja Maqbarasini va Kopadokiya kabi turistik markazlarini misol qilishimiz mumkin.

Sharqiy Anatoliya mintaqasi. Mazkur mintaqada qish oylarining uzoq davom etishi va qorning ko‘p yog‘ishi tufayli turizm qizg‘in emas edi, ammo so‘nggi yillarda asta-sekinlik bilan mintaqada tog‘ turizmi faollashmoqda. Mintaqadagi turistik markazlarga Numrut tog‘i, Ani xarobalari, Ishak Pasha saroyi, Ag‘ri tog‘i, Van ko‘li, Yaqutiya Madrasasi, Erzurum Aziziya yodgorligi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Janubi-sharqiy Anatoliya mintaqasi. Anatoliyadagi odamlarning ilk o‘troqlashgan hududi sanaladi. Mintaqadagi turistik yodgorliklarga Malabadi ko‘prigi, Asur mozorlari, Adiyaman Jendere ko‘prigi, Mardin uylari, Baliqli ko‘l kabilarni kiritishimiz mumkin.

Usmoniyalar imperiyasi davrida Turkiyada turizm harakatlari boshqa din vakillarining ayniqsa, tarixiy va antikvar kontrabandistlarining turli xil maqsadlari tufayli mamlakatga kirishlari chegaralangan edi. 18 asrdan boshlab boshqa davlatlarga sayohatga chiqishni boshlagan boy va aslzoda inglizlarning eng ko‘p sayohat uyshtirgan shaharlari ichida Istanbul ham bor yedi. 1883-yilda Yevropaning ilk qit’alararo ekspress poyezdi “Sharq Ekspressi” o‘z safarini boshladi. Bu poyezd Parijdan yo‘lga chiqib, turli xil Yevropa davlatlarining bir qancha shaharlarida to‘xtab, oxiri Istanbulga kelgan. “Sharq ekspress”ining yaratuvchisi Vagon Lits shirkati 1892-yilda Istanbulda ochilgan birinchi xalqaro “Pera Palas” mehmonxonasining asosiy sheriklaridan biri edi. Shu va boshqa shirkatlar Turkiyada turizmning asta-sekin rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Inglizlarning xorijiy mamlakatlarda amalga oshirayotgan sayohatlari tufayli o‘scha yerlarda Bristol va Kent kabi mehmonxonalar yoki ko‘chalar paydo bo‘la boshladi. XIX asrda Istanbulda ochilgan ilk mehmonxona Bristol Oteli edi.

Mamlakatda Antaliya va Istambul asosiy xorijiy turistlarni qabul qiluvchi shaharlar hisoblanadi, ulardan keyin esa Mugla, Edirne, Izmir, Aydin va Anqara turadi. Antaliya kurortlari bir necha bor eng yaxshilaridan biri deb tan olingan, shuning uchun Turkiyadagi dam olish butun Yevropada juda qadrlanadi. Istanbul Turkiyaning eng katta shahri bo‘lishi bilan birga, Vizantiya va Usmoniyalar kabi davlatlarga poytaxtlik qilgan davrlardan qolgan ko‘plab yodgorliklarga ega. Jumladan, Sulton Ahmad masjidi, Ayasofiya, Topkapi saroyi,

Dolmabahche saroyi, Galatasaroy, Grand bozori kabilarni kiritishimiz mumkin.

Turkiya hududida qadimgi duyoning yetti mo‘jizasidan ikkkitasi, ya‘ni Bodrumdagi Galikarnas maqbarasi va Seljukdagi Efess Artemida ibodatxonasi joylashgan. Mamlakatning g‘arbiy sohillari bo‘yi hududlari esa, qadimgi rim va qadimgi yunon madaniyatining ildizlari bor ekanligini namoyon etadi. Mazkur hududdagi hammaga ma’lum va mashhur Efes, Troya va Konstantinopol shaharlari bugungi kunning yorqin turistik obyektlaridan hisoblanadi.

Turkiyaning geografik holati va sohillarining qulayligi tufayli qayiqchilikning rivojlanishi uchun yetaricha mos mamlakat hisoblanadi. O‘rtayer dengizi, Egey, Qora va Marmara dengizlari, qayiqchilarga har kun har xil suvlarga va ko‘rfazlarga langar tashlash imkoniyatini beradi..

Turkiyada turizm rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari.

Sayohat va turizm Turkiyaning eng dinamik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi R.Moorning ta’kidlashicha, davlatning resurslari turizmdan olingan daromadlarni tartibga solish imkonini beradi, bu esa maqsadli mijozlar uchun turizmni rag‘batlantirish bo‘yicha marketing strategiyasini ishlab chiqish kerakligini anglatadi. Dam olish va tarixiy joylarning kombinatsiyasi Turkiyani davlat ichida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun ishlatalishi kerak bo‘lgan juda jozibali sayyohlik manziliga aylantiradi⁶⁷.

Turkiya Respublikasi turizm industriyasini rivojlanishining yorqin misollaridan biri bo‘lib, bu borada mazkur sohaga kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar qisqa muddat ichida mamlakatda turizmning turli hil turlari va ko‘rinishlarining ommalashuviga turki berdi. Bugungi kunda mamlakatdagi turizm sohasidagi trasnport, ovqatlanish, joylashtirish va ko‘ngil ochish kabi turizmning turli xizmatlari turli daraja va ehtiyojga ega bo‘lgan turistlarning talablariga mos kelmoqda. Mexmonxona fondlarining kengayishi hamda turli xil turistik mrakazlar va obektlarni bog‘lash imkonini beruvchi yangi temir yo‘llar, dengiz portlari va aeroportlarni qurilishi turizm infratuzilmasini takomillashtirilishidan darak beradi.

⁶⁷Tourism Industry Rising in Importance in Turkey. Article. 2011. <https://www.tourism-review.com/travel-tourism-magazine-turkey-tourism-industry-developing-fast-article1519>

Turkiya, O'rtayer dengizi va Egey viloyatlaridagi umumiy vaziyatga nazar tashlasak, Kappadokiya va Istanbulda ichki va tashqi bozorlar nuqtai nazaridan brendlarga aylangan yo'nalishlar borligi aytilgan. Infrastrukturaviy investitsiyalarning o'sha hududlarda nisbatan erta bosqichda amalga oshirilganligi markali xorijiy turizm korxonalarining u yerda faol bo'lishiga imkon yaratdi⁶⁸.

Tabiiyki, sohil turizmi mamlakatning asosiy va yetakchi turizm turlaridan biri bo'lib, u bu yo'nalishda tashrif buyuruvchi turistlar soni bo'yicha dunyoda yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olgan. Mamlakatda so'nggi yillarda turizmning yangi va zamonaviy turlarini rivojlantiribgina qolmasdan, balki yangidan-yangi turistik xizmatlar xilma-xilligini ta'minlashga intilmoqda.

Turkiya turizm rivojlanishi bo'yicha Yaqin va O'rta sharq mintaqasida taraqqiy etgan infratuzilmaga va juda takomillashgan marketing strategiyasiga ega. Mamlakatda katta e'tibor qaratilayotgan marketing faoliyati Turkiyada ming yillar davomida mavjud bo'lgan boy madaniy va san'at merosini ta'kidlab, mamlakatning o'ziga xos qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Madaniyat va turizm vazirligi asosiy e'tiborni talab va taklifga qaratib, meros ob'ektlarini asrab-avaylashga ustuvor ahamiyat berib, mamlakat imidji va idrokini oshirish hamda butun dunyo bo'ylab brend qadriyatlarini mustahkamlash orqali bozor ulushini oshirishga kirishdi. Ushbu ikki tomonlama e'tibor so'nggi ikki yil ichida har bir yil uchun mavzuni qabul qilish orqali 2018-yil "Troya yili" va 2019-yil "Göbeklitepe yili" deb e'lon qilindi. "Yillar" turkumi ana shunday madaniy, badiiy va turistik qadriyatlarni targ'ib qilish va bu qadriyatlarni haqida xabardorlikni shakllantirish orqali mamlakat imidji va idrokini oshirish, uning xalqaro brendini mustahkamlashga qaratilgandir.

Bizga ma'lumki, Turkiyada dam olishning o'ziga xos xususiyati shubhasiz, bu uning mehmonxonalarini hududida joylashgan barcha qulaylik va ko'ngil ochar xizmatlarini hamda mexmonxona hududidagi barcha bepul xizmatlarni taqdim etuvchi va mamlakatning tashrifi qog'oziga" bo'lmish, yuqori darajada rivojlangan All inclusive xizmatlaridir. Aynan mazkur tizim 1990-yillarda mamlakatda turizm

⁶⁸ Kazım Ozan Özer et al. / Procedia - Social and Behavioral Sciences 58 (2012) 1064 – 1076
8th International Strategic Management Conference . International Competitive Advantage of Turkish Tourism Industry: A Comperative Analyse of Turkey and Spain By Using The Diamond Model of M. Porter . Sakarya University, Turke

bumining boshlanishiga turtki berdi va bugungi kunda mamlakatda 80% ga yaqin mexmonxonalar aynan All inclusive tizimi asosida xizmat ko‘rsatishga erishgan.

Shuningdek, mamlakatning xalqaro turistik xizmatlar bozoridagi muvaffaqiyatida shubhasiz davlatning mazkur sohani qo‘llab quvvatlashi va faol reklama kampaniyalarining roli katta. Hukumat tomonidan byudjet subsidiyalari, soliq ta’tillari, turizm industriyasini imtiyozli kreditlashtirish orqali turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyati qo‘llab quvvatlab kelinmoqda.

Turkiya madaniyat va turizm vazirligi “Turk turistik sektoriga yangicha nigoh” loyihasi miqyosida yangi informatsion strategiyalarni qo‘llamoqda. Turli xil turistik xizmatlardan tashqari mamlakatni unikal tabiat va turistik imkoniyatlarga, boy madaniy qadriyatlarga ega bo‘lgan geografik qulay o‘rta yer dengizi mamlakati sifatida tanitish bu yo‘nalishdagi turizm reklamasidagi eng birinchi strategiyalardan hisoblanadi. Turli xil turistik mahsulot va xizmatlar deganda mamlakatdagi madaniy turizm, shahar transporti va sport transporti kabi sohalarning rivojlanganligi nazarda tutiladi.

2018-yilda Turkiya ijtimoiy tarmoqlarda turizmni reklama qilish bo‘yicha TOP-5 mamlakatlar ichiga kirdi. Turkiya sayyoqlik mahsuloti yoki xizmatlarini sotib olayotganda raqamli marketingni sotish va sotib olish nuqtai nazaridan o‘rganilganda, birinchi navbatda smartfon va Internetdan foydalanishni hisobga olish kerak. 2019-yil holatiga ko‘ra, Turkiyada smartfon foydalanuvchilari soni qariyb 54 millionni tashkil yetdi, bu 2021-yilga kelib 76,89 million darajaga yetdi. 2021-yil yanvar oyida Turkiyadagi mobil aloqalar soni umumiy aholining 90,8 foiziga teng edi. Shuningdek, sayyoqlik mahsuloti yoki xizmatlarini iste‘molchilar xarid qilishdan avval amalga oshirgan onlayn qidiruvlarning 80% smartfonlar yordamida amalga oshirilgani ma‘lum. Shunga qaramay, 2020-yilgi ma‘lumotlar onlayn-do‘konlarning 34,1 % ulushini ko‘rsatadi. Ushbu onlayn xaridlar guruhining ikkinchi eng ko‘p afzal qilingan toifasi 31,7 % bilan turizm mahsulotlari yoki xizmatlari edi. Bu ma‘lumotlar ham Turkiyaning raqamli marketingda katta ulushga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Mamlakatdagi turizm salohiyati va imkoniyatlari turli xil yo‘nalishdagi turizm turlarini rivojlanishiga turtki bermoqda. Mamlakatda an’anaviy tusga ega bo‘lgan sohil va madaniy-tarixiy hamda shopping turizmlari bilan bir qatorda diniy va tibbiy turizm kabi

zamonaviy yo‘nalishlar ham rivojlanmoqda. Mamlakatda islom, xristianlik va buddizm kabi yirik jahon dinlari namoyandalariga ega ekanligi jahondagi turli xil e’tiqod egalarining sayohatiga turki berishi, 1990-yillarga kelib mazkur turizm turining mamlakatda ommalashuviga olib keldi.

Hukumat mamlakatda turizmni rivojlantirish maqsadida oldiga qo‘ygan strategik rejali doirasida ham mintaqalarda hududlarining xususiyatidan kelib chiqqan holda turizmni rivojlantirishga e’tibor qaratmoqda. Xususan, mamlakatda tibbiy turizm ham so‘nggi yillarda faol tarzda rivojlanib kelmoqda. Mamlakat hududida bir nechta balneologik kurortlarning joylashganligi, mingdan ortiq termal manbalar va ikki yuzdan ortiq termal markazlarning mavjudligi mazkur turizm turining rivojlanishiga turki bermoqda. Bugungi zamonaviy Turkiya turistlarga tibbiy muolaja, reabilitatsiya va profilkatika hamda muolajan so‘nggi xotirjam dam olish imkoniyatini beruvchi tibbiy sihatgohlarni tavsiya etadi. 2003-yilda boshlangan Sog‘liqni saqlashni yaxshilash dasturi doirasida Turkiya sog‘liqni saqlash sohasidagi dunyodagi yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Mamlakat so‘nggi o‘n yil ichida dastur yordamida kasalxonalar va sog‘liqni saqlash mutaxassislari uchun yuqori standartlarga erishishga muvaffaq bo‘ldi. Natijada tibbiy turizm va termal turizm bilan birgalikda kata yoshlilar va nogironlarga tibbiy yordam ko‘rsatish sog‘liqni saqlash turizmining yana bir muhim qismi bo‘lib qoldi.

Bugungi kunda mamlakatda samarali turizm shakllaridan biri sifatida kongress turizmi ham rivojlanmoqda. Mazkur ishbilarmonlik turizmining rivojlanishi mamlakatga tashrif buyuruvchilar orasida biznes turistlar sonining ham ko‘pligi bilan izohlanadi. Bu borada mamlakatning Istanbul, Antalya va Izmir kabi shaharlarida xalqaro ilmiy konferensiyalar va tadbirlar o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan texnikalar bilan ta‘minlangan maydonlarga ega bo‘lgan maxsus markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Yil sayin ekologik turizm ishtiyoqmandlari soni ortib bormoqda. Mamlakat xududida joylashgan ko‘plab mahalliy flora va faunalar hamda noodatiy xayvonot va o‘simlik dunyosini ko‘rish imkoniyatini beruvchi milliy parklar, qo‘riqxonalar ekologik turizmini rivojlantirish salohiyatini namoyon etadi. Shuningdek, “moviy bayroq”qa ega sohillar va “Green Star” sertifikatiga ega mexmonxonalar sonini uch baravarga oshirib, ekologik turizmini rivojlantiruvchi mintaqalarda dam

olish maskanlarini xukumat tomonidan alohida qo'llab-quvvatlanishi mamlakatda ekologik turizmini rivojlantirish strategik maqsadalardan biri ekanligi bilan izohlanmoqda. Turkiyaning Kappadokiya, Kushadasi, Kemer va Pamukkale kabi mintaqalari ekskursiyalar, sayllar va safarilar, Antaliyadagi Djelebash va Kuruklyuch parklari, Izmirning Dyundarlik qo'riqxonalari, Bolge parkidagi ko'l kruizi, Gelidoniya parkidagi trekiinglar ekoturizmning zamonaviy shakllari xisoblanadi. Shuningdek, ekoturizm sohasiga yangi texnologiyalarning joriy qilinishi tabiiy resurslarni tejash, organik dexqonchilik va fermerchilikni rivojlantirish orqali "ekologik toza" turizm daromadlarini oshirishga olib kelyapti. Shuningdek, mamlakatda velo yo'llar va velo marshrutlarni kengaytirish hamda velosiped haydovchilari uchun mexmonxonalar sonini 100 tadan 1500 taga yetkazish orqali yangi velosiped turizmini rivojlantirmoqda.

Bugungi kunda turar joy sanoatini tashkil etishda turizm yo'naliishiga alohida e'tibor qaratilib, ularga yuqori sifatli dam olish muassasalari, zamonaviy delyuks turkum mehmonxonalar, butik mehmonxonalarini misol qilishimiz mumkin. Garchi shahar mehmonxonalar, yozgi kurort mehmonxonalar va dam olish majmualari turar joy sanoatining katta qismini tashkil etsada, mamlakatning turli qismlarida ko'plab chang'i, qishki va yozgi kurort mehmonxonalar ham mavjuddir. Eng yuqori standart mehmonxonalar va ko'ngilochar inshootlar shular sirasiga kiradi. Shuningdek, mamlakatning turli burchaklarida xalqaro standartga ega bir qator golf maydonchalarini ko'rish mumkin.

Mavjud salohiyat, mega-loyihalar va ulkan maqsadlar bilan turizm sektori o'z imkoniyatlaridan yuqori sur'atlarda o'sishda davom etmoqda. Infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda: mehmonxona fondlarii kengaymoqda, yangi temir yo'llar, dengiz portlari, aeroportlar qurilmoqda, ular mamlakatning turizm uchun eng muhim nuqtalarini yagona tarmoqqa bog'lamoqda.

Turkiya Respublikasi erishgan natijalari bilan to'xtab qolmasdan xaqlaro turizm bozorida o'ziga xos bo'lgan turistik xizmatlarni ko'rsatishni kengaytirish va o'z salohiyatidan samarali foydalanishda davom etmoqda. 2023-yilga kelib, Turkiyada turistlar sonini 50 millionga yetkazib, turizm industriyasidan 50 milliard dollar mablag'ga ega bo'lish rejalashtirilgan. Mintqa hukm surayotgan noqulay iqtisodiy va siyosiy vaziyatga qaramasdan xukumat barqaror ravishda

turistlar sonini oshirish va ularning dam olishdan oladigan taassurotlarini oshirish ustida ishlamoqda. Bu borada xukumat uchta tashabbusni ilgari surmoqda. Mazkur tashabbuslar turizm industriyasini qo'llab quvvatlash, ichki turizmni rag'batlantirish hamda mamlakatdagi diqqatga sazovor va boshqa turistik obektlarni yoritish bo'yicha kompaniya va tadbirlarni o'tkazishdan iborat. O'z navbatida hukumatning bunday tashabbusi turlarni xilma xillashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shu o'rinda mamlakatda raqamlashtirish sharoitida turistlarga qulayliklarni kengaytirish va mamlakatning xalqaro turistik bozordagi raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash maqsadida turizm industriyasiga texnologiyalar samarali joriy qilinmoqda. Bu borada ilovalar va onlayn xizmatlar orqali turistlar turlarni bronlash, ekskursiyalarga bilet sotib olish hamd real vaqt rejimida turistik obektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Turistik xizmatlarni yaxshilash maqsadida joriy etilgan turistlarni elektron ro'yxatga olish tizimi nafaqat turistlar sonini oshirishga, balki turistlar tomonidan xizmatlar sifatiga qo'yilgan talabning ortishiga va zarur hujjatlarni elektron yuklatilishiga erishilmoqda.

Elektron ro'yxatga olish turistlarning hujjatlarni to'ldirish uchun ketadigan vaqtlarini tejash va zarur hujjatlarni elektron tarzda olish imkoniyatini yaratdi. Turkiya madaniyat va turizm vazirligi orqali o'tadigan ushbu ro'yxatga olish barcha turistlar uchun majburiy bo'lib, bu turistlarga mamlakatdan vaqt ni qulay o'tkazishlari imkoniyatini kengaytirmoqda. Turkiya xukumati yangi marshrutlar va kruizlar uchun yo'nalishlar ochishga e'tibor qaratmoqda. Yildan yilga mamlakatda turistlarga ancha hamenbop narxlar evaziga yirik suv havzalari bo'ylab sayohat qilish imkonini beruvchi kruiz kompaniyalari soni ortib bormoqda. Endilikda, O'rta Yer dengizidagi an'anaviy sayohatlardan qo'shimcha yangi marshrut va lokatsiyalar yo'nalishlari to'ldirilmoqda.

Shuningdek, mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishda umumiyl infrastruktura va mexmonxona xizmatlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqdaki, bu yuqori darajadagi mexmonxona komplekslari egalarining o'z obektlarini modernizatsiyalashtirish va kengaytirishga faol ravishda investitsiya kiritishga turtki bermoqda.

2. Turkiyada turizm rivojlanishining me'yoriy-xuquqiy asoslari

Turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib rivojlanib kelayotgani uchun ham mazkur mamlakatda turizm sohasini tartibga solishga qaratilgan me'yoriy-xuquqiy baza ancha takomillashgan. Bu turdag'i qonunlardan biri bu – turoperatorlik va turagentliklar faoliyatini litsenziyalashtirish to'g'risidagi qonun bo'lib, unga ko'ra Turkiyada turistik faoliyat bilan shug'ullanayotgan turoperator va turagentliklar xukumat tomonidan talab darajasidagi sifat va xavfsizlik talablariga javob beruvchi xizmatlarni ko'rsatayotgani to'g'risidagi litsenziyaga ega bo'lishlari lozim.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun esa, ma'lumot olish, xavfsizlik xamda turistik kompaniya tomonidan taqdim etilgan xizmatning nomuvofiqligi yuzaga kelgan holatlarda kompensatsiyaga ega bo'lishlарini kafolatlaydi. O'zida xizmat ko'rsatish sifati, xavfsizlik va sanitariya standartlariga bo'lgan talablarni mujassamlashtirgan qonun esa, mexmonxonalar, apartamentlar, kempinglar va boshqa joylarda turistlarni joylashtirishni reglamentlash-tirishga qaratilgan.

Bu borada umuman turistlarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunda hukumat ijtimoiy xavfsizlik uchun nuqtai nazaridan jinoyatchilik va tibbiy xizmat ko'rsatish normalari va talablarni belgilash bilan turistlar xavfsizligiga qaratilgan barcha choralarни ko'rishi belgilab qo'yilgan. Mazkur qonun turistlarga Turkiyada bo'lib turgan paytlarida o'z xuquq va majburiyatları to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishlariha hamda ularga ko'rsatiladigan xavfsizlik va sifatning kafolatlanishiga yordam beradi. Yo'lovchilarning xuquq va xavfsizlaiklarini ta'minlovchi hamda tashuvchilar va turistik agentliklar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun esa, Turkiyada yo'lovchilarni tashish bilan shug'ullanuvchi aviakompaniyalar, temir yo'llar, avtobus va dengiz tashuvchilarning faoliyatini nazorat qiladi.

Shu o'rinda mamlakatga kirish bilan bog'liq vizalar bo'yicha ham maxsus tartib qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu jarayon mamlakatdan talab qilinadigan viza turiga bog'liq hisoblanadi. Ba'zi mamlakalar, xususan O'zbekiston bilan vizasiz kelishuvlarga erishilgan bo'lib, bu mamlakat fuqarolari turist sifatida vizasiz erkin harakatlanishlari mumkin. Viza talab qilinadigan mamlakat fuqarolari esa, Turkiya

aeroportiga yetib kelgach yoki o‘z mamlakatidagi Turkiya exchixonasi yoki konsulxonasida viza olishlari mumkin. Turkiyada yo‘lga qo‘yilgan elektron vizani esa, turistlar tashrifdan avval onlayn shaklda olishlari mumkin. Shuningdek, Shengen vizasiga ega bo‘lgan turistlar Turkiyaga alohida vizasiz ham kirish imkoniyatlari yaratilgan.

Shu o‘rinda turizm sohasi risklarga to‘la soha ekanligini hisobga olgan holda turistlar uchun majburiy sug‘urtalash tizimi muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlash joiz. Turkiyaga tashrif buyurgan turistlar uchun majburiy sug‘urta turist mamlakatga kirib kelishi bilan sukut asosida taqdim etiladi hamda u tibbiy xarajatlar va baxtsiz xodisalardan sug‘urta qiladi. Sug‘urta o‘z mamlakatida tibbiy sug‘urtaga ega bo‘lgan, Yevropa Ittifoqi fuqarolaridan tashqari barcha fuqarolarga tadbiq etiladi. Tibbiy xarajatlar tibbiy yordam, zarur hollarda davolash va kasalxonaga yotqizish, dori-darmonlar va tibbiy muolaja xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash esa, baxtsiz hodisa sharoitida yuzaga kelgan xolatlarni kompensatsiyalash, reabilitatsiya va mexnatga layoqatsizlikning kompensatsiyalarini o‘z ichiga oladi.

Ko‘chirish xarajatlari esa, zarurat bo‘lganda kasal odamni ko‘chirish hamda o‘z mamlakatiga qaytarish xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Sug‘urtadan foydalanish zarurati yuzaga kelganda turistik agentlik yoki Turkiya xukumatining qonun va tartiblariga muvofiq faoliyat ko‘rsatuvchi tibbiy muassasaga murojaat qilinadi.

Turkiya xukumati atrof-muxitni, ekologik barqarorlik hamda madaniy merosni himoya qilishga alohida e‘tibor qaratadi. Mazkur masalalardagi qonunlarda tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha hududlarning qo‘riqlanishi, u yerlarni ziyorat qilishni tartibga solinishi, turistik kompaniyalar faoliyatida mamlakatning tabiy go‘zalligini saqlab qolishga e‘tibor qaratilishi mustahkamlab qo‘yilgan.

Mamlakatda turizm sohasini rag‘batlantirish maqsadida mazkur sohadan keladigan daromadlar hajmi, turistik obyektlar va mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlar soni ortib bormoqda. Turizm sohasi infratuzilmasi davlat tomonidan siyosiy rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash yordamida barqaror iqtisodiy muhitda rejalar va muhim vazifalar doirasida amalga oshirilmoqda. Turkiyada turizmning mintaqaviy, milliy va xalqaro miqyosdagi zarurati tufayli u doimo davlat tomonidan rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash siyosatiga muhtoj. Bunday yo‘nalishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kichik va o‘rta korxonalarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash administratsiyasi doirasida taqdim etiladigan Rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashlar. Mazkur qo‘llab-quvvatlash tizimi otellar, motellar, kempinglar, boshqa qisqa muddatli yashash joylari, yoshlar xostellari, restoranlar, nonvoyxonalar, turagentliklar, turoperatorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini o‘z ichigaa oladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Kichik va o‘rta biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash dasturi;
- Tematik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash dasturi;
- Hamkorlik kuchlarini qo‘llab-quvvatlash tizimi;
- Tadqiqotlar va ishlanmalar, innovatsiyalar va sanoat loyihalarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari;
- Umumiy qo‘llab quvvatlash dasturi;
- Tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari;
- Rivojlanayotgan bozorlarda kichik va o‘rta korxonalarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari;

2. Investitsiyalarda davlat yordami bo‘yicha Vazirlar Maxkamasi Qarorlarida ko‘zda tutilgan imtiyozlar. Bulrag quyidagilar kiradi:

- Boj to‘lovlaridan ozod qilish;
- Soliqlarni qisqartirish;
- Foizli qo‘llab-quvvatlashlar;
- Investitsiya joylarini taqsimlash;
- Investitsiyalarni o‘tkazish;

3. Turizmni qo‘llab-quvatlash to‘g‘risidagi №2634-sonli Kodeksda ko‘zda tutilgan imtiyozlar. Mazkur kodeksga ko‘ra, turizm bilan shug‘ullanuvchi va investitsiya uchun Sertifikatga ega bo‘lgan yoki Madaniyat va turizm vazirligi sohasidagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash ajratilishi belgilab qo‘yilgan. Kodeksda ko‘rsatilgan rag‘batlantirishga quyidagilar kiradi:

Turistik foydalanish maqsadidagi ko‘chmas mulkni ajratish. Kodeksning 8-moddasiga ko‘ra, “Turizmua investitsiya kiritish uchun jamoat ko‘chmas mulk obektlarini rad etish to‘g‘risida”gi Nizom va “№6831 sonli O‘rmon Kodeksi”ning 17-moddasiga muvofiq turistik obyektlar uchun 49 yilgacha xazina va o‘rmon yerlarini ajratish ko‘zda tutilgan.

Turistik kreditlar. Kodeksning 14-moddasiga ko‘ra, turistik kreditlar birinchi navbatda turizm va madaniyat sohasidagi turistik

mintaqalar va markazlarni himoya qilish va rivojlantirishga qaratilgan loyihalarga ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Qishqi va isituvchi xududlar uchun imtiyozlar. Qishqi va isituvchi joylar uchun talab qilinadigan yillik umumiy investitsion qiymatning 0,1% iga teng bo‘lgan darajadagi 50% lik chegirma berish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Yillik arenda to‘lovleri umumiy investitsion qiymatning 0,5%ini tashkil qilib turgan paytda qishki va isituvchi kvotalar uchun 50% lik chegirma ajratiladi. Bundan tashqari mazkur yig‘im uchun dastlabki 3 yilda 70%lik chegirma qo‘llaniladi. Obekt ishga tushgach daromaddan 1% ulush olinadi, qishqi va isitish joylaridan esa, bu 0,5% ni tashkil qiladi.

Elektr, gaz va suv uchun to‘lovlar. Kodeksning 16-moddasiga asosan, turistik sertifikatga ega bo‘lgan investitsiyalar va korxonalar elektr energiyasi, gaz va suvgaga eng arzon narx, ya‘ni mazkur xuddidagi sanoat korxonalari va yashash uylari uchun qo‘llaniladigan tariflardan ham arzon narx bo‘yicha to‘lovni oshiradilar.

Dengiz turizmidagi xuquq va imkoniyatlari. Kodeksning 26 va 29-moddalariga asosan, xorijiy bayroq ostidagi suv transporti vositalari faqatgina sayohat, texnik xizmat ko‘rsatish, remont hamda 5 yilgacha bo‘lgan akva rejalashtirish yoki qishlash maqsadida Turkiya hududida bo‘lib turishlari mumkin.

Xalqaro turistik ko‘rgazmalarni qo‘llab-quvvatlash. “2023-yilgacha Turkiyada turiz strategiyasi”ga muvofiq, xususiy sektorning xorijda o‘tkaziladigan yarmarkalar va boshqa reklama xamda marketing tadbirlarida ishtirok etishi va hissa qo‘sishini ta‘minlash hamda dunyodagi 5 ta top turistik mamlakatga aylanish maqsadida “Turizmni va marketingni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro turistik yarmarkalar va tadbirlarda ishtirok etish to‘g‘risida”gi Nizom qabul qilingan. Unga ko‘ra, unda ishtirok etish xarajatlari muvofiq professional va boshqa assotsiatsiyalar tomonidan qoplab beriladi. Vazirlilik tomonidan Sertifikatga ega bo‘lgan va o‘tgan moliyaviy yilda turistlarni joylashtirish bo‘yicha 750 ming dollar AQSh dollari yeki unga teng valyutani taqdim etuvchi korxonalargina mazkur rag‘batlantirishdan foydalanishi mumkin.

4. Kreditlash imkoniyatlari. Turistik kredit va benefitsiarlar. Biznes olib borish xuquqi va «A» TÜRSAB guruxiga a‘zolikka ega bo‘lgan turistik agentliklar, turoperatorlar turistlarga ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatish xxizmatlari evaziga Eksimbankning kreditlaridan

foydanish huquqiga egalar. Kreditning umumiyligi summasi 15 ming AQSh dollarining turk lirasidagi ekvivaletidan oshmasligi lozim. Kredit muddati 540 kunga teng bo‘lib, uni to‘lashning 350, 120 va 180 kunlik variantlari mavjud.

5. Xorijiy kapitalni rag‘batlantirish. Xorijiy kapitalni kirib kelishini rag‘batlantirish Iqtisodiyot Vazirligi va xorijiy kapitalni boshqarish boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Turizm sektorida favqulotda xolatlarda va turizm sektoridagi bandlikni qo‘llab-quvvatlashda amalga oshiriiladag ishlar rejasini qo‘llab-quvvatlash.

- Dunyoning turli mamlakatlaridan Turkiya aeroprotiga turistlarni yetkazib beruvchi A gurux agentliklariga har bir parvoz uchun 6000 AQSh dollari taqdim etiladi, 200 kishidan ortiq samoletlarda 150 kishidan kam bo‘lmagan parvozchilarni yetkazib beruvchi agentliklarga esa, bunday rag‘bat yana 30% ga oshirib beriladi.

- Turkiyaga turistlarni olib kiruvchi A gurux agentliklariga Kredit kafolatlari Fondi garovi ostida kreditlardan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Turizm soxasidagi iqtisodiy tushish davrida yetarli darajadagi moliyalashtirish bilan ta‘minlanishda muammoga uchrayotgan va avvalgi yilda kamida 400 nafar turistni jalb qilgan A guruh agentliklariga Kredit kafolatlari Fondi garovi ostida 100 million turk oirasi miqdoridagi kreditlar taqdim.

- Iqtisodiyot vazirligi tomonidan sertifikatga ega bo‘lgan dengiz turizmi obektlariga rag‘batlantirish ko‘rsatish. Mazkur dengiz turizmi obektlari yangi investitsiyalar va obektlar rekonstruksiyasiga sarflashga xizmat qiluvchi joylashtirish obektlari uchun regional imtiyozlar taqdim etiladi.

- Vazirlik tomonidan sertifikatlashtirilgan joylashtirish va dengiz turizmi obektlarini eksportyor sifatida qabul qilish. Avvalgi yilda 750 ming AQSh dollari keltirgan sertifikatlashtirilgan joylashtirish va dengiz turizmi obektlarining eksportyor sifatida qabul qilinishlari ularga Eksimbek tomonidan taqdim etiladigan kredit operatsiyalarini yengillashtirish, ularning xorijiy ko‘rgazmalardagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va boj va to‘lovlardan ozod qilish kabi rag‘batlarni taqdim etilishiga asos bo‘ladi.

6. Mulk solig‘idan ozod qilish. 131-sonli Mulk solig‘i Kodeksining “Vaqtinchalik ozod qilishlar” nomli 5-moddasi ning B punktida binoni qurish turistik korxonanining faoliyatiga kirgan yoki mazkur bino

turistik maqsadga qaratilgan bo‘lsa mazkur korxonaning 5 yil muddatga mulk solig‘idan ozod qilinishi belgilab qo‘yilgan.

7. Investitsiyalarni rag‘batlantirish tizimi. Turistik sertifikatga ega bo‘lgan restoranlar, kafelar, ko‘ngilochar markazlar, termal davolanish markazlari, butik mexmonxonalar, dacha qishloqlari, xususiy joylashtirish obektlari va tog‘ uylar quyidagi rag‘batlantirishlardan foydalanish xuquqiga egalar:

- QQSdan ozod qilish;
- Bojxona bojlaridan ozod qilish;
- Daromad solig‘idan ushlab qolishni qo‘llab-quvvatlash (6-mintaqaga qaratilgan investitsiyalar uchun);
- Ish beruvchi ulushini qo‘llab-quvvatlash maqsadida sug‘urta premiyasi (kemachilar uchun);

Mintaqaviy ilovalarda rag‘batlantirish bo‘yicha Istanbul ro‘yxatga kirmaydi. 1,2,3,4,5 mintaqalarda uch va undan ortiq yulduzli mexmonxonalarga rag‘batlantirish beriladi. 6-mintaqada esa, kamida 500 ming turk lirasi miqdoridagi joylashtirish sektoriga investitsiya kiritish rag‘batlantiriladi.

8. Tibbiy turizm. Tibbiy turizm sohasida quyidagi qo‘llab-quvvatlashlar ko‘zda tutilgan:

- Ro‘yxatdan o‘tishda qo‘llab-quvvatlash;
- Xorijiy kompaniyalarni sotib olishda maslahat va xisobot davrida qo‘llab-quvvatlash;
- Hujjatlashtirishni qo‘llab-quvvatlash;
- Reklama va marketing faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
- Xorijiy bo‘linmalarni qo‘llab-quvvatlash;
- Konsultatsiyalar bilan qo‘llab-quvvatlash;
- Tarjima xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Bemorni yo‘lda paytida qo‘llab-quvvatlash;
- Xorijliklar uchun o‘tkaziladigan o‘quv treninglari va tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash.

Yuqorida ko‘rib turganimizdek, Turkiya Respublikasida turizmni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish sohasida davlat tomonidan ko‘plab imkoniyatlar yaratilgan. Bundan tashqari mazkur rag‘batlantirish dasturlari dastlab sohil turizmiga qaratilgan bo‘lib, keyinchalik u qishki turizm, tibbiy turizm, termal turizm kabi ko‘plab boshqa turizm sohalariga qo‘llanila boshlangan.

3. Turkiyada turizm rivojlanishi dinamikasi

Turkiya – bu tarix, madaniyat, ajoyib tabiat go‘zalligi uyg‘unlashgan bir qancha imkoniyatlar bo‘yicha ustunliklarga ega bo‘lgan mamlakatdir. Yashil o‘rmonlar, tog‘ chang‘isi uchun qulay bo‘lgan qorli tog‘lar, mehmonsevar odamlar va takrorlanmas oshxona – bularning barchasi Turkiyaga xosdir. Turkiyada turizm sohasi Usmoniyalar imperiyasining so‘nggi davrlarida boshlanib, Respublika tashkil qilinganidan keyin asta sekin tashkilotlar tarzida rivojvana boshladi. 1923 yilda millat qahramoni va mamlakatda turizm asoschisi nomini olgan Mustafo Kamol Otaturk boshchiligidagi tashkil yetilgan “Turkiya Sayyohlik Jamiyati” (hozirgi Turin Otomobil Kurumu (Turin avtomobil jamiyati) bilan ilk jiddiy ish faoliyatini sinov tarzida boshladi va Turkiya tarixida birinchi martta tanituv afishalari, yo‘l xaritalari, mehmonxona boshlovchilari va broshuralar chiqarishni boshladi.

1930-yillarda Turkiyaga kelgan turistlar soni 45-50 mingtani tashkil etib turizm sohasiga hukumat darajasida ham e‘tibor qaratila boshlandi. 1930-yilda Ichki Ishlar Xavfsizlik Mudirligida turizm ishlari bilan bog‘liq bir bo‘lim faoliyat boshlagan soha Xalqaro Turizm Birlashmasi Kongressi Istanbulda tashkil etilishi yilning eng muhim voqeasiga aylandi. 1930-yillar oraliq‘ida mamlakatda Istanbulda turist oqimining ortishi bilan Istanbul Hokimligi Turizm Shobasi, Bursa Hokimligi Turizm birlashmasi, Izmir Madaniyat Ko‘rgazmasi Parki va Turizm Mudurligi tashkilotlari tashkil qilindi. 1940-1950-yillar davomida mamlakatda turizm sohasi Turizm Idorasi, Vazirliklararo Turizm Komissiyasi, Turizm Vazirligi, Turizm Kengash Hayati kabilar tomonidan boshqarildi. Tashviqot choralarining turizmda amalga oshirilishida sarmoyalarga manba bo‘lishi uchun 1954-yilda Turkiya Turizm Banki ochildi va Turkiya “Turkiya Milliy Talaba Federatsiyasi” nomi ostida yoshlar turizmining jamiyatini tashkil etildi.

1983-yilga kelib, Turizmni rag‘batlantirish qonuni bilan xorijiy bayroqli qayiqlarning 3 oy ichida bir kirish-chiqish majburligi olib tashlandi, 5 yil davomida Turkiyada qolishi, turk suvlari va portlari orasida yerkin sayr qilishi ta‘minlandi. Bunday vaziyatda paydo bo‘lgan raqobat natijasida 1970-yillarda “Moviy yo‘lovchilik” nomini olgan katta baliqchi qayiqlari tarafidan boshlangan Bodrum-Go‘kova sayohatlari, 1983-1992-yillar orasida tezlik bilan rivojlandi va Turkiya turizm sektorini kengaytiradi. Sektor 2000-2002-yillar davomida deyarli 2.5 millard AQSh dollari, valyuta kirishini ta‘minlay olgandi.

So‘nggi yigirma yil ichida Turkiya infra tuzilishga katta sarmoyalar kiritildi. Bunga aeroportlar va aerovokzallarni obodonlashtirish, modernizatsiya qilish hamda yangilarini qurish kabi transport infratuzilmasi ham kiradi. Asosiy shaharlar va kurort yo‘nalishlaridagi xalqaro aeroportlardan tashqari, Turkiya barcha yirik shaharlar va sayyoqlik markazlariga ichki reyslariga ega bo‘ldi. Avtomobil yo‘llari butun mamlakatni kesib o‘tadi; muntazam qulay avtobus safari Turkiyada sayohat qilishni oson va yoqimli qiladi. Transport infratuzilmasi va xizmatlar samaradorligi hamda ilg‘or aloqa tarmog‘i tizimi zamonaviy turizmning barcha talablariga javob beradi.

Turkiya sayyoqlik uyushmasi raisining o‘rinbosari (TURSAB) Bilir – Turkiyada xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan standartlarga ega bo‘lgan ko‘plab xalqaro reabilitatsiya va sog‘liqni saqlash tashkilotlari mavjudligini ta‘kidladi. Bilirning so‘zlariga ko‘ra, Turkiya uchun eng muhim maqsadli bozor bo‘lgan Yevropa davlatlaridagi keksa yoshlilar uchun kelgusi yillarda o‘zining rivojlangan imkoniyatlari bilan xizmat qilishi bo‘lib, “Turkiya dunyodagi sog‘liqni saqlash turizmi uchun eng ko‘p tashrif buyurilgan beshta mamlakat qatoriga kiradi” - “faqat Antaliyada 421 ta besh yulduzli mehmonxona mavjud bo‘lib, bu O‘rta yer dengizi mintaqasidagi eng katta raqobatchi hisoblangan Ispaniyadagi besh yulduzli mehmonxonalar sonidan ko‘p ekanligini, Antaliya nafaqat dengiz, qum, quyosh, balki tarixiy va tabiiy go‘zalligi bilan alohida alternativalarni taklif yetadi” - deb ta‘kidlaydi.

Turkiya 2002-2007-yillarda amalga oshirgan ko‘plab ijobiy iqtisodiy va bank islohotlari tufayli kuchli iqtisodiy o‘sishni boshidan kechirdi va 2008-2009-yillardagi global iqtisodiy inqirozni ko‘pchilik mamlakatlarga qaraganda yaxshiroq yengib chiqdi va o‘zini nisbatan barqaror rivojlanayotgan turizm bozor sifatida ko‘rsatdi. 2007-2008-yillardagi iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlariga qaramay, rivojlanishda davom yetayotgani mamlakatning turizmdagi muvaffaqiyati ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Turkiya katta rekreatsion resurslarga ega mamlakat bo‘lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotda turizm ulushi yuqori bo‘lgan davlatlar ro‘yxatiga kiritilmagan.

Iqtisodiy inqiroz davrida dam olishning yangi formati mashhur bo‘la boshladi. Mijozlar uchun mehmonxonalar “All inclusive” tizimni joriy qila boshladi. Mijozlar ushbu dam olish formatini tanladilar, chunki u arzon bo‘lmasa-da, narx va sifat jihatidan maqbul yedi. Turkiyada hamma narsani qamrab oluvchi tizim faqat 1990-yillarda paydo bo‘ldi. U nemis sayyoqlari uchun ommaviy segmentda faol

amalga oshirila boshlandi, bu esa hozirgi kungacha davom etayotgan bumga olib keldi.

2012-yilda Turkiyaga 13 mln 247 mingta turist tashrif buyurgan bo‘lib, undan kelgan sof daromad 8,5 mlrd dollarni tashkil qilgan. 2016-yilda turistlar soni 16,9 mln kishi, 2017-yilda 19,8 mln kishi, 2018-yilda esa 8 % ga o‘sib, 23 mln kishidan ortdi, undan keladigan daromad 20 mlrd dollarga yaqinlashdi. 2018-yili Turkiyaga 40 milliondan ortiq turist kelgan. Turkiyaga ko‘plab turistlarni jalb qilgan narsalar bular: arxeologik va tarixiy yodgorliklarga boyligi, Egey va O‘rtayer dengizi sohilbo‘yi kurortlari hisoblanadi. 2019-yilga kelib Turizm Vazirligi turistik biznes vakillari bilan hamkorlikda turistlarni mamlakatga jalb qilishga qaratilgan umumiy qiymati 320 mln dollarlik loyihani amalga oshirdilar, shunda Turkiya turizmdan keladigan daromad hajmi va turistlar soni bo‘yicha dunyodagi yetakchi 10 talik mamlakatlar qatoridan o‘rin oldi va turizmning yekspordagi ulushi 25 % ni, YaIMdagi ulushi esa 5,4 % ni tashkil qildi. 2019-yilda mamlakatga tashrif buyurgan turistlar soni 51 mln kishini, turizm keltirgan daromadlar esa 41 mlrd dollarni tashkil kildi. Bu ko‘rsatkich 2019-yilda iqtisodiyotning turizm sektoridagi o‘sish 13 %ni tashkil qilganini, aynan shu davrda Turkiyadagi o‘sish ko‘rsatkichlari butun Afrikadagi turizmning o‘sish ko‘rsatkichlariga teng bo‘ldi.

Turkiya turli xil tarixiy va arxeologik joylarni, shuningdek, iqlim va madaniyatning xilma-xilligini taklif qiladi. 2018-yilda dam olish uchun sayohat xarajatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri sayohat va turizm yalpi ichki mahsulotining 84,4 % ini tashkil qilgan, bu esa biznes sayohatlari uchun 15,6 % ini tashkil yetgan. 2019-yildagi ko‘rsatkichlar dam olish uchun 2,7 % va biznes uchun 1,4 % ga oshib, mos ravishda 129 mlrd TL (45,4 mlrd yevro) va 23,6 mlrd TL (8,3 mlrd yevro) ga yetdi.

Turkiyadagi sayyoqlik sanoati oxirgi 8 yil ichida ijobjiy tendensiyani bilan davom yetib, 2019-yilda 51,9 million tashrif buyurgan va jami 41,4 milliard AQSh dollar mablag‘ kiritgan bo‘lib, u yalpi milliy mahsulotning 5,4 % tashkil qildi va kishi boshiga taxminan 800 AQSh dollariga yetdi. Turkiya Butunjahon sayyoqlik tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda tashrif buyuruvchilar soni bo‘yicha dunyoning eng yaxshi 10 ta sayyoqlik markazi orasida 6 o‘rinni egal-lashda davom etdi⁶⁹.


⁶⁹ www.wttc.org

1-jadval

Turkiyaning turizm sohasi bilan bog'liq ko'rsatkichlari (2011-2022 yillar)⁷⁰

Yil	Turistlar soni (millionoda)	Tushumlar	YaMM %da ulushi	Turist boshiga daromad
2022	46.4 m	46.3 bn\$	5.0%	901\$
2021	29.9 m	26.6 bn\$	7.3%	890\$
2020	15.97 m	13.77 bn \$	1.9 %	862 \$
2019	51.75 m	41.42 bn \$	5.4 %	800 \$
2018	46.11 m	36.79 bn \$	4.7 %	798 \$
2017	37.97 m	31.99 bn \$	3.7 %	843 \$
2016	30.91 m	26.51 bn \$	3.0 %	858 \$
2015	41.11 m	35.65 bn \$	4.1 %	867 \$
2014	41.63 m	40.03 bn \$	4.3 %	962 \$
2013	39.86 m	37.98 bn \$	4.0 %	953 \$
2012	37.72 m	31.57 bn \$	3.6 %	837 \$
2011	36.77 m	30.30 bn \$	3.6 %	824 \$

Turkiya 2022-yilda jami 46,4 million sayyohni qabul qilib, mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha dunyoda 8 o'rinni egalladi. Quyidagi jadvalda 1995-yildan 2022-yilgacha Turkiyada turizm sektorining rivojlanishi 1 rasmda ko'rsatilgan.

1-rasm. Turkiyaga kelgan sayyohlar soni⁷¹


Mamlakatda turistlar asosan Buyuk Britaniya, Germaniya, Isroil, Rossiya va Yaponiyadan kelishadi. Mamlakatga arab davlatlari, Eron,

⁷⁰ Worlddata.info//https://www.worlddata.info/asia/turkey/tourism.php

⁷¹ worlddata.info//https://www.worlddata.info/asia/turkey/tourism.php

Fransiya va Skandinaviyadan keladigan turistlar unchalik ko‘p emas. Britaniyadan keladigan turistlar asosan Egey dengizi sohillaridagi kурortlarga, hamda Bodrum va Marmara kurortlariga kelishadi. Germaniya va Rossiyadan keladigan turistlar asosan O‘rtal yer dengizi sohillariga kelishadi (Antaliya kabi). Yaponiyadan kelgan turistlar asosan Efes va Istanbulga o‘xshagan tarixiy shaharlarga kelishadi. Ispaniyadan turistlar oxirgi yillarda ortib, 2019-yilda 200 000 ispaniyalik Turkiyaga tashrif buyurgan.

Turkiyaga kirib keladigan turistik oqimlar ichidagi an‘anaviy mamlakat bu Germaniyadir. 2019-yilda mamlakatga tashrif buyurgan nemis turistlarining soni 6,2 mln kishini tashkil qilgan. Chunonchi, 2022-yilga kelib Turkiya Germaniyadan kelgan turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi asosiy O‘rtal yer dengizi mamlakatlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.



2-rasm. Turkiyaga xorijdan tashrif buyurgan mamlakatlar bo‘yicha turistlar soni (2016-2020)⁷²

Dunyo sayohat va turizm kengashi tarafidan 2019-yilning mart oyida berilgan ma’lumotdagi taxminlar ma‘lum miqdorda to‘g‘ri chiqdi. Xabarda 2019-yilda Turkiyadan oldinda kelgan raqiblari Ispaniya, Yunoniston, Italiya va Misr turizmining pasayishi kutilganligi aytilgan va bu pasayish Ispaniyada 4,9 %, Yunonistonda 1,8 %,

⁷² www.ktb.gov.tr

Italiyada 5,5 %, Misrda 2,8 % miqdorida pasaygani qayd qilindi. Bunga qaramay, Turkiya turizmining taxminan 1,3 % o'sishi taxmin etilgandi. Butunjahon Turizm Tashkilotining 2019-yil may oyida Madridda o'tkazgan matbuot anjumanida Turkiyaning iqtisodiy inqirozga qaramay turist sonining ortgan mamlakatlar qatorida turganligi qayd etildi. Turkiya Vijn - 2023 strategiyasiga muvofiq 2023-yilda kuchli besh davlat ichiga kirish uchun intilmoqda⁷³.

Mamlakatda xizmatlarning yetarli infratuzilmasi yaratilgan bo'lib, zamonaviy turistik markazlar ochilgandir. Yozgi ta'tilning ommaviy markazlariga: Antaliya, Alanya, Marmaris, Kushadasi, Bodrum, Fetxiye, Kash kiradi.

Shuningdek 2019-yilda Antaliya qabul qilgan turistlar soni 13 million kishini tashkil qildi, bu ko'rsatkich o'zining ehromlari dovrug' qozongan Misrga tashrif buyurgan turistlar soni bilan taqqoslash mumkin.

Antaliyaga kirib keladigan turistlarning aksariyat qismi Germaniya va Rossiya ulushiga to'g'ri kelgan, yani ushbu viloyatga tashrif buyurganlarning 55 % i ushbu ikki mamlakatdan tashrif buyurgan. Ulardan keyin esa Gollandiya, Buyuk Britaniya turadi. Shuningdek, 2019-yilga kelib Gresiyalik turistlar soni 2,7 marttaga va Eronlik turistlar soni 1,85 marttaga ortgan. Taxminan 3 million Rossiyalik turistlarning aksariyat qismi, yani 2 millioni asosan, Antaliyaga, qolganlari esa boshqa hududlarga dam olish uchun boradilar.

Istanbul Turkiyaning eng muhim turistik markazlaridan biri. U sharq bilan g'arbni birlashtirgan madaniyatlarning poytaxti hisoblanadi. Tarixi, tabiatи va madaniyati bilan birga xalqining mehmondo'stligi chet ellik turistlarni yana ham o'ziga chorlamoqda. Istanbul 2019-yilda jami 14,7 million sayyohni qabul qilib, 2018-yilda esa bu ko'rsatkich 13,4 million edi, bu yiliga nisbatan 9,7 % ga ko'p deganidir. Turkiyada 2019-yil, turizm jihatidan ijobiy natijalar bilan kutib olindi. Istanbulga kelgan turistlar orasida bu shaharga shaydo bo'lib, 10 martta sayohat qilganlar ham bor. Asosiy maqsad, dunyodagi mashhur shaharlar kabi Istanbulni ham bir turizm markaziga aylantirishdan iborat⁷⁴.

⁷³ www.wttc.org

⁷⁴ www.horwathhtl.com

Turkiyaning ichki segmenti ham o'sib bormoqda. Turk-Stat ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilning birinchi uch choragida mahalliy sayyoohlar tomonidan qilingan jami xarajatlar 2018-yilning shu davriga nisbatan 25 % ga oshgan. WTTC 2015-yilda ichki sayohat xarajatlari 1,7 % ga o'sib, 68,3 milliard liraga yetishini taxmin qilmoqda. 24,1 milliard yevro) va har yili 4,2 % ga oshib, 2025-yilda 103,1 milliard TL (36,3 milliard yevro) ga yetadi.

Turkiyaga xorijdan keladigan sayyoohlar maqsadlariga ko'ra turli xil turizm yo'nalishlariga tashrif buyurishadi. Ularga asosan sayohat, sarguzasht, sport va madaniy turizm kabilar kiradi⁷⁵.

2-jadval

Turkiyaga xorijdan maqsadiga ko'ra keladigan turistlar soni (ming kishi)

Maqsadiga ko'ra	2019	2020	2021
Sayohat, sarguzasht, sport yoki madaniy turizm	28,062	7,459	14,695
Qarindosh yoki do'stlarnikiga tashrif	4,965	2,018	3,442
Biznes (konferensiya, uchrashuv va h.k.)	1,618	548	892
Shopping	1,570	745	744
Rekratsion yoki tibbiy turizm	560,5	336	530
O'qish va treninglar	116	31	64
Tranzit	94	17	21
Diniy turizm	78	9	8
Boshqalar	1,072	127	197

Turkiyaning mehmonxona salohiyati oxirgi yillar sezilarli darajada oshadi. "Invest in Turkey 2019" da 2012-2019-yillarda litsenziyalangan mehmonxona ob'ektlari 48 % ga oshganini ma'lum qilgan, hozirda mamlakat mehmonlariga 715 692 o'rinn taklif qilinmoqda. TYD loyihalariga ko'ra, mamlakat talabni qondirish uchun 2023-yilgacha qo'shimcha 1,5 million mehmonxona xonalarini qo'shishi rejalash-tirilgan.

Turkiya statistika instituti (TIK) dan so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Turkiyaning turizm sektori ijobiy tendensiyani boshdan kechirishda davom etmoqda va kelayotgan sayyoohlar sonining ko'payishi bilan birga mamlakat tarixiy bosqichni belgilab, yolg'iz turizm sohasidan 34,5 milliard dollar ishlab topishi mumkin.⁷⁶

⁷⁵ <https://www.statista.com/statistics/921136/departing-foreign-visitors-from-turkey-by-purpose-of-visit/>

⁷⁶ www.tuik.gov.tr

Qisqa vaqt ichida Turkiyada xorijiy sarmoyadan foydalanish tufayli mehmonxonalar va kempinglarning keng tarmog‘i yaratildi. Turizmning asosiy markazlarini bog‘lovchi yangi yo‘llar qurildi. Aytish joizki, turk turizm biznesini rivojlantirishga yirik sarmoya kiritganlar orasida asosan nemis kompaniyalari bor edi.

Jahon turizm tashkiloti taxminlariga ko‘ra, “Turizm: 2020 Yevropa qarashlari” hisobotida Turkiya turizmdan keladigan daromad hajmi bo‘yicha 2024-yilda Fransiya, Ispaniya va Italiyadan keyin Yevropada 4-o‘rinni egallaydi. Bu yili turizmdan keladigan umumiy daromad 40 mlrd. AQSh dollaridan oshishi rejalashtirilgan edi. Bu davrga yani 2024 yilga kelib Turkiyaga 60 mln. kishi tashrif etishi taxmin qilinmoqda.⁷⁷

Albatta, 2020-yilgi pandemiya butun dunyo bo‘ylab turizm bozoriga jiddiy talofat ko‘rsatdi. Butunjahon Sayohat va Turizm Kengashi (WTTC) ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, ko‘plab mamlakatlar tomonidan kasallikni yumshatish uchun joriy etilgan va davom ettirilayotgan sayohat taqiqlari dunyo turizm sanoatidagi ishchi kuchining yarmini olib qo‘yadi.


Butunjahon turizm tashkiloti 2020-yilda yuz bergan jahon pandemiyaga qaramay Turkiya turizm mavsumini muvaffaqiyatl o‘tkazgan mamlakatlar orasidan joy olganini ma‘lum qildi. Madaniyat va Turizm Vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra 2021-yilda Turkiyaga kelgan turist sonining oldingi yilga nisbati 1,3 % ga ortib 26 % ni, ya‘ni, 336.677 kishi deb ma‘lumot berildi. Turk turizmning ichida yuz bergan eng muhim o‘sishlardan biri deb baholandi.

Turistlarlar keladigan daromad 2019-yil 34,5 milliard dollarni tashkil etib, 2020-yilga kelib pandemiya sabab, bu ko‘rsatkich 12 milliard dollargacha keskin tushgib ketdi. Bu 2019-yilga nisbatan 75 % ga kamayib ketganini, daromadlar o‘tgan yilga nisbatan hatto yarmiga ham teng bo‘la olmaganini kuzatishimiz mumkin.

Turkiyada sayohat va turizmdagi bandlik yildan yilga ko‘payib bormoqda. 2019-yilda bu ko‘rsatkich taxminan 2,6 millionni tashkil etgan bo‘lsa, Koronavirus (KOVID-19) pandemiyasi tufayli bu bandlik ko‘rsatkichi sezilarli darajada kamayib, 2020-yilda ushbu tarmoqdagi ish o‘rinlar 2,19 millionni tashkil etgan⁷⁸ (2.2.5 rasm).

⁷⁷ www.wttc.org

⁷⁸ <https://www.statista.com/statistics/644853/travel-and-tourism-employment-contribution-turkey/>



**3-rasm. Turkiyada sayohat va turizmdagi ish o'rini soni
(mln.da ko'rsatilgan)**

Turizm hisobiga katta daromadlarga ega bo'lishni ko'zlayotgan Turkiya mavjud resurslarga suyangan holda, pandemiya sharoitida o'zining turistik siyosatini qayta ko'rib chiqmoqda. Turizm Vazirligi turizm industriyasiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan turlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali faoliyat amalga oshirilmoqda.

2022-yil mart oylarida boshlangan Ukraina-Rossiya o'rtaсидаги urush Rossiya fuqorolarining 70 % i aynan Turkiyaga dam olish uchun ketayotganiga sabab bo'lmoqda. Rossiya uchun qo'yilgan cheklovlar natijasida avvallari Yevropa va AQShga sayohat qilgan turistlar bugungi kunda asosan Turkiya va Osiyo davlatlariga sayohat qilishmoqda, buning natijasida Turkiyada mamlakat byudjetiga turizm sektoridan keladigan daromadlarning miqdori 23,2 mlrd dollarga yetib, mamlakat bu ko'rsatkich bo'yicha dunyoda 9 o'rinni egallamoqda.

Turkiya Madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoy o'tgan yili 2023 sayyohlik maqsadiga erishish uchun yangi dasturni e'lon qildi, hamda Vazirlik tashrif buyuruvchilar sonini va turizmdan tushadigan daromadlarni ko'paytirish bo'yicha yangi qoidalar va strategiyalarni ishga tushirdi. Unga ko'ra turizm va mehmondo'stlik sohasi uchun kasb-hunar maktablari yil davomida faol va samarali bo'ladi. Mavsumiy turizm tushunchasi tugaydi va xodimlar yil davomida ishlaydi. Hukumat, shuningdek, mamlakatda umumiy qiymatining 30 % gacha bo'lgan filmlarni suratga olishni moliyalashtiradi, chunki bu filmlar chet elda namoyish etiladi va mamlakat uchun reklama sifatida yordam beradi.⁷⁹

⁷⁹ www.tuik.gov.tr

Sayyoohlarni jalg qilishda erishilgan yutuqlarni hisobga olsak, Turkiyaning 2023-yilga borib har yili 50 million sayyohni jalg qilish maqsadi albatta amalga oshishi mumkin. Aslida Jahon Turizm va Sayohat Kengashi (WTTC) 2023 yilga borib mamlakatga har yili 50,77 million sayyohni jalg etishni rejalashtirmoqda⁸⁰.

Kelajakka yo‘naltirilgan yana bir dastur yangi bozorlarni o‘stirish uchun yangi ijtimoiy media va raqamli strategiyalarni ishlab chiqish bo‘ldi. Madaniyat va turizm vazirligi mamlakatning tabiiy, tarixiy va madaniy qadriyatlaridan foydalanadigan 6,5 million obunachiga ega Go Turkiya (Go Turkey) platformasini taqdim etdi. Platformada kamroq ma‘lum va mashxur bo‘lgan yo‘nalishlardagi turli tajribalarga, shuningdek, boshqa fasllar va tadbirlarga qaratilgan maqsad va mahsulot ma‘lumotlari mavjud bo‘ladi.

So‘nggi yillarda turistik daromadlar ham sezilarli darajada oshdi. WTTC turizm xarajatlari har yili 4,6 % oshib, 2025-yilga borib 131,8 milliard TL (46,4 milliard yevro) yoki YaIMning 4,7 % ini tashkil etishini kutmoqda.

Istanbul Convention & Visitors Bureau (ICVB) ma‘lumotlariga ko‘ra, Istanbul 94 000 mehmonxona yotoqlari va 170 dan ortiq to‘rt va besh yulduzli mehmonxonalarini taklif etadi. Shahar ko‘pincha Turkiyaning eng yirik turizm shahri sifatida qaralsa-da, uning mehmonxonalar soni Antaliyadan kam bo‘lib, Xalqaro Kongress va Konvensiya Assotsiatsiyasi (ICCA) ma‘lumotlariga ko‘ra, 400 000 dan ortiq mehmon yotoqlari va 260 besh yulduzli mehmonxonalarini taklif etadi⁸¹. “Invest in Turkey” ma‘lumotlariga ko‘ra, atigi 29 000 o‘rinli Izmir xorijiy mehmonxona investitsiyalarini ko‘paytirish orqali o‘z takliflarini kengaytirishga umid qilmoqda⁸². Istanbul operatorlarining xavotirlariga ko‘ra mavsum bo‘lmagan davrda bandlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha 25-35 % bo‘lganligi sababli, shaharga yangi mehmonxona xonalari oqimi bozorni haddan tashqari to‘ldirishi mumkin.

⁸⁰ www.tuik.gov.tr

⁸¹ www.iccaworld.org

⁸² www.invest.gov.tr

VIII BOB. BAA DA TURIZM RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1. BAA da turizm salohiyati

Yaqin Sharq o'zining noyob madaniyati va an'analariga boydir. Sektor infrastrukturasi va yo'lovchilarni havoda tashish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Davom etayotgan o'zgarishlar ulkan imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Agar BAA haqida gapiradigan bo'lsak, yildan-yilga Amirliklar mamlakatda o'zining barqaror siyosiy holati va rivojlangan infrastrukturasi, qulay iqlim sharoiti va xizmatning yuqori standartlari tufayli turistlar uchun yanada jozibali bo'lib kelmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari ko'plab o'ziga xos jihatlari bilan boshqa arab mamlakatlaridan ajralib turadi. BAA eng boy arab mamlakatlarining biri bo'lib, ulkan cho'l-u biyobonlar ichida oazis bo'lib ko'rindi. Mamlakatning poytaxti Abu Dabi amirligi bo'lsada, lekin turistlarni Dubay amirligi o'ziga jalb etadi. Ushbu shaharning diqqatga sazovor joylari turli ommaviy axborot vositalari orqali juda ham yaxshi reklama qilinadi. Hozirgi kunda biror bir shahar Dubay bilan tenglasha olmaydi. Yuqori tezlikda qurilayotgan turli xil ko'rinishdagi arxitektura binolari amirlikni cho'l ichida zamonaviy megapolisga aylantirdi. BAA bugungi kunda turizm markazlaridan biriga aylanishiga va amirliklarda turizm sanoatining rivojlanishiga qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

- Geografik jihatdan qulay erda joylashganligi;
- Mavsumiy qulay iqlim sharoiti;
- Yuqori darajada infrastrukturaning rivojlanganligi;

Oldingi paytlardan buyon BAA g'arbdan sharqqa va shimoldan janubga olib boruvchi asosiy yo'llarning chorrahasi bo'lib hisoblanadi. BAA – Yevropa, Osiyo va Afrika mintaqalaridan bir xil uzoqlikda joylashgan.

Lekin turistlarni jalb qilish uchun birgina qulay geografik sharoitning mavjudligi yetarli bo'lmaydi. Turizm sanoatining rivojlanishiga birinchilardan bo'lib Dubay amirligi mablag'lar ajratgan. Ayniqsa neft bumi davrida hukumat neft dollarlarini infrastrukturani rivojlantirishga yo'naltirgan. Loydan qilingan uylarning o'rniga zamonaviy binolar,

mehmonxonalar, banklar, bolalar uchun ko‘ngilochar markazlar qurila boshlandi. Juda ham katta mablag‘larning jiddiy va uzoqqa mo‘ljallangan loyihalarga kiritilishi BAAni XXI asrda katta siljishlar bilan rivojlanib ketishiga olib kelgan.

BAAning turizm sanoatiga ajratgan mablag‘lari yildan yilga ko‘payib borgan. Buni ba’zi mehmonxonalarning chindan ham g‘ayritabiyy xizmatlarni taqdim etib, ko‘pgina mablag‘ ajratayotganliklari bilan izohlashimiz mumkin. Masalan, “Burj al Arab” mehmonxonasi BAAsa tashrif buyuradigan turistlarning xohishiga qarab, ular uchun vertolyotdan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Vertolyot qo‘nishi uchun mehmonxonaning tomida maxsus qo‘nish joyi qurilgan.

Shuni ta’kidlash zarurki, bu kabi xizmatlar mehmonxonaga daromaddan ko‘ra ko‘proq xarajat qilishga olib keladi. Lekin mehmonxona turistlar uchun barcha sharoitlarni yaratish va ilojsiz narsani o‘zi yo‘qligini ko‘rsatish uchun shunday xizmatlarni ko‘rsatadi. Jahon bankining hisobotiga ko‘ra xalqaro turizm xarajatlari bo‘yicha BAA 191 ta mamlakat ichida 24 o‘rinni egallagan⁸³.

BAAda mehmonxonalar uchun 5 yulduzli fransuz tizimi qabul qilingan. Apartament va villalar ham keng tarqalgan.

Mehmonxonalarni guruuhlashda Britaniya turizm agentliklari Uyushmasining tasnifi eng to‘g‘ri hisoblanadi:

Byudjet mehmonxonalar (1 yulduzli). SHaharning markaziy qismlarida joylashgan bo‘lib, minimum darajadagi qulayliklarga ega.

Turizm klassidagi mehmonxonalar (2 yulduzli). Bar va restoranlarga ega.

O‘rta klassidagi mehmonxonalar (3 yulduzli). Xizmat ko‘rsatish yetarli darajada yuqori.

Birinchi klassidagi mehmonxonalar (4 yulduzli). YAshashning juda yuqori darajadagi sifati va xizmat ko‘rsatishning a’lo darjasи.

YUqori klassidagi mehmonxonalar (5 yulduzli). Xizmat ko‘rsatish va yashashning eng oliv klassi.

Dubay amirligi ishbilarmonlik, savdo va turizm markazlari bo‘lib kelmoqda.

Dubay katta mablag‘larni infrastrukturani rivojlantirishga kiritgan bo‘lib, arab mamlakatlari ichida eng etakchi texnologiyalari bilan ajralib turadi. Uning menejmenti g‘arb tizimida olib borilmoqda.

⁸³ UAE economy, www.factfish.com

Dubayda mehmonxonalar soni 500 dan ortiq va ularning sifati yildan yilga yaxshilanib bormoqda⁸⁴.

Dubay mehmonxona fondining katta qismi 4 va 5 yulduzli mehmonxonalaridan iborat. Ushbu darajadagi mehmonxonalarning ko‘pchiligi Fors ko‘rfazida “Jumayra bich” rayonida qirg‘oq bo‘ylab joylashgan. Ushbu rayonlarda 20 yildan buyon shiddat bilan hashamatli mehmonxonalar qurilmoqda. Yetakchi mehmonxona tarmoqlari qatoridan “Accor”, “Hitnot”, “Kempenski”, “Redison” lar muhim o‘rin egallagan.

5 yulduzli eng sara mehmonxonalarga “Royal Mirat” mehmonxonasi kiradi. Mehmonxona uchta dabdabali saroylar “Arabian Court, The Resident and SPA” dan iborat. U Fors ko‘rfazi qirg‘og‘idagi 65 akr⁸⁵ masofani egallagan. Mehmonxona 475 ta serhasham xonalardan iborat bo‘lib, arabcha uslubda bezatilgan. Bu yerda 1100 dan ortiq ishchi xizmat ko‘rsatadi⁸⁶.

Dubay shahri bir qancha diqqatga sazovor joylari bilan yildan yilga turistlarning katta oqimini jalb qilib kelmoqda.

- dunyodagi eng katta bino – Burj–Xalifa. Hozirgi kunda ushbu imorat jahondagi eng baland inshootlar reytingida 1-o‘rinni egallaydi. Balandligi 828 metrni tashkil etadi. Ushbu bino “shahar ichidagi shahar” tarzida loyihalashtirilgan. Ajoyib arxitektura loyihasining muallifi amerikalik arxitektur Edrian Smit bo‘lgan. Qurilish 2004-yil 21-sentyabrda boshlanib, 2010-yilning 4-yanvarida yakunlandi⁸⁷.

- Ski Dubay chang‘i kurorti. Oddiy inson uchun yil bo‘yi quyosh charaqlab turadigan issiq mintaqada chang‘i kurortining bo‘lishini tasavvur qilish qiyin. Dubay shahri uchun ilojsiz narsaning o‘zi yo‘q. Eng yirik savdo markazida 22 500 kv. metr maydonni egallagan chang‘i kurorti qurilgan. Ushbu chang‘i uchish kompleksi butun yil davomida ishlaydi⁸⁸.

- Dunyo arxipelagi. Ushbu ajoyib arxitetura asari ko‘plab kichik sun’iy orolchalardan iborat. Agarda yuqoridan samolyot orqali arxipelagga qaralsa, dunyo xaritasini ko‘rish mumkin.

⁸⁴ World Economic Forum, “The Travel & Tourism Competitiveness Report”, 2011

⁸⁵ акр (Англия ва Шимолий Америкада 0,4047 гектарга тенг ер ўлчови).

⁸⁶ The challenges of economic diversification through tourism: the case of Abu Dhabi. International Journal of Tourism Research, Sharpley R. 2012.

⁸⁷ United Arab Emirates website. <http://www.uae.org.ae> (accessed 10 December 2012).

⁸⁸ The Observer. 2010. Ski in the desert? It could only happen in Dubai. The Observer 20 November.

- Palma orollar. Bu orollar Dubay shahriga doimo tashrif buyuradigan turistlar oqimining ko‘payib borayotganligi uchun, ularni joylashtirish maqsadida qurilgan. Ushbu orollar shakli jihatidan palmalarni eslatadi.

- Deyra soat minorasi. Ushbu minora shahar tashqi ko‘rinishining o‘zgarganini ko‘rsatgan timsol bo‘ldi. Bu ishshoot 1963-yilda, ya’ni neft eksporti boshlanganda qurilgan. Minora Maqtum Bridj ko‘prigining darvozasi oldida turadi.

- Internet Siti Dubay. Ushbu rayon soliqlardan ozod qilingan va o‘zining yuqori texnologiyalari bilan ajralib turadi.

- Dubay amirligining asosiy yo‘li – Shayx Zayd Road. Ushbu yo‘lsiz Dubay shahri bilan tanishish to‘liq bo‘lmaydi. Bu yo‘l Dubay amiri bo‘lmish shayx Maqtum bin Rashid al-Maqtumning sharafiga nomlangan.

- Dubay Marina. Bu rayon shaharning san’at qismini o‘zida aks ettiradi. Bu yerda eng muhtasham mehmonxonalar, savdo va ko‘ngilochar markazlar, zodagonlar saroyi va g‘ayrioddiy binolarni ko‘rish mumkin.

- Al Bastakiya – qadimiy rayon. Ushbu rayon 1890-yillardan buyon zamonaviy Dubayda qadimiyligi bilan alohida o‘rin egallaydi.

- Burj al-Arab mehmonxonasi. Mehmonxonalar ichida butun dunyoga mashhur bu “Burj al Arab” mehmonxonasıdir. Dubayga tashrif buyuruvchi turistlar jahoning eng g‘ayritabiyy mehmonxonasida to‘xtashni istaydilar. Ushbu mehmonxonani so‘z bilan ta’riflash mushkul, uning muhtashamligini ko‘z bilan ko‘rgan afzal. Arab tilida arab minorasi degan ma’noni anglatadi. U elkan shaklida sun’iy orollar o‘rtasida qurilgan. Uning balandligi 320 metr bo‘lib, restoran va favvoralari turistlar qiziqishini orttiradi. Restoran 32000 kv. metrni tashkil etadi. Favvora esa olov shari shaklida bo‘lib, 30 metr balandlikka otilib, 12 qavatga ko‘tariladi va qizig‘i hech kim favvoradan ho‘l bo‘lmaydi. Mehmonxonada har kuni 100 xildagi yangi gullar Tayland va Janubiy Amerikadan olib kelinib, yasatiladi. 1200 dan ortiq ishchilar xizmat ko‘rsatadilar va xattoki 6 ta ishchi xizmat ko‘rsatadigan xonalar ham mavjud. Bu mehmonxonada arab saroylari ham mavjud va ularning narxi 9 barobar qimmat. Mehmonxonaning eng cho‘qqisida lochin yashaydi⁸⁹.

⁸⁹ UAE. 2011. United Arab Emirates Yearbook. Planet: London, 2011

Besh yulduzli mehmonxonalar bilan bir qatorda to‘rt yulduzli mehmonxonalar ham ko‘p. Masalan, “Oasis Beach Hotel” mehmonxonasi Dubay aeroportidan 35 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, ikkita suv havzasi bor oazisni eslatadi. “Jumayra interneshnl” mehmonxona tarmog‘ining savdo va marketing bo‘yicha direktori Bill Uolshning so‘zlariga ko‘ra: “MDH mamlakatlari, xususan, Rossiyadan kelgan turistlar bizning mehmonxonalarimizning doimiy mijozlari bo‘lib kelmoqda. Yangi yil bayramlarida rossiyalik turistlar oilaviy dam olib ketadilar”⁹⁰.

Dubay bu sehrli shahar, uning ko‘rinishi ertaklardek o‘zgarib turadi. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, Dubay sharqona ertak shahridir.

BAA turizmining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri, bu yerga turistlar yilning istalgan paytida tashrif buyurishlari mumkin.

Birlashgan Arab Amirliklari hukumati har yili ko‘proq turistlarni jalb qilish maqsadida turli xil ko‘ngilochar va biznesga oid xizmatlarni amalga oshirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish ustida ishlamoqda. Oxirgi yillar ichida turizm sektorining aylanma mablag‘lari ko‘ngilochar xizmatlar, biznes, konferensiya, ko‘rgazma va boshqalar hisobiga oshdi.

Shuni ta’kidlash lozimki, BAA xalqaro turizm daromadlari bo‘yicha etakchi o‘rinni egallaydi. Jahon bankining hisobotiga ko‘ra 196 ta mamlakat ichida BAA xalqaro turizm tushumlari bo‘yicha 31 o‘rinda va jahonda xalqaro turizm daromadlari ulushi 0,8 % ni tashkil etadi⁹¹.

BAAdan tashqari boshqa FKAMHK davlatlari ham turizm sektorini rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Hali xanuz tushumlarning miqdori bo‘yicha SAP bozori BAAdan oldinda turadi. Qatarga yildan yilga turizm va biznes uchun tashrif buyurayotgan kishilar miqdori oshganligi natijasida u mintaqada eng tez rivojlanayotgan mamlakatga aylanishi kutilmoqda.

Dubay va Abu Dabi amirliklaridan boshqa 5 ta amirlik ham turistlarning katta oqimini o‘ziga jalb qilmoqda. Ushbu amirliklarning BAA turizm sektorining rivojlanishiga ta’sir etuvchi turistik resurslari va omillarining asosiylarini quyida ko‘rib chiqamiz.

⁹⁰ World Economic Forum, “The Travel & Tourism Competitiveness Report”, 2013

⁹¹ UAE economy, www.factfish.com

Ajoyib chiroyli shahar, arxitektura va qadimiy yodgorliklar, qulay mehmonxona, shinam restoran va kafelar SHarja amirligini butun dunyodan keladigan turistlar uchun eng qulay dam olish joyi qilib ko‘rsatadi.

Sharja – iqtisodiy rivojlanganlik darajasi bilan Dubay va Abu Dabi amirliklaridan so‘ng 3 o‘rinda turadi⁹². Bu yerda “Dezert Park” kompleksi juda ham mashhur. Kompleks Arabistonning yovvoyi tabiatini, bolalar fermasi va tabiiy tarix muzeyini o‘zida mujassam etadi. Parkning diqqatga sazovor joylarini ko‘rishga bir kun ketadi.

Sharja arxeologik muzeyida 5000 yillik arxeologik eksponatlar taqdim etiladi. Zargarlik buyumlari, qoyaga o‘yib yozilgan san’at asarlari, mehnat jihozlari, qabr qoldiqlari yo‘qolib ketgan sivilizatsiya va qadimiy madaniyat o‘choqlarini o‘zida aks ettiradi. Turistlar uchun zamonaviy virtual va kompyuter jihozlari ham mavjud.

“Fort al Xisn” muzeyi 1820-yilda qurilgan bo‘lib, oldin ko‘plab hukmdorlar bu yerda kutib olingan. U 200 yil avval shayx Sulton bin Sakr al Qosimiy tomonidan tashkil etilgan. Bu yer turistlar uchun juda ham qiziq. Chunki, bu yerda Sharjaning butun bo‘lib o‘tgan qadimiy rivojlanish davrlarini bilish mumkin.

Qadimiy muzeyda Sharja hukmdorining shaxsiy kolleksiyasidagi islom madaniyatiga tegishli eksponatlar mavjud: islom tangalari, Eron shishalari, 13 asrga tegishli teri va tilladan qilingan islomiy qo‘lyozmalar va boshqalar mavjud.

Tabiiy tarix muzeyida turli tarixiy davrlarni aks ettiradigan 5 ta zamonaviy ko‘rgazma zallari bor. Kompyuter texnologiyalari orqali turistlarga dunyoning paydo bo‘lishi, vulqonlarning otilishi, evolyusiyalar haqida ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, shaharda podshoh Faysalning machiti va xalqaro ekspomarkaz bor.

Mehmonxonalar asosan besh va to‘rt yulduzli bo‘lib, Fors ko‘rfazining qirg‘oq bo‘ylarida joylashgan. Sharja amirligiga turistlar ko‘pincha oilaviy, bolalar bilan tashrif buyuradilar.

Sharjaning turistlarga yoqmaydigan salbiy taraflari: spirtli ichimliklar ichilishining ta’qiqlanishi va kechki ko‘ngilochar klublarning yo‘qligi.

⁹² World Economic Forum, “The Travel & Tourism Competitiveness Report”, 2013

Ijobiy taraflar: mehmonxonalarining dengizga yaqin erda joylashganligi va Dubayga nisbatan ancha past narxda xizmat ko'rsatilishi.

Ajman – bu Sharja bilan chegaradosh BAAning eng kichik amirligi hisoblanadi. Ajman dengiz porti va erkin savdo hududlari bilan mashhur. Ajmanning turizm infrastrukturasi bir nechta mehmonxona, ayniqsa “Ajman Kempensk” mehmonxonasi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu besh yulduzli mehmonxona Germaniya va Rossiya turistlari ichida mashhurdir. Bu mehmonxona “Jumayra” bilan raqobatlashadi. Har yili Ajmanda “Ajman fantaziya” savdo-ko'ngilochar festivali bo'lib o'tadi.

Bir necha yil oldin Abu Dabi amiri shayx Zayd Ajmanga to'rtta minorali katta machitni va zamonaviy muzey majmuasini hadya etdi.

Ras ul -Xayma – bu eng shimoliy amirlik. Arxeologik topilmalar bundan 5000 yil avval amirlikda hayot bo'lganligini tasdiqlaydi. Tog'li yashil erlar amirlikni BAAning eng chiroyli joylaridan biri qilib ko'rsatadi. Bu yerda Arabistonning eng tub aholisi istiqomat qiladi. Ras ul-Xaymaning turizmdagi imkoniyatlari katta, lekin hali xanuz ulardan to'liq foydalanimayapti. Amirlikning shayxi yaqin yillarda Ras ul -Xaymani turizm markaziga aylantirishni rejalashtirgan.

Umm-al-Qayvayn Dubay amirligidan uzoqda joylashmagan uncha katta bo'limgan amirlikdir. Bu yerda turizm infratuzilmasi yuqori rivojlangan va u keng ommaga katta akvapark bo'l mish “Dreamland” bilan mashhur. Bu yerda ayniqsa turizmning ekstremal turlari rivojlangan: mahalliy aeroklub turistlar uchun “past balandlik”da “akulalar uchburchagi” hududidan uchish va ushbu hududda parashyutdan sakrash imkoniyatini beradi. Shuningdek, avto va moto poygalarning zamonaviy majmuasi turistlar oqimini Umm-al-Qayvayn amirligiga jalb qiladi.

Fujayrada dam olish bu nafaqat plyajda hordiq olish, balki baliq tutish, qishda turli rang va ko'rinishda o'sadigan butalarni Xojar tog'larida ko'rish, marjon qoyalardan bahramand bo'lishdir. Ko'plab qadimiy yodgorliklar, machitlar, eski qabrlar va portugal qal'alari Fujayraning qadimiy tarixini aks ettiradi. Bu yerda o'tkazilgan arxeologik qidiruv ishlari 500 yildan ham ko'p tarixga ega bo'lgan qadimiy qurilmalar – qasr, qal'a va minoralarga ishora qiladi. Fort Fujayra (Fujairah Fort) – bu 1670 yilda qurilgan, eski shaharning markazida joylashgan katta qasr. Al Xayl Fort (Al Hail Fort) – 270-300

yil avval qurilgan bo‘lib, shahardan 12 km janubi-g‘arbda joylashgan. Fujayra muzeyida (Fujairah Museum) turli davrlarga mansub noyob yodgorliklar, shuningdek, amirlikning an’anaviy hunarmandchilik buyumlari mavjud. Poytaxtdan 38 km shimolda Bidiyax machiti (Bidiyah Mosque) – 1600 yillarda qurilgan bo‘lib, BAAning eng qadimiy machiti hisoblanadi. Turistlarning shahardan 20 km janubi-g‘arbda joylashgan Ayn Gomur (Ain Ghomour Hot Spring) issiq bulog‘iga qiziqishlari ortib bormoqda. Ajoyib tabiiy landshaftlar, buлоqning shifobaxsh suvi bod va teri kasalliklarini tuzalishiga yordam berishi ko‘plab turistlarni jalb qilmoqda. Fujayradan 32 km shimolda joylashgan Al Variya vohasi o‘zining sharsharalari, mineral buloqlari bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Fujayraning mehmonxonalar o‘ziga xos bejirimligi va binoning ichki bezagi ham zamonaviy, ham arab uslublarida qilinganligi bilan ajralib turadi. Mehmonxona ishchilarini juda ham muloyim va e’tiborli.

Mehmonxona infrastrukturasi ba’zi mehmonxona va yuqori darajadagi motellar bilan taqdim etiladi. Ular ichida besh yulduzli “Meridien Al Aqah Beach Resort” mehmonxonasi yuqori o‘rinni egallaydi.

Fujayrada turizm rivojlanishining salbiy jihatlari – Dubaydan uzoqda joylashgani, xalqaro aeroportning yo‘qligi, kamtarin mehmonxona bazasi hamda ko‘ngilochar infrastrukturaning rivojlanmaganligi hisoblanadi.

Hozircha xalqaro turistik daromadlar xarajatlarni qoplamatayapti. Jadvaldan ko‘rish mumkinki, turizm foydadan ko‘ra zararga ishlamoqda. Ketma-ket BAAning xalqaro turizmida salbiy saldo kuzatilmoqda. BAA hukumati tomonidan infrastrukturani rivojlantirishga yo‘naltirilgan katta mablag‘lar o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmay qo‘ymaydi. Bularning barchasi mamlakatga turistlar kirib kelishini faollashtiradi va keyinchalik daromadlarni oshishiga ham olib keladi.

Aytish mumkinki, Birlashgan Arab Amirliklari xalqaro turizmnинг beshigi bo‘ldi. BAA xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalaniib, jahon turizm markaziga aylangan mamlakatlar qatoridan o‘rin egalladi. Umuman olganda, BAAning turizmdagi faoliyati boshqa mamlakatlarga nisbatan kam farqlanadi.

Sayohat qilayotgan turistlar BAA dan shiddat bilan rivojlanishni talab qildi. Mehmonxonalar, savdo, transport va sanoatning rivojlanishi

buning yaqqol isbotidir. BAA o‘zining geografik jihatdan qulay yerda joylashganligi, qulay iqlim sharoiti, tarixiy joylari, rivojlangan infrastrukturasi, turli xil maqbul xizmatlari bilan xalqaro turistlar oqimini o‘ziga jalb qilib kelmoqda va kelajakda turistik tashriflarni yanada ko‘paytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

2. BAA da turizm rivojlanishining me’yoriy-huquqiy asoslari

Hukumat tizimiga ko‘ra, BAA yetti amirlikdan iborat mamlakatdir. Har bir amirlik o‘z hududida majburiy bo‘lgan o‘z qonunlariga ega, ammo umumiylar federal qonunlar ham qo‘llaniladi. Huquqbuzarlikka qarab, har bir amirlikda turli qonunlar ustunlik qiladi.

Birlashgan Arab Amirliklari islomiy davlat bo‘lib, unda butun hayot Qur’onga qat’iy bo‘ysunadi. Rasmiyarning mamlakatni yangi iqtisodiy bosqichga olib chiqish istagi uni boshqa madaniyat vakillari uchun eshiklarni ochishga majbur qildi, bu dastlab mahalliy aholi tomonidan tanqidiy qabul qilindi. Vaqt o‘tishi bilan mamlakat fuqarolari bunday qadam zarurligiga ishonch hosil qilishdi. Biroq, patriarxal tartibni saqlash, mamlakatda yot xulq-atvor normalari, axloqodob va ochig‘ini aytganda, yomon axloqning tarqalishi va ildiz otishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun qonun hujjatlariga ko‘plab tuzatishlar kiritish zarur edi.

Rasmiylar uchun jamiyatda shariat qonunlariga rioya etilishini nazorat qilish va turistlarning xatti-harakatlari o‘rtasida muvozanatni saqlash juda qiyin. Bu diniy cheklashdan uzoqdir. Yevropaliklar va amerikaliklarga o‘zlarini erkinroq his qilishlariga yordam berish uchun ko‘plab mahalliy taqiqlar mehmonxona hududlari, yopiq plyajlar, tungi klublar va ziyofatlarga taalluqli emas. Ba’zi bir kichik qoidabuzarliklar uchun politsiya ogohlantirish berishi yoki jamoat joyiga kirishingizga to‘sinqilik qilishi mumkin, lekin jarimaga tortmaydi. Ammo bir qator huquqbuzarliklar mavjudki, ular uchun turist albatta jazolanadi⁹³.

Quyida qator turizm sohasida qabul qilingan qarorlarni ko‘rib chiqsak:

Dubay amirligidagi mehmonxona korxonalarini tasniflash mezonlari to‘g‘risida 2018-yil № (1) ma’muriy qarori⁹⁴ qabul qilingan.

⁹³ <https://relocate-uae.com/shtraf-v-dubae-dlya-turistov/>

⁹⁴ https://ded.ae/laws_and_regulations/en/tourism_and_legislations

Mehmonxona muassasalarining sog‘lomlashtirish klublari to‘g‘risidagi 2004-yil № (1) ma’muriy yo‘riqnomasi qabul qilingan.

Dam olish uylari faoliyatini tartibga solish to‘g‘risidagi 2020-yil 1-sonli ma’muriy qarori qabul qilingan.

2020-yil 2-sonli Ma’muriy qarori Turizm dirhami yig‘imini to‘lashni hisoblash qoidalarini belgilash to‘g‘risida qabul qilingan.

2000-yil Dubay amirligida sayyoqlik gidlik kasbini tartibga soluvchi qonun qabul qilingan.

2013-yil 17-sonli Farmon Dubay Amirligidagi mehmonxona korxonalarini litsenziyalash tasnifi to‘g‘risidagi qabul qilingan.

2013-yil 25-sonli Farmon Dubay amirligida e-Litsenziyalash elektron chiptalar tizimi to‘g‘risida qabul qilingan.

Dubay amirligidagi dam olish uylari faoliyatini tartibga solish to‘g‘risidagi 2013-yil 41-son qarori qabul qilingan.

Ijroiya Kengashining 2015-yil № (1) qarori Dubay amirligida elektron chiptalarni litsenziyalash tadbiri uchun to‘lov jarimalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qabul qilingan.

Ijroiya kengashining 2014-yil 2-sonli Dubay amirligida turizm dirhami to‘lovini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan.

Ijroiya Kengashining 2014-yildagi № (10) qarori Ijroiya kengashining 2014-yildagi 2-sonli sayyoqlik dirhami to‘lovini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan.

Ijroiya kengashining 2020-yil 24-sonli Dubay Amirligidagi turistik lagerlar to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan.

Ijroiya Kengashining 2014-yil 48-sonli Mehmonxona korxonalari uchun jarimalarni tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan.

Ijroiya Kengashining 2014-yil 49-sonli Dubay Amirligidagi dam olish uylari uchun jarimalarni tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan.

2013-yil 3-sonli qonun Dubay korporatsiyasining chakana savdo sektorini targ‘ib qilish festivallari to‘g‘risida qabul qilingan.

Dubay Amirligidagi Taymshare tizimi to‘g‘risida 2020-yil 14-sonli Qonun qabul qilingan.

2013-yil 15-son Qonuni Dubayning turizm savdo marketingi korporatsiyasini tashkil etish to‘g‘risida qabul qilingan.

Sayyoqlik tashkilotlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi 2006-yildagi (6)-sonli Nizomga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi 2009-yil (1)-son Nizom qabul qilingan.

Dubayda turizm sektorida ishlaydigan shaxslarning malakasi to‘g‘risidagi 2000-yil № (2) Nizom qabul qilingan.

Sayyohlik tashkilotlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi 2006-yil 6-sonli Nizom qabul qilingan.

Ijroiya Kengashining 2015-yil № (2) qarori Dubay amirligida elektron chiptalarni litsenziyalash tadbiri uchun to‘lov jarimalarini tasdiqlash to‘g‘risida qabul qilingan.

3. BAA da turizm rivojlanishining dinamikasi

Covid-19 epidemiyasidan oldingi 10 yil ichida Dubayga chet ellik sayyoohlari soni yiliga o‘rtacha 8% ga barqaror o‘sib bordi. Eng yuqori cho‘qqi 2019-yilda shaharga 16,7 million kishi tashrif buyurgan paytda sodir bo‘ldi, bu Dubay aholisiga nisbatan taxminan 5 sayyoohni tashkil etdi. 2019-yilda sayyoohlari soni bo‘yicha bu shahar dunyoda faqat Bangkok, Parij va Londondan keyin to‘rtinchli o‘rinni egalladi.

Covid-19 epidemiyasi Dubayning turizm bozoriga qattiq ta’sir qildi, ammo shuni ta’kidlash kerakki, kamroq qat’iy cheklovlar tufayli sayyoohlari oqimining pasayishi boshqa mashhur sayyohlik shaharlarida bo‘lgani kabi kuchli emas edi va bozorning tiklanishi ancha tezroq bo‘ldi.


2020-yil iyul oyida Dubay chet ellik sayyoohlari uchun o‘z chegaralarini ochgan va 2020-yil oxiri 2021-yil boshida bu yerda bir nechta yirik ko‘rgazma va festivallar bo‘lib o‘tdi. 2021-2022-yillarda turizmning ulkan Dubay Expo 2020 ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. U 6 oy davom etdi va butun dunyodan 13 milliondan ortiq sayyoohni jalb qildi.

2023-yilda Dubaydagi sayyoohlari soni Koviddan oldingi darajadan oshib, 18 million kishiga yetishi kutilmoqda.

Turizm Dubay va umuman BAAAdagi eng muhim sohalardan biridir. 2019-yilda turizm sektori BAA yalpi ichki mahsulotiga taxminan 12 foiz hissa qo‘shti va uning ulushi doimiy ravishda oshib bormoqda. Masalan, 2000-yilda turizm sohasi yalpi ichki mahsulotning atigi 4,2 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2013-yilda bu ko‘rsatkich 8,3 foizni tashkil etgan edi.

Bundan tashqari, aynan Dubayda mamlakatning turizm sektoridan tushadigan daromadlarning katta qismi to‘plangan. Shunday qilib, World Travel & Tourist Council ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda BAA da turizm sektoridan tushgan daromadning 57 foizi Dubay hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Dubayga dunyoning turli burchaklaridan sayyoohlar kelishadi. Biroq, eng ko‘p sayyoohlar kelgan mamlakatlar uchligi so‘nggi yillarda o‘zgarishsiz qolmoqda.




1-rasm. Dubayga kelgan xorijiy sayyoohlar soni (2009-2022)

Bu Hindiston, u bilan Dubay ajoyib havo aloqalariga ega (kuniga 70 dan ortiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslar). Bundan tashqari, Dubayda 3 millionga yaqin hindistonlik migrantlar yashaydi va hindistonlik sayyoohlarning munosib ulushi ularning qarindoshlari va do‘stlaridir.

Kuchli uchlikka qo‘shti Omon sultonligi ham kiradi. Bu mamlakatdan ko‘pchilik sayyoohlar Dubayga dam olish kunlari yoki qisqa ta’til kunlari tashrif buyurishadi.

Bundan tashqari, Dubay Saudiya Arabistonidan shaharga dam olish va xizmat safari bilan kelgan sayyoohlar orasida mashhurdir.



2-rasm. Dubaydagи sayyoohlar soni bo‘yicha yetakchi 10 ta davlat (2022)

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, har to'rt sayyohdan uchtasi Dubayga dam olish uchun keladi va har o'ninchi sayyoh oilasi va do'stlari bilan ziyyorat qilish uchun keladi.

1-jadval

BAA ga tashrif buyuradigan turistlarning tashrif buyurish maqsadlari

Tashrifdan maqsad/ yil	2019	2020	2021
Dam olish	75%	74%	71%
Biznes	14%	12%	16%
Friends&Family (F&F)	10%	13%	12%
Boshqa	1%	1%	1%

2-jadval

2022-yilda Dubaydagi mehmonxona biznesi bo'yicha statistik ma'lumotlar

Mehmonxonalar soni	804
Mehmonxona xonalari soni	147 ming
5* mehmonxonalarda	50 ming (34%)
4* mehmonxonalarda	43 ming (29%)
1*-3* mehmonxonalarda	28 ming (19%)
B hotel apartmens lux	13 ming (9%)
B hotel apartmens standard	13 ming (9%)
O'rtacha bandlik	73%
Bir kecha uchun o'rtacha narx	134 yevro

F&F (oil ava do'stlar) turistlarining haqiqiy soni bundan ham yuqori, chunki rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, barcha sayyohlarning 80 foizi mehmonxonalarda, 20 foizi esa qarindoshlari va do'stlari bilan qolishadi. Turistlar Dubayda o'rtacha 6 kun o'tkazadilar.

Juda issiq iqlimi tufayli Dubay qishki sayohat va dam olish maskani hisoblanadi. Sayyoohlар uchun eng mashhur oylar noyabr, dekabr va yanvar. Ushbu oylarda yozning jaziramasi allaqachon pasaygan, ammo suv harorati hali ham suzish uchun qulay bo‘lib qolmoqda. Sayyoohlар sonining keyingi kichik cho‘qqisi mart-aprel oylariga to‘g‘ri keladi.

Sayyoohlар orasida eng kam mashhur oylar maydan oktyabrgacha, BAAda issiq mavsum boshlanadi va o‘rtacha havo harorati 35-40 C ga yetadi.

Ushbu statistik ma’lumotlar Dubayda har qanday byudjetga mos keladigan mehmonxonalarining katta tanloviga ega ekanligini aniq ko‘rsatmoqda, ammo shuni ta’kidlash kerakki, arzon mehmonxonalar ko‘p emas. 2022-yilda ularning o‘rtacha bandlik darajasi 90% ni tashkil etdi, ya’ni eng yuqori oylarda u yerda xonani ijaraga olish qiyin bo‘lishi mumkin. Agar Dubaydagi byudjetli mehmonxonada qolish muhim bo‘lsa, uni oldindan bron qilish kerak.

Bundan tashqari, Dubayda mehmonxona qidirayotganda, qimmat besh yulduzli mehmonxonalarining aksariyati Downtown, Jumeirah va Palm Jumeirahda joylashgan. Arzon byudjetli mehmonxonalar asosan Deyra hududida joylashgan.

BAA aholi tarkibi bo‘yicha o‘ziga xos amirlik hisoblanadi. Bu yerda 10 million kishi istiqomat qiladi, ularning 89 foizi chet elliklardir. Ya’ni mamlakatda yashovchi har 10 kishidan 9 nafari bu yerga ishslash uchun kelgan. Amirliklar, ya’ni mamlakatning tub aholisi, bor-yo‘g‘i 1 millionga yaqin.

BAA aholisining 69 foizi erkaklar, atigi 31 foizi ayollar. Erkaklarga nisbatan bunday katta talab mamlakatda jismoniy kuch talab qiladigan mutaxassisliklarga talab katta ekanligi bilan izohlanadi.

Yosh tarkibiga ko‘ra, mamlakat aholisining deyarli yarmi 25-54 yoshdagi erkaklardir. Bu erkaklarning aksariyati Janubiy Osiyo davlatlaridan BAA ga qurilish maydonlarida ishslash uchun kelgan migrantlardir.

Umuman olganda, BAA dagi migrantlarning umumiyligi soniga kelsak, hindlar birinchi o‘rinda, Pokiston ikkinchi va Bangladesh uchinchi o‘rinda turadi. Qizig‘i shundaki, hindistonlik migrantlar BAA umumiyligi aholisining 28 foizini yoki deyarli uchdan bir qismini tashkil qiladi.

Amirliklarning o‘zlari qaysi mamlakatlarga sayohat qilishlarini ko‘rib chiqaylik. 2019-yilda BAA aholisi uchun eng mashhur sayohat yo‘nalishlari⁹⁵:

- Saudiya Arabiston;
- Buyuk Britaniya;
- Omon sultonligi;
- Fransiya.

2022-yilning yanvar-iyun oylari orasida Dubayga bir kechada 7,12 million chet ellik tashrif buyuruvchi tashrif buyurdi, bu 2021-yilning xuddi shu davrida Dubayga tashrif buyurgan 2,52 million sayyohga nisbatan tashrif buyuruvchilar sonining 183 foizga oshganini ko‘rsatdi.

2022-yilning birinchi yarmidagi ushbu ijobiy tendensiya shaharni 2022-yil va undan keyingi yillarga mo‘ljallangan turizm maqsadlariga erishish yo‘lidan qat’iy ravishda yo‘lga qo‘yadi va afzal qilingan xalqaro yo‘nalish sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Dubay valiahd shahzodasi va Dubay Ijroiya kengashi raisi Oliy hazratlari shayx Hamdan bin Muhammad bin Rashid Al Maktum shunday dedi: “Birlashgan Arab Amirliklari vitse-prezidenti va Bosh vaziri va Hukmdori shayx Muhammad bin Rashid Al Maktumning qarashlari. Dubayni kelajak shahriga aylantirish va yashash, ishlash va sarmoya kiritish uchun dunyodagi eng yaxshi joy Dubayning turizm sektorini qayta tiklashga olib keldi. Turistlar sonining o‘sishi amirlik iqtisodiyotining kuchliligi va dinamikligini aks ettiradi. Oliy hazratlarining qarashlari

Dubayga kuchli va barqaror iqtisodiy poydevor va jonli biznes ekotizimini yaratishga yordam berdi va bu uni turli sohalar uchun yetakchi global markazga aylantirish imkonini berdi. Xalqaro sayyoohlar sonining tez o‘sishi Dubayni dunyoning eng ko‘p tashrif buyuradigan joyi bo‘lishdek ulug‘vor maqsadiga erishishga undaydi. Keyingi yillarda, 2022-yilning birinchi yarmida qayd etilgan sayyoohlar soni 2019-yilning birinchi olti oyida, Dubayga 8,36 million sayyoh kelganida erishilgan ko‘rsatkichlarga yaqin edi. Jahon iqtisodiyoti va turizm sektoriga misli ko‘rilmagan muammolar va boshqa makroiqtisodiy omillar ta’sirini hisobga olsak, amirlikning tezda pandemiyadan oldingi darajaga yaqin turizm darajasiga qaytish qobiliyati yanada ajoyibdir”.

⁹⁵ <https://drawmeaplanet.ru/dubai-statistics/>

Mintaqaviy nuqtai nazardan, G‘arbiy Yevropa mintaqasi BAA ga tashrif buyurgan turistlarning salmoqli qismini tashkil etdi, bu 2022-yilning birinchi olti oyida jami xalqaro tashrif buyuruvchilarning 22 foizini tashkil etdi.

Fors ko‘rfazi mamlakatlari ta’sir ko‘rsatishda davom etdi, bu umumiylar xalqaro tashrif buyuruvchilarning 34 foizini tashkil etdi va Dubayning yaqin bozorlardan tashrif buyuruvchilarni ishonchli va afzal yo‘nalish sifatida jalb qilishini ta’kidladi.

Bu hududlardan keyin 16% ulush bilan Janubiy Osiyo, Rossiya, MDH va Sharqiy Yevropa birligida 2022-yilning birinchi yarmida jami tashrif buyuruvchilarning 11% ni tashkil qiladi. Keng geografik qamrov Dubayning keng ko‘lamli mamlakatlar va tashrif buyuruvchilar segmentlaridan trafikni jalb qilish bo‘yicha diversifikatsiyalangan strategiyasini aks ettiradi, bu esa har qanday mintaqaga haddan tashqari ishonish bilan bog‘liq xavflarni kamaytiradi.

Dubay mehmonxonalarining keng assortimenti 2022-yilning birinchi yarmida barcha mehmondo‘stlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha yana bir ajoyib ko‘rsatkichni taqdim etdi.

Mehmonxona sektorining 2022-yilning yanvar-iyun oylari orasida o‘rtacha bandlik darajasi 74% ni tashkil etdi, bu dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, 62% dan yuqori. 2021-yilning birinchi yarmida farq 12 foiz punktni tashkil etdi, bu 2019-yilning birinchi yarmida pandemiyadan oldingi davrda qayd etilgan 76 foiz bandlik darajasidan past. 2019-yil iyun oyi oxirida 714 ta muassasada mavjud bo‘lgan 118 345 ta xonaga nisbatan, 2022-yil iyun oyi oxiriga kelib, Dubayning mehmonxonalar portfeli 773 ta mehmonxonada mavjud bo‘lgan 140 778 ta xonani tashkil qildi. Shu bilan birga, 2022-yilning birinchi yarmida mehmonxonalarning umumiylar soni 2021-yilning birinchi yarmiga nisbatan 8 foizga oshdi.

Dubaydagi mehmonxona korxonalari yilning birinchi olti oyida jami 18,47 million tunni band qildilar, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 30,4 foizga va 2019-yilning birinchi yarmidagi pandemiyadan oldingi davrga nisbatan 18 foizga ko‘p. Bu esa 15,71 million ishchi band bo‘lganini ko‘rsatdi.

So‘nggi ma’lumotlar Dubayga tashrif buyurilishi kerakligi va Dubay Tripadvisor Travellers’ Choice Awards 2022-da dunyoda 1-o‘rinni egallaganini yana bir bor tasdiqlaydi. BAA xalqaro

kompaniyalar va bozordagi savdo tadbirlari orqali global auditoriyani jalb qilishda davom etmoqda.⁹⁶

Shuningdek, u xalqaro sayohat, biznes va tadbirlar uchun eng mashhur shaharlardan biri bo‘lib qolmoqda. Birinchi navbatda, joriy yilning 31-marti oxirigacha 24 milliondan ortiq tashrif buyuruvchilarni jalb etgan olti oylik Expo 2020 Dubay ko‘rgazmasi, shuningdek, mahalliy hamkorlar va global hamkorlarning doimiy qo‘llab-quvvatlashi bilan bog‘liq. Dubay xavfsiz, ochiq va kirish mumkin bo‘lgan turli yo‘nalish sifatida namoyish etiladi. Ko‘plab festivallar, dam olish va biznes tadbirlari, jumladan Dubay Savatga Festivali, Dubay Oziq-ovqat Festivali, Gulfood va Dubay Jahon Kubogi, Jahon hukumati sammiti, Binance blokcheyn haftaligi, Dubai Desert Classic, Duty Free Tennis chempionati, Gulfood, Dubai International Boat Show va Arabian Travel Marketlarning ham aynan bu yerda o‘tkazilishi ham Dubayda turizm sektorining o‘sishga hissa qo‘shdi.

BAAda xalqaro turizm rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va istiqbollarini tahlil qilish natijasi quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

BAA iqtisodiyotida xalqaro turizm bir qator muhim vazifalarni bajaradi:

- mamlakat uchun valyuta tushumlarining va bandlikni ta’minlash manbai hisoblanadi.
- to‘lov balansi va mamlakat YAIMiga yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalarni kengaytiradi.
- turizm sohasiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni yaratgan holda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga o‘z hissasini qo‘shadi.
- turizm sohasi evaziga bandlikni ta’minlash bilan bir qatorda aholining daromadlari o‘sadi va farovonlik darajasi ham oshadi.
- BAA yildan-yilga o‘zining barqaror siyosiy holati va bir nechta omillar ta’sirida xalqaro turizm markazlaridan biriga aylandi: geografik jihatdan qulay erda joylashganligi, mavsumiy qulay iqlim sharoiti hamda yuqori darajada infrastrukturaning rivojlanganligi.

BAAda xalqaro turizm bozorini segmentlash quyidagi asosiy belgilar orqali amalga oshirildi: geografik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, psixografik, xulqiy (hatti-harakat, yashash tarzi).

⁹⁶ <https://avia.ooo/The-number-of-tourists-in-Dubai-is-growing/>

BAAgan tashrif buyuradigan turistlar asosan quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydilar: dam olish, biznesga oid ishlar, davolanish va boshqalar.

– O‘zbekistonndagi qulay sarmoyaviy muhit mamlakatimizda BAA sarmoyasi miqdorini ko‘paytirish uchun yaxshi omildir. Bunda asosan turizmni, shahar infratuzilmasini rivojlantirish sohalariga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

– BAA hozirgi kunda turizmning zamonaviy infrastrukturasiini, shu jumladan, transport, telekommunikatsiya, axborot xizmatlari kabilarga investitsiyalar kiritmoqda. Chunki turizm sohasiga kiritilgan investitsiyalar mamlakatga turistlar kirib kelishini faollashtiradi va o‘z o‘rnida mehmonxonalarga bo‘lgan talabni oshiradi. BAA mehmonxonalarida “sifat-baho” shioriga qattiq amal qilinadi. Bizning respublikamizda mavjud mehmonxonalardagi narxlar ba’zi bir sabablarga ko‘ra jahondagi o‘rtacha narxlardan yuqori bo‘lib, turistlarning mehmonxonalarga bo‘lgan talabidan yuqoridir. Hozirgi vazifa ulardagi narxlarni qayta ko‘rib chiqishdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, BAA da hozirda asosiy masala – raqamlashtirish sharoitida iqtisodiyotni divesifikatsiya qilishdan iborat. Shu o‘rinda BAA rahbariyati mamlakatda xalkaro konferensiyalar, ko‘rgazmalar o‘tkazish, infrastrukturani, axborot texnologiyalarni rivojlantirishga katta e’tibor bermoqda. Natijada YAIM tarkibida turizm sektori 2021-yilda 12% ni tashkil qildi. Mamlakat rahbariyati milliy iqtisodiyotda turizm rolini yanada oshirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’kidlash lozimki, Amirliklar tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va bu tajriba rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

IX BOB. O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1. O'zbekistonning turizm salohiyati

O'zbekiston Respublikasi o'zining qadimiy shaharlari, to'rt faslga ega turli tabiiy-iqlimiylar sharoitlari, boy tarixiy madaniy meroslari, ko'ptarmoqli iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmasi, mehmondo'st xalqi va milliy bayramlari bilan dunyo turizmida o'ziga xos o'rin egallaydi. Mustaqillikdan keyingi qisqa muddat ichida O'zbekiston ushbu sohani jadal o'zlashtirib, xalqaro maydonga shiddat bilan kirib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil mamlakatda 7 mln. ga yaqin turist sayohat qilgan. Turizmdan keladigan daromad 1,1 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lib, bu YAIMning 2,3 foizini, xizmatlar eksportining 40 foizini tashkil etgan. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadi, 2019-yilda respublikaga kirib kelgan sayyoohlар soni 2016-yilga nisbatan 3,3 baravar oshgan. O'sha yili qariyb 6,7 million nafar turist O'zbekistonda sayohat qilgan. Buning natijasida 1,6 milliard dollarlik turistik xizmatlar eksporti amalga oshirilgan. Mazkur ko'rsatkich 2016-yilda 430,7 million dollarga teng bo'lgan edi.

Turizm sohasiga gidlarni tayyorlash yo'nalishida ham ijobjiy natijalar kuzatilmogda. Jumladan, 2018-yilda gidlar 574 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning 1-iyul holatiga ularning soni 2,4 ming nafarga teng bo'ldi.

O'zbekistonda 2016-yilda turistik tashkilotlar soni 484 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning 1-iyul holatiga ularning soni 1 ming 604 taga yetdi. Shundan 2022-yil davomida 112 ta yangi turistik tashkilotlar ish boshladi va 350 ga yaqin yangi ish o'rni tashkil qilindi.

2018-yilda 106 ta oilaviy mehmon uylari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa, 2022-yilning 1-iyuliga kelib, ularning soni 2 ming 667 taga yetdi. Shundan 223 tasi 2022-yilning o'zida foydalanishga topshirilgan.

Bu raqamlar respublikada turistik sayohatlarning o'sib borish dinamikasini ko'rsatadi.

O'zbekistonda xorijiy mamlakatlar uchun vizasiz rejim tadbiq etilgani ham sayyoohlilik rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2018-yil 15-iyuldan elektron kirish vizalarini berish tizimi yo'la qo'yildi va

bu tizimdan 57 ta davlat fuqarolari foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi hamda 101 mamlakat fuqarolari uchun vizasiz tranzit rejimi joriy etildi.

Shu bilan birga, xorijiy sayyoohlarga bir qator qulayliklar yaratildi. Xalqaro aeroportlarda “yashil” va “qizil” yo‘lak tizimi yo‘lga qo‘yildi, tashrif buyuruvchilar aeroportdan o‘rtacha hisobda 2-3 soatda chiqib ketish vaqtiga 15-20 daqiqada amalga oshiriladigan tizim yaratildi. Mamlakatga tashrif buyurgan sayyoohlarni ro‘yxatga olish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish maqsadida xorijiy fuqarolarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi elektron shaklga o‘tkazildi.

Bularning samarasi o‘laroq, O‘zbekiston o‘tgan yil mobaynida New York Times (AQSH) va Gardian (Buyuk Britaniya) nashrlarining reytinglarida “Dunyoning turizm bo‘yicha eng ommabop mamlakati”, Wegoplase sayohatchilar portalı tomonidan “Dunyoning eng xavfsiz 5 mamlakatidan biri” hamda CrescentRating (Singapur) va Mastercard tashkilotlari tomonidan “Dunyoning ziyorat turizmi bo‘yicha eng ommabop 10 ta mamlakatidan biri” sifatida yuqori o‘rinlarda e’tirof etildi.

Turizm respublikamiz iqtisodiyotida kishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoklar qatori o‘zining munosib o‘rniga ega. O‘zbekiston boy ma’naviy-madaniy merosga, turli-tuman tarixiy-arxeologik ob’ektlarga, qulay tabiiy-iqlim sharoitiga va ko‘p tarmoqli ijtimoiy infratuzilmaga ega bo‘lib, bu esa turizmning turli shakllarini jadal rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Mamlakatimizda ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko‘paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolda hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo‘lgan turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning samarasi o‘laroq, qisqa vaqt ichida respublikada turistik sohani rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekistonning turizm salohiyatini kompleks ravishda rivojlantirishga yo‘naltirilgan 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, ular o‘z navbatida turizm sohasidagi yangi davlat siyosatiga asos bo‘ldi, turizm sohasidagi sub’ektlarga ahamiyatli tarzda soliq va bojxona imtiyozlari va afzalliklarini berdi.

O‘zbekistonda turizm sohasining izchil rivojlantirilishi mamlakatimizni ushbu yo‘nalishdagi yuqori ko‘rsatkichli xalqaro reytinglarga

kiritish imkonini berdi. Xususan, 2022 yilda O‘zbekiston 10 ga yaqin nufuzli nashrlar (“The New York Times” (AQSh), “The Guardian” (Buyuk Britaniya), reyting kompaniyalari va portallari (“Crescent Rating”, “Wegoplace”) tomonidan eng sayohatbop turistik mamlakatlardan biri sifatida tan olindi.

2022-yil Fransiyaning Luvr muzeyida o‘tkazilgan “O‘zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo‘llari chorrahasida” xalqaro ko‘rgazmada 260 mingdag ortiq odam tomoshada ishtirok etdi. Parijning mashhur muzeyida namoyishni uyushtirish uchun 70 dan ortiq nodir kulolchilik, yog‘och, metall, devoriy san’at va qog‘oz buyumlari qayta tiklandi. Unda O‘zbekiston muzeylaridan jami 138 ta eksponat taqdim etildi. Mintaqaning boy madaniy merosi ilk bor dunyodagi eng yirik muzeylardan birida namoyish etilib, Buyuk Ipak yo‘li tarixini xalqaro jamoatchilikka ko‘rsatib berdi.

Ekspozitsiyada monumental va dastgoh san’ati obyektlari, devor rasmlari, saroylarning o‘ymakorlik detallari, san’at va hunarmandchilik buyumlari namoyish etildi. Sayyoohlar eramizdan avvalgi V-VI asrlardan temuriylar davrigacha bo‘lgan tarixni qamrab olgan jami 138 ta nodir buyumlarni tomosha qilishdi.⁹⁷

2023-yil Xitoyning Pekin shahrida o‘tkazilgan xalqaro turizm ko‘rgazmasida O‘zbekistonning sayyoohlik salohiyati namoyish etildi. 1 mln dan ziyod mahalliy va xorijiy mehmonlarga O‘zbekiston o‘zining turistik ko‘chmas mulki, turistik tovarlari, maxsus shaharlar, intellektual turizm, sport turizmi, tibbiy turizm kabi yo‘nalishlardagi loyihibarini namoyish etdi.

1995-yildan e’tiboran Toshkent shahrida har yili “O‘zekspomarkaz”da “Ipak yo‘lida turizm” nomli xalqaro turizm ko‘rgazmasi o‘tkazilib kelinadi. Bu nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun muhim an'anaviy tadbir bo‘lib qolgan. Bunda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan mutaxassislar o‘zaro o‘rtoqlashadilar, tajriba almashadilar. Boysun 2001-yilda YUNESKO tomonidan “Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy madaniy merosi” durdonasi sifatida e’tirof etilib, 2008-yilda YUNESKOning “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi” reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi. Bunday nodir boylikni jahonda keng tarannum etish maqsadida “Boysun bahori” ochiq folklor festivaliga asos solindi.

⁹⁷ <https://www.gazeta.uz/uz/>

Mazkur festivalni o'tkazilishi nodir boylikni jahonda keng tarannum etish barobarida Surxon vohasida turizmni rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.⁹⁸

2019-yil BMT Juhon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston dunyoning eng tez rivojlanayotgan birinchi 20 talik qatorda to'rtinchi o'rinni egalladi. O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyati o'zining geografik joylashuvi, orografik va iqlim resurslari, suv havzalari va ulardan turizmda foydalanish imkoniyatlari, biogen resurslari, tabiiy go'zal landshaftlari bilan belgilanadi. Mutaxassislar O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini, birinchi navbatda, bu yerda saqlanayotgan tarixiy va madaniy yodgorliklar tufayli juda yuqori baholamoqda. Buyuk Ipak yo'li mamlakat hududidan o'tgan, aynan shu yerda Temur o'z imperiyasining markazi – Samarqandga asos solgan, bu yerda buyuk Buxoro amirligining poytaxti bo'lgan. O'zbekistonda 160 ta musulmon yodgorliklari va so'fiylik bilan bog'liq o'nlab ziyoratgohlar, masalan, Toshkentdag'i Zangiota maqbarasi, Buxorodagi Bahouddin ansambli mavjud. Bu omillarning barchasi O'zbekistonning bugungi kunda jozibador sayyohlik maskaniga aylanishiga ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga tabiiy ahamiyatga molik bo'lgan qo'riqxona, buyurtma va milliy bog'lar bor. Qashqadaryo viloyati Kitob shahrida dunyodagi 5 ta kenglik stansiyasining biri joylashgan, u yerga yaqin osmon jismlari, asteroidlar harakatini kuzatadi.

O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinyapti. Masalan, 2007-yilda Toshkent shahri, 2020-yilda Buxoro shahri Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilingan.

2019-yilning 21-23-fevral kunlari Buxoro shahrida o'tkazilgan "I Xalqaro ziyorat turizmi forumi"da O'zbekistonni ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e'tirof etish to'g'risida "Buxoro deklaratsiyasi" qabul qilingan. Mastercard va Crescent Rating tashkilotlari tomonidan tuzilgan "Juhon musulmon sayohati indeksi 2019" xalqaro reytingiga ko'ra, O'zbekiston dunyoda musulmon sayyoohlarni jalb qilayotgan mamlakatlar yigirmataligiga kirdi. Shu

⁹⁸Курбонов А., Хўжаназаров А. Туризм соҳасида янги босқич//“Бойсун-баҳори” очиқ фольклор фестивалини “Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти”. Халқаро илмий амалий конференция мақолалар тўплами. 48-51 б.

bilan birga, respublika Halal Travel Frontier 2020-yil hisobotida islomiy merosni qayta tiklash orqali musulmonlar turizmi bozorida yangi trendga asos solgan mamlakat sifatida e'tirof etilgan.⁹⁹

Mazkur salohiyatga erishishda Buyuk Ipak yo'li deb atalmish eramizdan avvalgi II asrda mazkur hududdan o'tgan karvon yo'lining ahamiyati katta. O'ziga xos milliy an'ana va urf-odatlar, madaniyat, din, hunarmandchilik, arxitektura, ziyoratgohlar-bularning barchasi qadimdayoq dunyo ahlini lol qoldirgan. Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan O'zbekiston Respublikasi o'zining ko'plab me'moriy yodgorliklari, ajoyib tabiat manzaralari, muhtasham saroylari, o'tmisht tsivilizatsiyalari qal'alari xarobalari, jonli madaniy tadbirlari, gastronomik lazzatlari va mashhur hunarmandchilik ustaxonalari bilan qadimdan dunyoga dong taratib kelgan. Tarixiy shaharlarimiz to'g'risidagi ilk yozma manbalar antik davr olimlari-Ptolemy, Ktesiy, Strabon, Pompey Trog, Yustin, Arrian va boshqalarning asarlarida keltirilgan. Qadimgi shaharlarning tarixiyu tavsifini xorijlik tarixchilar, sayyoohlar, elchilar, jumladan, Marko Polo, Ibn Battuta, al-Istaxriy, al-Mukaddasiy, at-Tabariy, Chjan Syan, Si-ma Syan, Syuan Szan, Fu An, mahalliy olimlardan- Beruniy, Farg'oniy, Xorazmiy, Koshg'ariy, Ulug'bek, Bobur va boshqalarning kitoblarida uchraydi. Amir Temur boshqaruvi davrida ispan elchisi Gonsales de Klavixo Samarqand shahrida bo'lib, o'z kundaliklarida uning juda boyligi va buyukligini, atrofdan bog' va uzumzorlar bilan o'ralganini chiroyli tavsiflagan.¹⁰⁰

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1700-yilda dunyoda jami 31 ta aholi soni eng ko'p-yuz minglik shahar bo'lgan bo'lsa, ular orasida Samarqand va Buxoro ham bo'lgan. Shundan bilish mumkinki, o'sha davrda O'zbekiston shaharlari "dunyoviy shaharlar" qatoriga kirgan.¹⁰¹

Qadimgi shaharlarimiz o'rta asrlardayoq dunyo shaharlari bilan raqobat qilgan, o'zining betakrorligi, milliy arxitektura uslublari, ulug'vorligi va salobati bilan shuhrat qozongan. Xalqimiz: "agar qudratimizni bilmoqchi bo'lsang, qurgan shaharlarimizni ko'r" deb bejiz aytmaydi. Hozirda dunyo ahli asrlardan meros qolgan

⁹⁹ Умаралиев И. О'zbekistonda turizm kecha va bugun. <https://daryo.uz/k/2023/02/04/>

¹⁰⁰ Гонсалес де Клавихо Р. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). М., 1990.

¹⁰¹ Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. –Ташкент, Университет: 2002.-48 с.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Termiz shaharlari orqali O‘zbekistonni tanishmoqda.

Samarqand-nafaqat O‘zbekiston, balki musulmon olamining poytaxti bo‘lgan. Asrlar davomida Osiyoniyevropa bilan bog‘lovchi transkontinental magistral yo‘lda joylashgani bois, “Buyuk Ipak yo‘lining yuragi” deb nom oldi. Qadimiyligi va salohiyatiga ko‘ra Rim, Afina bilan tenglashtiriladi. Amir Temur davrida Movarounnahr davlati poytaxti etib tanlanganda o‘zining eng yuqori gullab-yashnash nuqtasiga yetdi. Bu vaqtda keng qamrovdagi shaharsozlik ishlari amalga oshirildi. Buyuk hukmdor Samarqandda o‘z davrining eng mohir hunarmand va ustalarini to‘pladi va ular yaratgan ishlar asrlar mobaynida yashab kelmoqda. Amir Temurning nevarasi Ulug‘bek bu an’analarni davom ettirdi. Bugungi kunda Samarqandagi yodgorliklar, xarobalar, madrasa, maqbara va minoralarda yurtimiz tarixi saqlanib qolgan.

Samarqandni dunyoga mashhur qilgan afsonaviy Registon maydonidir. U dunyoda tengi yo‘q tarixiy durdonadir. Qadimda bu maydon Samarqandning savdo va ijtimoiy markazi bo‘lgan. Bu yerda bir necha asrlik uch ulkan binolari Ulug‘bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari qad ko‘targan bo‘lib, Temur nabirasi Ulug‘bek davrida qurilgan. Go‘ri-Amir maqbarasi qadim Samarqandning ko‘rki hisoblanadi. Bu yerda buyuk davlat hukmdori Amir Temur va uning ikki nevarasi, jumladan, sharqning buyuk olim va mutaffakiri Mirzo Ulug‘bek qabrlari joylashgan. Ulug‘bek rasadxonasi, Bibi-Honim, Shoxi-Zinda maqbaralari, qadimgi Afrosiyob xarobalari, Al-Buxoriy majmuasi, Ruxobod mavzoleyi, Hazrat Xizr masjidi va yana bir qancha yodgorliklar dunyo ahlini o‘ziga rom etib keladi.

2021-yilda Samarqand shahridagi “Silk Road Samarkand” sayyohlik majmuasida O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyatining “O‘zbekiston madaniy merosi – yangi Renessans asosi” VII xalqaro kongressi bo‘lib o‘tdi.

Buxoro shahri 2500 yillik tarixga ega. Bu yerda 150 ga yaqin qadimiy yodgorliklar saqlanib qolgan. Qadimdan musulmon olamida Buxoroi Sharif deb nomlangan bu shahar qadim Buyuk ipak yo‘li chorrahasi sifatida o‘rta asrlarda fan, madaniyat, savdo-sotiq va sayyohlik markazlaridan biri sifatida dovrug‘ qozongan. Buxoro viloyati tabiat, tarixi va madaniyati o‘ziga xos bo‘lib, bu tarixiy

yodgorliklari hamda madaniy yodgorliklarining tarqalishida ham aks etgan. Eramizgacha IV asrda bunyod etilgan ulkan Ark saroyi, Buxoro hukmroni Arslon Xon qaroriga muvofiq 1127-yil qurib bitkazilgan shaharning hamma inshootlarini birlashtirgan “Minorai Kalon”, 1620-yilda qazilgan Labi Xovuz, shuningdek, Ko‘kaldosh madrasasi, Xonaqa va Nodir Devon Begi madrasalari, Buxoroning oxirgi Amiri qurdirgan Sitorai –Moxi Xossa saroyi dunyoga mashhur. Somoniylar maqbarasi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Poyi kalon ansambli, Masjidi kalon, Mir Arab madrasasi, Ulug‘bek madrasasi, Bolahovuz masjidi va boshqalar saqlanib qolgan. Shahar ilm fan va ma'rifat markazi, uzoq yillar poytaxt bo‘lgani bois, Buxoro zaminida Abu Hafsi Kabir Buxoriy, Imom al-Buxoriy, Ibn Sino, Narshaxiy, Daqiqiy, Rudakiy, G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Nosir Buxoriy, Ahmad Donish, Fitrat, Sadreddin Ayniy kabi mashhur, donishmand allomalar voyaga yetgan.

“Ochiq osmon ostidagi muzey” deb nomlanuvchi yana bir tarixiy shahar-Xiva bo‘lib, Buyuk ipak yo‘li davridan butunlay saqlanib qolgan. Xorazm viloyati markazi bo‘lgan Urganchdan 30 km uzoqlikda joylashgan. Shahar Xiva xonligining poytaxti bo‘lgan bo‘lsada, uning tarixi eramizdan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Shahar bir necha marta vayron bo‘lib qayta tiklangan. Xiva o‘zining sokinligi va osoyishtaligi bilan, ayniqsa, quyosh botishidagi ajoyib manzarasi bilan, sharq ertaklari kabi hayratga soladigan muzey shahri. Shahar markazidagi ko‘plab me’moriy yodgorliklar joylashgan Ichon-Qala majmuasi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmiga tegishli. O‘zbekistondagi eng uzun minora bu yerdagi Islom-Xo‘jadir. Uylarning tekis tomlari uzra maqbara va masjidlarning charaqlagan ko‘k gumbazlari viqor bilan turadi. Xivada xon saroylaridan bir qanchasi saqlanib qolgan bo‘lib ulardan eng mashhuri marosimlar o‘tkaziladigan, xon dam oladigan va xon xaramlari yashaydigan zal joylashgan ulkan Tosh-hovli saroyidir.

Madrasalardan eng yirigi — Muhammad Aminxon madrasasi bo‘lib, ikkitalik hujralardan iborat. Eshiklar va panjaralar ajoyib o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. O‘rta asrlar shaharlarini tashqi devorlar va minoralarsiz, shahar ichidagi ark qal’asiz tasavvur qilish qiyin. Xiva shahri ham shunday. Ichon-qal’a avvaldan uni himoya qiladigan ulkan qal’a devorlari bilan o‘ralgan edi. XIX asr o‘rtasida esa Xivaning atrofida o‘nta darvozasi bo‘lgan yangi qal’a devorlari bunyod etilgan.

Shundan e'tiboran shaharning ushbu kattaroq halqasi Deshan-qal'a, yoki "tashqi qal'a" deb nomlanadigan bo'ldi. Shuningdek, pahlavon Maxmud maqbarasi, Sherg'ozixon madrasasi, Juma masjidi shaharning ko'rki hisoblanadi. Shahar o'zining "Ma'mun akademiyasi" bilan ham mashhur. O'rta asrlarda bu yerda ilm-fan, adabiyot, san'at, tibbiyot, falakiyot ilmi rivojlangan, dunyoga mashhur allomalar-Beruniy, Xorazmiy, ibn Sino, al-Farg'oniy, al-Javhariy yashab, ijod qilgan.

Amudaryo bo'yida qadimdan port shahar vazifasini bajarib kelayotgan O'zbekistonning chekka janubida joylashgan Termiz shahri 2500 yillik tarixga ega. Eramizning boshlarida Termiz Markaziy Osiyoning asosiy buddizm markazi bo'lgan. Qora-Tepadagi toshga o'yilgan budda monastiri, Fayoz-tepadagi Buddha ibodatxonasi, ko'plab ohakli loydan qilingan budda haykallar qoldiqlari sayyoh va budda sig'inuvchilar uchun mashxur joy. Termiz faqatgina o'zining budda dini yodgorliklari bilangina mashhur emas. Bu yerda o'rta asrlar boshiga tegishli bo'lgan bir qancha qiziqarli tarixiy yodgorliklar ham bor. Ularning orasida Hakim at-Termiziyning qabri, Sulton Saodat ansamblı (X-XVII asrlar) va afsonaviy Qirq-Qiz qal'asi (IX asr) mavjud.¹⁰²

Toshkent shahri-tarixiy manbalarda Binkent, Choch, Shosh nomlari bilan uchraydi, uning ma'nosi "Tosh qo'rg'on" demakdir. Chirchiq daryosi bo'yida, Buyuk ipak yo'lidagi asosiy savdo markazlaridan biri bo'lgan, bir necha bor bosqinchilar tomonidan vayron etilganiga qaramay, qayta tiklangan va hozirda nafaqat O'zbekiston balki, Markaziy Osiyodagi eng yirik shahar hisobalanadi. Poytaxt va yirik transport tuguni ekanligi bilan mintaqadagi xalqaro turistik oqimning chorrahasi sanaladi. Tarixiy yodgorliklar, zamonaviy osmono'par binolar, istirohat bog'lari, ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy va ta'lim muassassalari shaharga xilma-xillik bag'ishlaydi. Shaharning tobora aholi soni ortib, hududi kengayib, mintaqadagi yirik megapolisga aylanib bormoqda.

Turizm iqtisodiyotning boshqa sohalari orasida eng serdaromad ekanligi bilan ajralib turadi. Sababi, O'zbekiston ham sayohat, ham ziyyarat uchun qulay mamlakat. Chunonchi, ona-zaminimizda butun dunyoga mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish

¹⁰² <http://www.uzbekistan-geneva.ch/turizm-191.html>

katta. Ma'lumki, mintaqamizdan yetishib chiqqan Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termizi, Xoja Bahouddin Naqshband, Al-Moturudiy, Al-Farg'oniy, Xo'ja Axror Vali, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Zahiriddin Bobur kabi buyuk siymolarning milliy, ma'naviy va madaniy merozi bizning ulkan boyligimiz bo'lib, ular qoldirgan ko'plab tarixiy obidalar dunyo sayyoohlari katta qiziqish uyg'otadi.

Bugun turizm yo'nalishlari qatorida ziyorat turizmi alohida o'ringa ega. O'zbekistonda mazkur yo'nalishda ham yaxshi natijalarga erishilmoqda. 2019-yilda respublikaga tashrif buyurgan 6,7 million nafar xorijiy sayyoohlarning 88 foizi musulmon mamlakatlari hissasiga to'g'ri keldi. O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinyapti. Masalan, 2007 yilda Toshkent shahri, 2020-yilda Buxoro shahri Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilingan.

O'zbekiston azaldan xalq hunarmandchiligi bilan mashhur bo'lib kelgan. Hozirgi vaqtida respublikada xalq hunarmandchiligi asosida esdalik buyumlar ishlab chiqaruvchi 500 ga yaqin korxona mavjud. Ular chinni va sopol buyumlar, pichoqlar, sopol o'yinchoqlar, zardo'zi mahsulotlar, gilam, poloslar va milliy kiyimlar va boshqa buyumlar ishlab chiqarmoqda. Maxsus turlarning ayrim turlarini hozirdanoq ommaviylashtirishning katta imkoniyatlari bor. Masalan, tobora unutilib borayotgan dorbozlik o'yinlarini qaytadan tiklash, doimiy dorbozlik maskanlarini belgilash lozim. Bunday holatda turistlarni bu o'ynlarga taklif qilish vaqtлari aniq bo'ladi. Xuddi shuningdek, ko'pkari-uloq 2-3 oy davom etadigan, turistlarning katta oqimlarini o'ziga jalgan qiladigan g'oyat qiziqarli turistik obekt. Bu turni ommaviylashtirish uchun eng muhim muammo turistlarni kutib olish, xizmatlarni tashkil qilish, joylashtirish, dam olish, ovqatlantirish va tunashi sharoitlarini tashkil qilish ishlarining haligacha boshlanmaganligidir.

O'zbekiston tabiiy turistik resurslarga ham boy hisoblanadi. Davlat ahamiyatiga molik tabiiy obyektlari, shu jumladan, noyob ekotizimlar, biologik xilma-xillik turlari, suv havzalari va tabiiy landshaftlar turizm uchun xizmat qilmoqda. Tarixiy madaniy obyektlar qatorida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan tabiiy madaniy ob'ektlarning ham ro'yxati shakllantirildi.

Mazkur ro‘yxat noyob va qimmatbaho daraxt va archazorlarni, buloq, ko‘l, sharshara va soylarni, geologik tuzilmalar-dara, tog‘-toshlarni, muzlik, cho‘l va barxanlarni, tabiiy bog‘larni, noyob o‘simplik va xayvonlarning yashash areallarini qamrab oldi.

Jami 177 ta obyekt (qo‘riqxona va milliy tabiat bog‘lari bilan birgalikda) Milliy tabiiy meros obyektlari sifatida tanlandi. Ular orasida:

- daraxtzor, archazor, to‘qayzor va tabiiy maskanlardan iborat 16 ta obyekt;
- 50 ta buloq, 14 ta ko‘l, 3 ta daryo, 10 ta sharshara, 4 ta soy va Orol dengizini o‘z ichiga olgan 82 ta gidrologik obyekt;
- 10 ta g‘or, 5 ta dara, 10 ta tog‘, qoya va toshlar, 6 ta cho‘l, qumlik va barxanlardan tarkib topgan 31 ta geologik obyekt;
- “Dinozavr izi” tabiiy maskani paleontologik obyekti o‘rin oldi.

Shu bilan birga respublika hududidagi 7 ta davlat qo‘riqxonasi, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonasi va 13 ta buyurtma qo‘riqxonasi hamda 13 ta milliy tabiat bog‘i va 11 ta tabiat yodgorligi Milliy tabiiy meros obyektlari safiga kirdi.

Shu o‘rinda YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan transchegaraviy tabiiy obyektlar — G‘arbiy Tyan-Shan tog‘i (2016-yil) va Mo‘tadil mintaqadagi Turon sahrolari (Ustyurt platosi, 2023-yil) hamda YUNESKOning Butunjahon biosfera rezervatlari tarmog‘iga kiritilgan Chotqol biosfera qo‘riqxonasi (1978-yil) va Quyi Amudaryo biosfera qo‘riqxonasi (2021-yil) ham Milliy tabiiy meros ob'ektlari ro‘yxatida o‘z ifodasini topdi.¹⁰³

Davolash-sog‘lomlashtirish yo‘nalishi bo‘yicha “O‘zbekiston Shveytsariyasi” deb nom olgan, tog‘ va archazor o‘rmonlari toza havosi bilan ajralib turuvchi tog‘ landshafti Jizzax viloyatidagi “Zomin”, Toshkent viloyatidagi “Oqtosh”, Farg‘ona viloyatidagi “Chimyon” davolash va dam olish maskanlarini aytish mumkin. Zomin nafaqat dam olishga, balki davolanish, organizmni shifobaxsh vitamin va minerallar bilan boyitish uchun eng qulay maskan hisoblanadi. Chorvoq turistik zonasini hududining ekologik muhiti imkoniyatlari, tog‘ landshafti, toza havosini hisobga olib, erkin turistik zona tashkil etildi.

¹⁰³ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/30/list/>

Respublikada tog‘-chang‘i turizmi, ekstremal va sport turizmi, ekoturizm kabi yosh zamonaviy turlarini tashkil etish uchun sharoit va imkoniyatlar yetarli. Davlatimiz tomonidan ushbu imkoniyatlarni ishga solish, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha keng ko‘lamda sa’y-harakatlar olib borilmoqda.

2. O‘zbekistonda turizm rivojlanishining me’yoriy-huquqiy asoslari

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq turizm sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. XX asr O‘zbekiston uchun turizm va sayyohlik asri bo‘lishi, Markaziy Osiyo davlatlari orasida bu borada yetakchi davlat bo‘lishi mutaxassislar tomonidan bashorat qilinmoqda. Chunki, O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega. Mamlakatimizda 8 mingga yaqin tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, ulkan tabiiy turistik obyektlar mavjud. Ulardan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash, respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko‘tarish, turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, turistik infratuzilmani rivojlantirish kabi qator vazifalarni hal etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.¹⁰⁴

O‘rta Osiyo xalqlari hayotida sayyohlik qadimdan alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan, biroq maxsus sanoat sifatida shakllanmagan edi. Sovet davlatida turizm “sotsializm” tuzumining imidji vazifasini bajardi. Kommunistik mafkura targ‘ibot quroli sifatida foydalanildi. Turizmni tashkil etishda ham communistik ruhdagi rejalshtirish tamoyilidan voz kechilmadi. Turistik korxonalarining moddiy-texnika bazasi yaxshilansada, sayyohlik xizmatlarining sifati pastligicha qolaverdi. Sovet davrida turizmni rivojlantirishga ilmiy texnologik jarayon sifatida qaraldi. Biroq, ilmiy daraja va maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega xodimlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yishga e’tibor qaratilmadi.¹⁰⁵

Mustaqillikka erishgach, turizmni kompleks rivojlantirish uchun 1980-yillardagi kamchilik va muammolarni bartaraf etish lozim edi. Mamlakatda o‘tish davrining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy qiyinchiliklariga qaramay turizm sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor

¹⁰⁴ Таштаева С. Туризм иқтисоди ва географияси. Ўқув қўлланма. -Т., 2023.Б-8.

¹⁰⁵ М. Маҳмудов. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда туризим тараққиёти: муаммолар ва ёнимлар// Бойсун баҳори. Б.319-321.

qaratildi. Mustaqillik davrining ilk davrlarida e'tibor turizm indust-riyasini modernizatsiya qilishga qaratildi. Sohani barqaror rivojlanishi uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirish, transport va mehmonxona xizmatlarini yaxshilash, turizmning me'yoriy-xuquqiy bazasini takomillashtirishga qaratilgan hujatlar qabul qilindi, ushbu sohada davlat siyosatining tubdan yangi tamoyillari ishlab chiqildi.

1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni¹⁰⁶ bilan "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi tashkil etilib, unga ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlan-tirishning milliy modelini shakllantirish vazifalari yuklatildi. Milliy kompaniya respublikaning turizm tashkilotlari faoliyatini muvofiq-lashtiradi, turizmning barcha turlarini rivojlantirishni rag'batlantiradi, kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi, sanoatning moddiy-texnika bazasi va infratuzilmasini yaratishga investitsiyalar oqimiga ko'maklashadi.

1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-1162-son Farmoni qabul qilindi. Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash, xorijiy sayyoohlarni keng jalb etish, shuningdek, mamlakatda zamonaviy turizm sanoatini vujudga keltirish maqsadida Buyuk Ipak yo'lidagi shaharlar — Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar tashkil qilinishi, mazkur shaharlarning aeroportlari va temir yo'l vokzallarida xorijiy sayyoohlarni uchun bojxona rasm-rusumlarining xalqaro me'yorlarga mos soddalashtirilgan tartibi, shuningdek, tranzit sayyoohlarni uchun maxsus bojxona zonalari joriy qilinishi belgilab qo'yildi. Jahon andozalari darajasidagi mehmonxona va motellar, kempinglar tarmog'ini shakllantirish, sayr-tomosha, madaniyat, sport va sog'lomlashtirish markazlarini tashkil etish ko'zda tutildi.¹⁰⁷ "Buyuk ipak yoli" turistik yo'nalishini rivojlantirish to'g'risidagi Hukumat qaroriga muvofiq, kompaniya London va Berlin shahrida bo'lib o'tadigan yirik xalqaro turizm almashinuv yarmarkalarida ishtirok etish

¹⁰⁶ «Ўзбектуризм» миллий компанияси фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Вазирлар Махкамасининг 20.10.1992 йилдаги 484-сон қарори. <https://lex.uz/docs/514856>

¹⁰⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 6-сон, 140-модда. 1995 й. <https://lex.uz/docs/182051>

orqali milliy turistik mahsulotlar va loyihalarni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish faoliyatini olib bordi.¹⁰⁸

Xorijiy turistlarni mamlakatga kelib ketishlari yoki ushbu hudud-dan tranzit o‘tishlarida vaqt ni tejash, qiyinchiliklarni yengillashtirish, chegaradan o‘tish talablarini soddalashtirish maqsadida 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan, O‘zbekiston respublikasiga kelish vizalarini rasmiylashtirish tartibi, O‘zbekiston respublikasiga kelish va undan ketish huquqidagi cheklashlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishi, chet el fuqarolarini akkreditatsiya qilish kabi tartib qoidalari belgilandi. Keyinchalik bu qarorga yana o‘zgartirishlar kiritildi.

Kelgusi yillarda O‘zR Vazirlar Mahkamasining “Sayyoqlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida” (1998-yil 8-avgust, 346-son), “O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to‘g‘risida”, (1999-yil 23-mart, 131-son) qarorlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar milliy turistik mahsulotimizga xorijlik sayyoqlar e’tiborini jalb etish, xalqaro sayyoqlik aloqalarining kengayishi, kirish, chiqish turizmini, respublikada yaratilgan madaniy boyliklarni chetga olib chiqish yoki mamlakatga chetdan olib kirishni tartibga solishga xizmat qiladi.

Respublikada turizm sohasini rivojlantirish uchun moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, malakali mutaxassislar sonini oshirishga e’tibor qaratilgan holda, davlatimiz rahbari 1999-yil 30-iyunda “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi farmonini qabul qildi. Unga ko‘ra, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bazasida Xalqaro turizm yo‘nalishida bakalavr tayyorlash, shuningdek bir qancha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tashkil etildi, qabul kvotalari oshirildi.

Xalqaro va ichki turizm avvalo mamlakatdagi turistik resurslarni o‘zlashtirish va ulardan samarali foydalanishga asoslanadi. Viloyat va

¹⁰⁸ Murodov H.S. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda xalqaro turizmnинг rivojlanishiva uning me’yoriy-huquqiy asoslari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -2022. -№ 1(4). ISSN: 2181-1342 11-б. <https://sciencenroblems.uz>

tumanlardagi turizm imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida masalan, O‘zbekistonning asosiy turistik maskanlari bo lgan Buxoro va Xiva shaharlaridagi yodgorliklar muhofazasini kuchaytirish, viloyatlarning turistik salohiyatini jahonga namoyish etish, turizm industriyasini va infratuzilmasini zamon talablari darajasiga ko‘tarish hamda Buxoro va Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan 1996-yil 3-yanvarda 1996-1997-yillarda Buxoroda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi.¹⁰⁹

“2013-2015-yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”, 2013-yil 20-sentyabr, 259-son “Xorazm viloyatida turistik infratuzilmaning qo‘sishimcha obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Toshkent viloyati katta tabiiy turistik rekreatsion salohiyatga ega. Bu yerda ko‘ngilochar maskanlar ochish, tabiat qo‘ynida xordiq chiqarish, biogen resurslarning noyob namunalari bilan tanishish, tadbirlar tashkil etish, ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Besh yuzdan ziyod turistik resurslar bo‘lib, ulardan Chotqol biosfera qo‘riqxonasi, Ugom-Chotqol milliy tabiat bog‘i, Parkent, Pskent, Oqqo‘rg‘on, Ohangaron, tumanlaridagi yodgorliklar, tarixiy madaniy va arxeologik resurslar – Shohruhiya, Saurtepa va Shodmalik ota majmualari, Qirqqiz, Sarmozor va Parpi ota qadamjolari kabi davlat muhofazasiga olingan tarixiy va ekoturizm ob‘ektlari bor.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-sentabrdagi “2013-2015-yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori hududda sayyoohlarga xizmat ko‘rsatish turi va sifatini yanada yaxshilashda muhim omil bo‘ldi.

Mazkur hujjat ijrosi doirasida Burchmulla va Chimyon qishloqlaridan o‘tuvchi soy bo‘ylarida chodirli shaharchalar tashkil etilib, milliy qadriyatlarimizga monand jihozlandi. Sayyoohlarga hududning o‘ziga xos taomlarini tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Manzilli dasturga muvofiq, Bo‘stonliq tumanidagi Xo‘jakent va Yusufxona qishloqlarida zamonaviy mehmonxonalar qad rostladi. “Oqtosh” sanatoriysi, bir qator tarixiy obida va qadamjolar ta’mirlandi. Chimyon-Chorvoq rekreatsion zonasida yangi loyihalar amalga

¹⁰⁹ Murodov H.S. Mustaqillikning dastlabki yillarida 0 4zbek3st0nda xalqaro turizmning rivojlanishiva uning me’yoriy-huquqiy asoslari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -2022. -№ 1(4). ISSN: 2181-1342 11-6. <https://sciencenroblems.uz>

oshirildi. Bu yerga keluvchi mehmonlarning miriqib dam olishi, sayohat qilishi uchun yanada qulay sharoit yaratildi.¹¹⁰

Ushbu qarorni ijrosi sifatida 2017-yil Toshkent viloyati Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsion zonasini hududida “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etildi va ushbu erkin turistik zona hududida zamonaviy mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngil-ochar majmualar va turizm uchun mo‘ljallangan boshqa obyektlar barpo etish, shuningdek, zamonaviy injenerlik infratuzilmasi obyektlari yaratish haqidagi takliflar qabul qilindi. Hozirda mazkur zonani rivojlanadirish bo‘yicha davlat tomonidan subsidiyalar berilib, sarmoyalar kiritish, uch yulduzli mehmonxonalar qurilishi uchun davlat byudjetidan mablag‘ ajratilishi, muayyan turdagiga soliqlardan vaqtincha ozod etilishi kabi imtiyozlar berildi.

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida turizmning rivojlanishiga yanada katta ahamiyat berildi. Mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlanadirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, turizm tarmog‘ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ‘ibot qilish, turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiyligi qiyofasini shakllantirish maqsadida:

- turizmni rivojlanirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish;

- turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o‘zaro bog‘liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlanirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo‘lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash;

- tarkibiy o‘zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy byudjet daromadlarida turizmning ulushini ko‘paytirish, ish bilan bandlikni ta’minalash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- turizm industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada

¹¹⁰ <https://uza.uz/posts/99106>

takomillashtirish, turizmning rivojlanishidagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojaxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilandi.¹¹¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" qarorida mamlakatimiz turizm industriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhit yaratish, jumladan, sohada xususiy sektorning ustuvor ishtirokini ta'minlash, uning raqobatbardoshligi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rnlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish maqsad qilib qo'yildi. 2018-2019-yillarda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha shartnomalar ishlab chiqish, xorijiy turistlar uchun viza va ro'yxatdan o'tish tartib-qoidalarini bosqichma-bosqich soddalashtirish va turistlarga yengillik yaratishga alohida e'tibor qaratildi.¹¹²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish boyicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil № PF-5326-sonli Farmoni qabul qilindi.

Respublikaning turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, eng avvalo investitsiya oqimlarni faol jalb etish, ushbu sohaga innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosi va resurslaridan to'liq foydalanish maqsadida 2018-yil 10-fevraldan boshlab Isroil Davlati, Indoneziya Respublikasi, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Yaponiya fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasiga muntazam parvozlarni amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalar havo kemalari ekipaj a'zolari uchun O'zbekiston Respublikasi

¹¹¹ <https://lex.uz/docs/3077023>

¹¹² 2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" «Xalq so'zi» gazetasi, 162 (6856)-son, 2017 yil 17 avgust.

hududiga kirgan kundan boshlab 30 kunlik muddatga vizasiz rejim o‘rnatalishi belgildi.

Davlat e’tibori nafaqat xorijiy turistlarni jalb etish balki, ichki turizmni ham rivojlantirishga, aholi dunyoqarashi, ma’naviy madaniyatini oshirishga, mamlakatimiz fuqarolarini tabiiy va madaniy meroslarimiz bilan yaqindan tanishtirishga ham qaratilgan holda 2018-yilda “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi. Unda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasidir ishlab chiqildi. Unda asosan, turistlar oqimi past bo‘lgan davrda ichki sayohatchilar uchun turistik infratuzilmani tayyorlash, turistlarni joylashtirish vositalari, jamoat ovqatlanish joylari, diqqatga sazovor joylarni inventarizatsiya qilish va xizmat ko‘rsatishga tayyorlash, madaniy ko‘ngilochar tadbirlarni o‘tkazish belgildi. Qo‘sishimcha aviareyslar, temir yo‘l qatnovlari yo‘lga qo‘yildi, turoperator, turagentliklar va joylashtirish vositalari uchun soliq stavkalari kamaytirildi, aholining dam olish va bayram kunlari taqvimi sayohat uchun maqbullashtirildi, oilaviy dam olish ta’tili tizimi joriy etildi.

Mamlakatda turizmni barqaror rivojlantirish, ichki, kirish va chiqish turizmi uchun shart-sharoitlar yaratish, turizmni iqtisodiyot drayveriga aylantirish maqsadida 2019-yilda Qonunchilik palatasi tomonidan O‘zbekiston respublikasining “Turizm to‘g‘risida” qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 10 bob, 45 moddani o‘z ichiga oladi va mamlakat turistik faoliyatini tartibga soladi.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlash muhim jarayonlardan hisoblanadi. 2021-yil O‘zR PQ- 5270 sonli “Turizm, madaniy meros va muzeishunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori turizm, madaniy meros va muzeishunoslik sohalarida xalqaro standartlarga mos uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonini yo‘lga qo‘yish, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta’minalashni ko‘zda tutadi. Turizm, madaniy meros va muzeishunoslik sohalaridagi istiqbolli mutaxassislar, ayniqsa pedagoglar, ilmiy kadrlar va restavratorlarni tanlash va ularning ta’lim olishini tashkil etish uchun “El-yurt umidi” jamg‘armasining 2022-2026-yillarda xorijdagi nufuzli

ta'lim muassasalarida turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik yo'nalishlarida doktorantura (PhD) va magistraturada o'qitish dasturi joriy qilinishi belgilandi.¹¹³

Mamlakat turizmida ziyyarat turizmi muhim o'rin egallaydi. Buyuk allomalar, olimu-ulamolar qabrlarini tiklash, obodonlashtirish va ziyyarat turizmini yanada rivojlantirish maqsadida Shahrisabz, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda ilmiy-amaliy tadbirlar, konferensiylar tashkil etildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyyarat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni muhim rol o'ynaydi.

Xususan, "Xalqaro ziyyarat turizmi haftaligi", Mir Arab madrasasi tashkil etilganligining 500 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya, Toshkent shahrida "Imom Moturidiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlari", Samarqand shahrida "Imom Buxoriy" nomidagi xalqaro hadisshunoslik anjumanlari, Buxoro shahrida "Ibn Sinoning hayoti va "Tib qonunlari" ilmiy merosining tadqiqotlari" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman, Qarshi shahrida "Abu Muin Nasafiy" Markaziy Osiyo ulamolari anjumani va bir qator tadbirlar tashkil etiladi.¹¹⁴

2023-yilda qabul qilingan "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar olib borishni ko'zda tutadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, garchi O'zbekiston azaldan turistik resurslarga boy bo'lsada, ularidan foydalanish va turizm sohasini respublikada xorijiy standartlarga mos holda rivojlantirishga so'nggi yillarda katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada qator vazifalarni amalga oshirish istiqbolning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Xususan, turistik klasterlar, maxsus turistik zonalarni tashkil etish, turistik va turdosh infratuzilmalarni yaxshilash, barqaror turizmni

¹¹³ <https://lex.uz/docs/5701949>

¹¹⁴ Эштаев А. Ўзбекистон республикасида ички ва зиёрат туризмини ривожлантириш истиқболлари. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, 2021.381-бет.

ta'minlash, turizmni oqilona boshqarish va rejalarshirish, diversifikasiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish asosiy vazifalardan sanaladi.

3. O'zbekistonda turizmning rivojlanish holati

O'zbekiston turizm sohasini modernizatsiya qilish, barqaror rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm xizmatlarini xalqaro andozalar asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Davlat siyosati istiqbolda turizmni iqtisodiyotning "drayveri"ga aylantirishga qaratilgan, shuning uchun ham bu yo'naliш kelajakda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks rivojlan-tirishni jadallashtirish, sohani diversifikatsiya qilish, an'anaviy turizm turlari bilan birga yangi yo'naliшlarini o'zlashtirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, malakali kadrlarni yetishtirish, o'lkamiz turistik resurslarini targ'ib qilishni kuchaytirish kabi masalalarni hal etishni taqozo qiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish va turizm sohasini iqtisodiyotning daromad keltiruvchi yetakchi sohasiga aylantirish uchun mamlakat katta imkoniyat va resurslarga ega.

YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan etti mingdan ortiq turli davr va sivilizatsiyalarga oid moddiy-madaniy meros obyektlari, jumladan, Buxoro, Xiva, Samarcand va Shahrisabzning tarixiy markazlari mavjudligi O'zbekistonning yuksak salohiyatidan dalolat beradi. Dunyoga mashhur tarixiy obidalar, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiat, milliy taomlari, shuningdek, o'zbek xalqining beqiyos mehmondo'stligi butun dunyo say-yohlarini o'ziga tortadi. Bu borada chet ellik mutaxassislar O'zbekiston turizmiga yuqori baho berishadi va uni yetakchi davlatlar qatoriga qo'shishadi. Turistlar sonining yildan yilga ortib borishi, iqtisodiyot sohasidagi ulushining ortib borishi va bunga yaratilayotgan sharoitlar ham yaqqol dalil bo'ladi.

O'zbekiston 1993 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkilotiga (UN Tourism) a'zo bo'ldi. 2004-yilda Samarcand shahrida YUNVTO ning Ipak yo'lida turizmni boshqarib boruvchi mintaqaviy idorasi ochildi. 2023 yilda Samarcand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25 yillik yubileyi bo'lib o'tdi. Bu tadbir tashkilotga a'zo bo'lgan 159 ta mamlakatdan kelgan davlat rahbarlari, turizm mutaxassislarini birlashtirdi. Ular orasida Qozog'iston, Saudiya Arabiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Albaniya, Gvatemala, Gaiti, Bagam orollari, Argentina, Baxrayn,

Portugaliya, Indoneziya, Niger, Monako, Panama, Ukraina, Urugvay, Ozarbayjon va boshqa ko‘plab davlatlar bor. Bu esa O‘zbekistonni dunyo hamjamiyatiga chuqur kirib borayotgani va turizm salohiyatini jahon miqyosida ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Turistlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Berilgan ma’lumot-larga ko‘ra, mustaqillik davrigacha bo‘lgan davr bilan taqqoslaganda turistlar soni 34 marta ko‘paygan. 1985-1989-yillarda O‘zbekistondagi ichki va hududiy turizmning hajmi 1,4-1,6 mln. kishini, bunda chet ellik turistlarning miqdori atigi 130-180 ming kishini tashkil etardi xolos.¹¹⁵

Eng ko‘p turistik oqim qo‘shti respublikalar va MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi, xususan, Tojikiston, Qirg‘ziston, Qozog‘iston, Rossiya, uzoq xorij davlatlaridan Germaniya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Koreya Hindiston, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlardan turistlar ko‘proq kelishadi. 2023 yilning birinchi o‘n oy ichida turistik maqsadlarda mamlakatga 4,9 mln. xorijlik sayyoohlар kelgan. Ulardan yetakchi davlatlar-Rossiya, Qozog‘iston va Tojikiston hisoblanadi.

Sayohat qiluvchilar orasida musulmon olamini alohida ta’kidlash joiz. Hisob-kitoblarga qaraganda, 2019-yilda respublikaga tashrif buyurgan 6,7 million nafar xorijiy sayyoohlarning 88 foizi musulmon mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. 2018-yilda uzoq xorij davlatlaridan 325827 nafar turist O‘zbekistonga kelgan bo‘lsa, ularning 115621 mingi, ya’ni 35 foizi musulmon sayyoohlар tashkil etgan. Bahrayn, Qatar, Ummon Quvayt davlatlari turistlari uchun 2021-yildan e’tiboran 10 kungacha vizasiz rejim joriy etilganligi ham qulay imkoniyat bo‘ldi.¹¹⁶

Turizm sektorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni ortib bormoqda. 2023-yilda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2.3 foizni tashkil etdi, aholi bandligi esa 300 mingga yaqinlashdi.“To‘siksiz turizm” infratuzilmasi kengaymoqda, 93 davlat fuqarolari uchun kirish vizalari bekor qilindi. 56 davlat rezidentlari mamlakatimizga elektron viza orqali tashrif buyurishlari mumkin. 47 davlat fuqarolari O‘zbekistonda 5 kungacha tranzit vizasiz qolishlari mumkin. 76 davlat fuqarolari uchun kirish turistik vizasini olishning soddallashtirilgan tartibi mavjud.

¹¹⁵ Abduvohidov A., Qutlimurodov F. Turizm iqtisodi. O‘quv q O‘llanma. –T.,2011. B.7.

¹¹⁶ Умаралиев И. <https://daryo.uz/k/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>

Mamlakatimiz Turizm va madaniy meros vazirligi turkiy davlatlar bilan sohaga oid keng hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Qardosh xalqlar bilan hamkorlikda mashhur diqqatga sazovor turistik destinatsiyalarni bog‘lovchi koridor va marshrutlar ishlab chiqilmoqda, investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda va tadbirlar o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston turizmining rivojlanishida tarixiy shaharlar yetakchi o‘rin tutadi. Ularning yildan-yilga mavqeい va nufuzi ortib bormoqda: Xiva – 2024-yil Islom dunyosining turizm poytaxti, Samarqand 2023-yilda Butunjahon turizm poytaxti deya e’lon qilindi.

Qo‘qon shahri esa 2022-yil turkiy dunyo turizm poytaxti bo‘ldi. Bularning barchasi O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi hamda uning barcha mamlakatlar bilan sohaga oid keng hamkorlik olib borilayotganidan dalolatdir. 2022-yilda xorijiy va mahalliy sayyoohlar uchun “Tashkent City”, “Samarkand Tourism Markazi” va “Afsonalar vodiysi” kabi sayyoohlilik obyektlari ochildi, “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i”, “Turizm ovuli” kabi yangi turizm mahsulotlari yaratildi. “Tabarruk Ziyorat”, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat!” dasturi doirasida 2022-yil sentabridan ichki sayohatlar uchun xarajatlarning bir qismini qoplash uchun maxsus Cashback tizimi platformasi ishga tushirildi.

2023-yilda O‘zbekiston Amerikaning Travel Lemming onlayn sayohat qo‘llanmasida dunyodagi 50 ta eng yaxshi sayyoohlilik yo‘nalishi ro‘yxatidan joy oldi va 9-o‘rinni egalladi. Ushbu qo‘llanma har yili dunyo bo‘ylab yangi yo‘nalishlar va o‘ziga xos noyob maskanlar haqida ma'lumot beradi va uni 6 milliondan ko‘proq sayohatchi o‘qiysi.

Respublikada olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida ijobiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekistonda 2017-yil boshidan xalqaro turizm sohasida taraqqiyotning sezilarli yangi bosqichi boshlandi. 2018 yilda Isroil, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur, Turkiya, Yaponiya, Tojikiston va Fransiya fuqarolari uchun vizasiz rejim o‘rnatildi. Bundan tashqari, 39 davlat fuqarolariga viza berish tartibi soddallashtirildi.¹¹⁷

Mahalliy va xorijiy sayyoohlar soni asta-sekin o‘sib bordi. Agar 2017 yilda ularning soni 10,6 million kishini tashkil etgan bo‘lsa,

¹¹⁷ Туляков Э. Расширяются возможности развития внутреннего и паломнического туризма. https://uza.uz/ru/posts/rasshiriyayutsya-vozmozhnosti-razvitiya-vnutrennego-i-palomnicheskogo-turizma_37132

2022-yilda 11,4 million mahalliy aholi mamlakat bo‘ylab sayohat qilgan. 2022-yilda O‘zbekistonga 5,2 milliondan ortiq xorijiy sayyoх tashrif buyurdi. Bu 2017-yilga nisbatan 2,5 barobar ko‘pdir. 2022-yilda turizm xizmatlari eksporti hajmi 1,61 milliard dollarni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2021-yilda 296,4 million dollarga, 2019-yilda 951 million dollarga teng bo‘lgan. Jami 2017-2022-yillarda turizm xizmatlari eksportining umumiy hajmi 5,13 milliard dollarni tashkil etdi.

Turistik talabning ortib borishi bilan turoperator va turagentliklar soni ham ortib bormoqda. 2022-yilda O‘zbekistonda 1838 ta sayyoхlik kompaniyasi – turoperator faoliyat ko‘rsatdi. 2017-yilga nisbatan (749 ta) ularning soni qariyb 2,5 barobar oshdi. 2017-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrda mehmonxona o‘rinlari soni 2,6 barobar ko‘payib, 37 mingdan 124 mingtaga yetdi.

2017-2022-yillar davomida ushbu sohada bandlik 46 foizga oshdi. 2017-yilda 187 ming xodim ishlagan bo‘lsa, 2022-yilda turizm sohasida 274 ming kishi faoliyat yuritgan.¹¹⁸

Turistik xizmatlar eksporti 2019-yilda 1,313 mlrd \$ ni tashkil etdi, 2018-yilda bu raqam 1,041 mlrd. \$ bo‘lgan edi (o‘sish 126%). Ushbu mablag‘ning katta qismi (966,559 mln. \$) MDH davlatlaridan kelgan turistlar hissasiga, qolgani uzoq xorij davlatlariga to‘g‘ri keladi.¹¹⁹

2020-2023-yillarda xorijiy sayyoхlar soni dinamikasi quyidagicha o‘zgargan: 2020-yilda 1,5 mln, 2021-yilda 1,8 mln., 2022-yilda 5,2 mln., 2023-yilda 7 mln prognoz (foizlarda mos holda: 125 %-278 %-133%-yildan yilga o‘sgan.)¹²⁰

Hozirgi kunda 93 ta mamlakat uchun vizasiz rejim joriy etilgan. Respublikaning turistik salohiyatini targ‘ib qilish va turistlar oqimini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 28 ta xorijiy davlatdagi diplomatik vakolatxonalariga mablag‘ ajratildi. 16 ta xalqaro turistik yarmarkada milliy turizm stendi va tadbirkorlik subyektlari ishtiroki ta’minlandi (2022-y). 2022-yilda ichiki turistlar soni 11,3 mln nafarni tashkil etdi.

Xorijiy sayyoхlar esa 5,2 mln.ga yetdi. Ularning 83,4 foizi qo‘shni davlatlardan, 11,6 foizi qolgan MDH davlatlaridan va 5 % i uzoq xorij davlatlaridan kelgan. Ularning aksariyati Turkiya, Janubiy Koreya,

¹¹⁸ Развитие туризма в Узбекистане в 2017-2022 годах. <https://e-cis.info/news/567/110618/>

¹¹⁹ <https://uzbekistan.travel/ru/o/turizm-v-uzbekistane-v-cifrah/>)

¹²⁰ <https://www.uzdaily.uz/uz/post/8921>

Germaniya, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniyadan. 2023-yilda 7 mln. ga yaqin chet ellik turist kelgan (birinchi yetti oyida 4,9 mln keldi.)¹²¹

Mazkur davr oralig‘ida turistlarning tunab qolish muddati 2-3 kundan 4-5 kunga oshgan, mablag‘ sarfi esa kuniga 195 dollardan 305 dollargacha oshgan. 56 ta davlat fuqarolari uchun elektron kirish vizalarini berish tizimi ishga tushirildi, 47 ta davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish tartibi belgilandi. 55 yoshga to‘lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga respublikaga keluvchi XXR, AQSH va Vietnam fuqarolari uchun vizasiz kirish rejimi joriy qilindi.

2022-yilda joylashtirish vositalarining soni 5 mingtaga yetkazildi, oilaviy mehmon uylari faoliyatining bugungi kunda soni 3,1 mingta va o‘rinlar soni 27,8 mingga yetkazildi. Turopertorlar – 1663 ta (2017-yilda 749 ta), turagentlar – 119 ta gid-ekskursovod soni 2309 taga (2017-yilda 574 ta) yetdi.

Turizm infratuzilmasini yaxshilashga katta ahamiyat berilmoqda. Respublika rahbariyatining sa'y-harakatlari bilan keyingi yillarda turizm infratuzilmasi ancha yuqori darajaga ko‘tarildi. Jumladan, mamlakatimizda 1176 turizm tashkiloti, shundan, 621 turopertor va 555 mehmonxona obyekti muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. 25 mingdan ortiq o‘rinli mehmonxonalarining keng tarmog‘i zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda infratuzilma obyektlarining chinakam keng ko‘lamli qurilishi va rekonstruksiya qilinishi tufayli 11 aeroport xalqaro bandargoh maqomini oldi. “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasining Boeing va Airbus kompaniyalarida ishlab chiqarilgan avialaynerlardan iborat zamonaviy qulay samolyotlari xizmat ko‘rsatmoqda.

So‘nggi 4 yil ichida O‘zbekistonda katta, o‘rta va kichik 833 ta yangi mehmonxona foydalanishga topshirildi. Joylashtirish vositalarining umumiyligi soni 1442 donaga etdi, ularning soni 33,4 ming donani tashkil etdi. Ayni paytda O‘zbekistonda qurilish bosqichida yaqin kelajakda ishga tushirilishi rejalashtirilgan yuzlab yangi mehmonxona loyihalari mavjud.¹²²

¹²¹ <https://kun.uz/news/2023/01/31/sayyoohlар-sonи-oshmoqda>

¹²² Bekmurodova L. Turizm va mehmondo‘stlik sanoatida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning istiqbollari.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2 | issue 8.2022. P.268.

Istiqbolda turistik talabning ortib borishi ularga ko‘rsatiladigan xizmatlar va turistik mahsulotlar sifatini, turistik infratuzilmani yaxshilashni, yangi marketing strategiyalarini ishlab chiqish, turistik klaster va zonalarni tashkil qilish, investitsiyalarini jalb etish, turistlarni keng jalb qilish uchun turistik bozorni tahlil qilib borish kabi vazifalarni hal etish muhim masalalardan hisoblanadi.

XULOSA

Ushbu monografiyada Sharq mamlakatlarida turizm rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari chuqur tahlil qilindi. Turizm dunyo iqtisodiyotida muhim o‘rin tutuvchi dinamik va ko‘p qirrali soha bo‘lib, Sharq mamlakatlari bu sohada o‘ziga xos va betakror imkoniyatlarga ega.

Monografiya doirasida Yaponiyada, Koreya Respublikasida, Singapurda, Malayziyada, Hindistonda, Osiyo va Fors ko‘rfazi mamlakatlarida, Turkiyada, Birlashgan Arab Amirliklarida va O‘zbekiston-da turizm rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari o‘rganildi. Ushbu mamlakatlarning har birida turizmning rivojlanishi tarixiy, madaniy va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishida davlatning roli katta ahamiyat kasb etadi.

Yaponiya turizm industriyasining rivojlanishi, iqtisodiy yuksalishi va yuqori texnologik taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Koreya Respublikasida turizmning rivojlanishi zamonaviy infratuzilma va madaniy merosning boyligi bilan uyg‘unlashgan. Singapurda turizm sektori innovatsiyalar va biznes turizmi bilan mashhur. Malayziyada esa tabiiy resurslar va madaniy xilma-xillik turizm rivojlanishiga katta hissa qo‘sjadi. Hindiston esa o‘zining boy madaniy va tarixiy merosi bilan jahon turizmida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Osiyo va Fors ko‘rfazi mamlakatlarida turizm markazlari shakllanishi va rivojlanishi, madaniy merosni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy foydalarni adolatli taqsimlash masalalari bilan bog‘liqdir. Turkiyada esa turizm sektori tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyitilgan. Birlashgan Arab Amirliklari zamonaviy turizm infratuzilmasi va me’yoriy-huquqiy asoslari bilan e’tiborga sazovor. O‘zbekiston esa o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan jahon turizmida o‘z o‘rniga ega.

Ushbu monografiya Sharq mamlakatlarida turizm rivojlanishining o‘ziga xos jihatlarini yoritib, turizm sohasida tadqiqot olib boruvchi olimlar, siyosatchilar, sarmoyadorlar va biznes-operatorlar uchun muhim manba hisoblanadi. Monografiyada keltirilgan ma’lumotlar, Sharq mamlakatlarida turizm sektorining barqaror rivojlanishi va bu sohada yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun samarali

strategiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Sharq mamlakatlarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu yo‘llar, mehmonxonalar, dam olish maskanlari va boshqa turizm infratuzilmasini yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Yaponiyadagi kabi yuqori texnologiyali infratuzilmalar yaratish, turistik manzillarning jozibadorligini oshirish va sayyoohlar uchun qulayliklar yaratish muhim.

Sharq mamlakatlaridagi madaniy va tarixiy yodgorliklarni saqlash va himoya qilish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat turizmni rivojlantirish, balki madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish uchun ham muhimdir.

Turizmni rivojlantirishda atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun ekologik toza texnologiyalar va amaliyotlarni tatbiq etish zarur.

Turizmning ekologik ta’sirini kamaytirish, chiqindilarni boshqarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish lozim.

Sharq mamlakatlarida turizmni jahon bozorida faol targ‘ib qilish uchun marketing strategiyalarini kuchaytirish kerak. Bu raqamli marketing, xalqaro turizm yarmarkalari va sayyoohlilik tadbirlarida ishtirok etishni o‘z ichiga oladi.

Yaponiyada muvaffaqiyatli amalga oshirilgan “Visit Japan” loyihasiga o‘xhash dasturlarni boshqa Sharq mamlakatlarida ham tatbiq etish mumkin.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish uchun o‘quv dasturlari va treninglar tashkil etish zarur. Bu turizm xizmatlari sifatini oshirish va sayyoohlar uchun yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga yordam beradi.

Turizm sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratish uchun yoshlar va kichik biznes subyektlariga ko‘maklashish lozim.

Turizm sohasi bo‘yicha ishonchli va dolzarb statistika ma’lumotlarini yig‘ish va tahlil qilishni takomillashtirish kerak. Bu turizm sohasidagi qaror qabul qilish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Turizm statistikasini milliy va xalqaro miqyosda uyg‘unlashtirish uchun statistika usullarini standartlashtirish lozim.

Sharq mamlakatlari o‘rtasida turizm sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu, tajriba almashish, qo‘shma loyihalar va dasturlarni amalga oshirish orqali turizmni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Xalqaro turizm tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, turizmni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalardan foydalanish lozim.

Ushbu takliflar, Sharq mamlakatlarida turizmni rivojlantirish va uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga qaratilgan bo‘lib, turizm sektorining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir), 2000-y, 26 may.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi Qonuni, 30.04.1998-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. 16.08.2017 yildagi PQ-3217-son. <https://lex.uz/docs/-3311817?ONDATE=17.08.2017>
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг “ЎЗБЕКТУРИЗМ” миллий компанияси фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида”ги Қарори. 20.10.1992 йилдаги 484-сон
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 18-fevraldaggi PQ-135-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-5868619>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-avgustdagji PF-5781-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6199-sonli Farmoni
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk Ipak Yo‘lini tiklash va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 02.06.1995 y., PF-1162-son Farmoni.

Ilmiy adabiyotlar

1. “India tourism statistic at a glance 2023” (PDF). 28 July 2023.
2. “Economic Stimulus Package takes effect from today”. The Oriental Daily. 2020.04.01
3. “Visitor arrivals to Singapore rise 6.2% to hit new high in 2018: STB”

4. 8th International Strategic Management Conference. International Competitive Advantage of Turkish Tourism Industry: A Comperative Analyse of Turkey and Spain By Using The Diamond Model of M. Porter. Sakarya University, Turke
5. A .Moor. Tourism Industry Rising in Importance in Turkey. Article. 2011. <https://www.tourism-review.com/travel-tourism-magazine-turkey-tourism-industry-developing-fast-article1519>
6. Alejandrino-Yap, M. Dornan & K. McGovern. Infrastructure Maintenance in the Pacific: Challenging the Build-Neglect-Rebuild Paradigm. Sydney: Pacific Infrastructure Advisory Centre (PIAC) (2013)
7. Bekmurodova L. Turizm va mehmondstlik sanoatida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning istiqbollari.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2 | issue 8.2022. P.268.
8. Channel NewsAsia (13-fevral 2019-yil). Qaraldi: 27-avgust 2019-yil
9. Chowdhury, I., & Chhikara, D. (2020). Recovery strategy for tourism industry post-pandemic. Mukt Shabd Journal, 9(8).
10. Cooper, C., Scott, N., & Kester, J. (2005). Sustainable tourism in Malaysia: challenges and opportunities. Asia Pacific Journal of Tourism Research, 10(2), 191-203.
11. E.M. Bergman & D. Sun. Infrastructure and Manufacturing Productivity: Regional Accessibility and Development Level Effects. In Batten, D.F. & C. Kalsson (eds.). Infrastructure and the Complexity of Economic Development. Advances in Spatial Science. Springer. Berlin. 17-35 (1996).
12. Henderson, V. (2003). The Urbanization Process and Economic Growth: The So-What Question. Journal of Economic Growth, 8, 47-71
13. Murodov H.S. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanishiva uning me’yoriy-huquqiy asoslari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -2022. -№ 1(4). ISSN: 2181-1342 11-6. <https://sciencenroblems.uz>
14. Singapore is 2nd most visited city in Asia-Pacific, 5th in the world: Mastercard (inglizcha). The Straits Times (26-sentabr 2018-yil). Qaraldi: 1-oktabr 2018-yil.
15. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Ташкент, Университет: 2002.-48 с.
16. Гонсалес де Клавихо Р. Дневник путешествия в Самарканد ко двору Тимура (1403-1406). М., 1990.

17. К.Аккалаева. Особенности индустрии туризма в Турецкой Республике//Journal of economy and business, vol.11-1(69), 2020. С.13.
18. Қурбонов А., Хўжаназаров А. Туризм соҳасида янги босқич //“Бойсун-баҳори” очик фольклор фестивалини “Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти”. Халқаро илмий амалий конференция мақолалар тўплами. 48-51 б.
19. М. Маҳмудов. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда туризм тараққиёти: муаммолар ва ечимлар// Бойсун баҳори. Б.319-321.
20. Таштаева С. Туризм иқтисоди ва географияси. Ўқув қўлланма. -Т., 2023.Б-8.
21. Туляков Э. Расширяются возможности развития внутреннего и паломнического туризма. https://uza.uz/ru/posts/rasshiriyayutsya-vozmozhnosti-razvitiya-vnutrennego-i-palomnicheskogo-turizma_37132
22. Христов Тодор Тодорович. Виды и особенности туризма штата пинанг (Малайзия) // Вестник МГПУ. Серия: Естественные науки. 2021. №3 (43). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vidy-i-osobennosti-turizma-shtata-pinang-malayziya> (дата обращения: 01.12.2023).
23. Эштаев А. Ўзбекистон республикасида ички ва зиёрат туризмини ривожлантириш истиқболлари. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, 2021.381-бет.

Statistik to‘plamlar va internet resurslari

1. Finance ministry to handle tourism. (1963, January 23). The Straits Times, p. 6. Retrieved from NewspaperSG.
2. Global MICE Cities | Why Japan | Japan. Meetings & Evens (japanmeetings.org)
3. Government of Malaysia (2010). Malaysia Tourism Transformation Plan 2020. Ministry of Tourism, Malaysia.
4. Govt backing for tourism. (1963, July 31). The Straits Times, p. 4. Retrieved from NewspaperSG.
5. <https://tourism.gov.in/sites/default/files/2022-06/Brief%20write%20up.pdf>, “India Tourism Statistics at a Glance” (PDF). Archived (PDF) from the original on 31 October 2021. Retrieved 9 December 2021. Ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.
6. <https://tourism.gov.in/sites/default/files/2022-06/Brief%20write%20up.pdf>, "India Tourism Statistics at a Glance" (PDF). Archived (PDF) from the original on 31 October 2021. Retrieved 9 December 2021.
7. <https://uza.uz/posts/99106>

8.
9. https://wii.gov.in/nwdc_national_parks ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Faqat milliy bog'lar mavjud hududlar ryxatigina jadvalda keltrilgan
10. <https://www.gazeta.uz/uz/>
11. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/30/list/>
12. <https://www.mlit.go.jp/kankocho/about/soshiki.html>
13. <https://www.mlit.go.jp/kankocho/kankorikkoku/kihonkeikaku.html>
14. <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/hospitality-industry-in-malaysia>
15. <https://www.statista.com/statistics/1004711/tourist-arrivals-malaysia/>
16. <https://www.statista.com/statistics/644853/travel-and-tourism-employment-contribution-turkey/>
17. <https://www.statista.com/statistics/731610/domestic-and-foreign-tourism-contribution-to-gdp-japan/>
18. <https://www.statista.com/statistics/921136/departing-foreign-visitors-from-turkey-by-purpose-of-visit/>
19. <https://www.statista.com/statistics/954719/employment-tourism-industries-malaysia/>
20. https://www.tripadvisor.com/Restaurants-g298570-Kuala_Lumpur_Wilayah_Persekutuan.html
21. <https://www.ttgasia.com/2023/09/11/uzbekistan-adds-malaysians-to-its-tourism-goals/>
22. <https://www.uzdaily.uz/uz/post/8921>
23. India Tourism Statistics 2022, P.25-31.
24. issues_for_the_development_of_tourism_routes_and_gateways_and_their_potential_for_ProPoor_Tourism/links/0046352d83f1db7cd1000000?origin=publication_detail (2004)
25. Japan | OECD Tourism Trends and Policies 2022 | OECD iLibrary (oecd-ilibrary.org)
26. Japan-bound Statistics - Tourism Statistics - JTB Tourism Research & Consulting Co.
27. JNTO va OECD 2019 ma'lumotlari
28. Kazım Ozan Özer et al. / Procedia - Social and Behavioral Sciences 58 (2012) 1064 – 1076
29. Malaysia's tourism recovery flops as Thailand, Indonesia cash in. <https://www.aljazeera.com/economy/2023/1/16/malaysia-tourism-recovery-lags-thailand-indonesia-vietnam>

30. Malaysia's tourism contributes 14 pct to GDP in 2022. <https://english.news.cn/asiapacific/20230920/be0f092dcd014b22bfaf4cb754f9f688/c.html>
31. Ministry of Tourism, Arts, and Culture (MOTAC). (2020). National Tourism Policy 2020-2030.
32. Number of international tourist arrivals worldwide from 1950 to 2022(in millions)// <https://www.statista.com/statistics/209334/total-number-of-international-tourist-arrivals/#:~:text=The%20number%20of%20international%20tourist,approximately%20969%20million%20in%202022>.
33. Singapore can become the Honolulu of South-East Asia. (1963, July 30). The Straits Times, p. 15. Retrieved from NewspaperSG.
34. Singapore Tourist Promotion Board. (1965). Annual report 1964. Singapore: The Author, p. 2. (Call no.: RCLOS 338.479104 STPB-[AR])
35. Singapore Tourist Promotion Board. (1996). Tourism 21: Vision of a tourism capital. Singapore: Pagesetters Services, p. 54. (Call no.: RSING 338.47915957 SIN)
36. Smart Tourism: Future Of Tourism In Malaysia. <https://www.mida.gov.my/smart-tourism-future-of-tourism-in-malaysia/>
37. Taburan Penduduk dan Ciri-ciri Asas Demografi 82. Jabatan Perangkaan Malaysia.
38. The challenges of economic diversification through tourism: the case of Abu Dhabi. International Journal of Tourism Research, Sharpley R. 2012.
39. The Observer. 2010. Ski in the desert? It could only happen in Dubai. The Observer 20 November.
40. Tourism Statistics in Kingdom of Saudi Arabia - 2021 Annual report.
41. UAE economy, www.factfish.com
42. UAE. 2011. United Arab Emirates Yearbook. Planet:London, 2011
43. United Arab Emirates website. <http://www.uae.org.ae> (accessed 10 December 2012).
44. UNWTO/World Tourism Barometer/ Vol 20. Issue 5. September 2022.
45. World Development Indicators database, World Bank, 1 July 2022.
46. World Economic Forum, “The Travel & Tourism Competitiveness Report”, 2011
47. World Economic Forum, “The Travel & Tourism Competitiveness Report”, 2013

48. World rankings//https://en.wikipedia.org/wiki/World_Tourism_rankings Tourism
49. Worlddata.info//<https://www.worlddata.info/asia/turkey/tourism.php>
50. www.horwathhtl.com
51. www.iccaworld.org
52. www.invest.gov.tr
53. www.ktb.gov.tr
54. www.statista.com
55. www.tuik.gov.tr
56. www.wttc.org
57. <http://www.uzbekistan-geneva.ch/turizm-191.html>
58. <https://avia.ooo/The-number-of-tourists-in-Dubai-is-growing/>
59. https://ded.ae/laws_and_regulations/en/tourism_and_legislations
60. <https://doi.org/10.1023/A:1022860800744>
61. <https://drawmeaplanet.ru/dubai-statistics/>
62. <https://kun.uz/news/2023/01/31/sayyohlar-soni-oshmoqda>
63. <https://nonews.co/directory/lists/countries/travel-tourism-competitiveness>
64. <https://relocate-uae.com/shtraf-v-dubae-dlya-turistov/>
65. https://studwood.net/1105577/turizm/turizm_yaponii
66. <https://tourism.gov.in/sites/default/files/2022-06/Brief%20write%20up.pdf>, “India Tourism Statistics at a Glance” (PDF). Archived (PDF) from the original on 31 October 2021. Retrieved 9 December 2021. Ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Azizova N.T., Erkaboyev A.B., Komilova M., Arifjonov G.,
Narov U.I., Abdullayeva S.Ye. Voxidova M.X., Xusanov Ch.Q.,
Erkaboyev A., Risqulov R.B., Kadirova Z.A., Gaziyeva S.S., Tashtayeva S.K.

SHARQ MAMLAKATLARIDA TURIZM RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

MONOGRAFIYA

Muharrir: O.Fozilova
Dizayner-sahifalovchi: U.Raxmatov

Tasdiqnomalar №212405. 25.01.2024-y.
«BEST-PUBLISH» nashriyoti

100000, Toshkent shahri, Oqtepa ko‘chasi, 49-uy.
email: best-publish2024@gmail.com